



Onore de
Balzak

Dahriyning ibodati




YANGLI ASR AVLODI
TOSHKENT
2016

UO‘K: 821.134.2-3

KBK: 84(4Fr)

B – 26

Balzak, Onore de

Dahriyning ibodati. Onore de Balzak. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 208 b.

ISBN 978-9943-27-700-7

Onore de Balzak asarlari Yevropa adabiyotining gultoji sanaladi. Gobsek, Deplen, Gorio Ota, Lui Lamber – ularning hech biri bir-birini takrorlamaydi, ular qalbidagi mushtarak maqsad, ichki ziddiyatlar, orzular, boringki, adabiyotning insoniyatga ko‘rsatadigan xizmati nuqtayi nazaridan bir-biriga juda yaqin. Mana shu ishki kechinmalarni yurakdan his etgan Balzak o‘z asarlaridan birida shunday yozadi: «Kishi haqida hukm chiqarishdan oldin loaqal uning fikr-asrori, uning baxtsizligi, uning hayajoniga sherik bo‘lish kerak».

Qadrli kitobxon! Agar Balzak qahramonlarining ichki kechinmalarini tushunmoqchi bo‘lsangiz, albatta, ushbu asar mutolaasiga shoshiling.

UO‘K: 821.134.2-3

KBK: 84(4Fr)

ISBN 978-9943-27-700-7

© Onore de Balzak, «Dahriyning ibodati». «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

Mahkam Mahmudov va Mirziyod Mirzoidov tarjimasi

GOBSEK

(Qissa)

Baron barsh de Ponoenga

Vandom kollejining barcha talabalaridan, chamasi, yolg'iz ikkovimiz – sen-u men adabiyot sohasini tanlabmiz – faqat De viris¹ sahifalari bilangina mashg'ul bo'ladigan chog'larimizda o'zimizni falsafaga urib chakki qilmagan ekanmiz. Biz sen bilan – men mazkur qissani yozayotgan, sen esa nemis falsafasi haqida ajoyib asarlaringni yaratayotgan paytingda yana uchrashdik. Xullas, ikkovimiz ham o'z e'tiqodimizga sodiq qoldik. Bu asarda o'z nomingni ko'rish, men uchun uni qog'ozga bitish naqadar ko'ngilli bo'lganidek, senga ham shunchalik ko'ngilli bo'ladi, degan umiddaman.

Qadrdon maktabdosh do'sting

DE BALZAK

Kunlardan bir kun 1829–1830-yil qishda vikontessa de Granle mehmonxonasida unga yetti yot begona ikki mehmon soat kechasi birgacha qolib ketdi. Mehmonlardan biri chiroyli, navqiron yigit kamin ustidagi soat bong urganini eshitib, shosha-pisha xayr-xo'shlashdi. Hovlida foytunning g'ildiraklari taqirlaganda,

¹ De viris illustribus (*lot.*) («Mashhur arboblard») – asosan sarkardalarning tarjimayi hollari bayon qilingan xrestomatiya.

vikontessa piket¹ o'yinini tugatayotgan ukasiyu oila do'sti qolganini ko'rgach, qizining yoniga keldi: qizi kamin oldida turar va o'zini kamin panjarasidagi naqshlarni berilib tomosha qilayotganga solar, biroq aslida uzoqlashib borayotgan foytunning ovozigiga quloq tutardi. Bu hol onaning gumonini tasdiqladi.

– Kamilla, agar sen bundan keyin ham graf de Resto bilan bugun kechqurundagi kabi muomala qilsang, men uydan uning qadamini uzib yuboraman. Menga quloq sol, qizim, agar mening samimiy mehr-muhabbatimga ishonsang, hayotda senga yo'l-yo'riq ko'rsatishimga ijozat et. Qiz bola o'n yetti yasharligida na o'tmishni, na kelajakni va na jamiyatning ba'zi talablarini idrok eta oladi. E'tiboringni bir narsaga jalb etmoqchiman: janob de Restoning million so'mlik mol-dunyoni paqqos yutib yuboradigan zoti past onasi bor. Uning qizlikdagi familiyasi Gorio edi, yoshligida o'z axloqi tufayli ko'p gap-so'zlarga qolgan. U otasini xor qilgan, janob de Restodek xushaxloq o'g'ilga ona bo'lishga u nomunosib. Yosh graf uni jon-dilidan yaxshi ko'radi, o'g'illik mehr-muhabbati bilan uni avaylab-asraydi. Bu ishi har qancha maqtovga loyiq, uning singlisi va ukasiga g'amxo'rligini aytmaytizmi! Xullas, u bag'oyat xushaxloq, lekin, – deb ilova qildi vikontessa chehrasiga ayyorona tus berib, – onasi hayot ekan, bironta baobro' xonadondagi ota-ona bu o'ktam yigitga qizining istiqbolini va sepini ishonib topshirishga jur'at etolmaydi.

¹ Piket – qarta o'yinining bir turi. (*Tarj.*)

– Mademuazel de Granle bilan qilgan suhbatingizdan ba’zi so’zlar qulog’imga chalindi, shu bois suhbatingizga qo’shilmoqchiman! – deb xitob qildi yuqorida nomi zikr etilgan oila do’sti. – Men yutdim, graf, – deb murojaat qildi u sherigiga. – Sizni o’z xolingizga qo’yib, jiyaningizga madad berishga oshiqaman.

– Qoyil, ming qilsayam adliyachisiz-da,¹ – deb yubordi vikontessa. – Qadrli Dervil, Kamillaga aytgan gaplarimni qanday qilib eshita qoldingiz?! Men u bilan juda sekin shivirlab gaplashgandim.

– Men nima deganingizni ko’zlaringizdan bildim, – deb javob berdi Dervil, kamin yonidagi chuqur kursiga o’tirayotib.

Kamillaning tog’asi jiyanining yoniga o’tirdi, de Granle xonim esa, qizi bilan Dervil o’rtasidagi pastak yumshoqqina kursiga cho’kdi.

– Vikontsessa, men graf Ernest de Restoga munosabatingizni o’zgartirishga majbur etuvchi bir voqeani so’zlab berishimga fursat yetdi.

– Voqeani?! – deb xitob qildi Kamilla. – Tezroq so’zlang, janob Dervil.

Adliyachi de Granle xonimga nazar tashladi, bundan u hikoya uning uchun qiziq bo’lishini fahmladi. Vikontessa de Granle nasl-nasabining badavlatligi va nomdorligi bilan Sen-Jermen dahasi atrofidagi eng mo’tabar begoyimlardan biri ediki, albatta qandaydir parijlik adliyachining u bilan bemalol gaplashishi va uning mehmonxonasida o’zini erkin tutishi

¹ Adliyachi – sud vakili, biron oilaning yoki biron shaxsning huquqini davlat muassasalarida, mahkamalarida himoya qiluvchi ishonchli vakil. (*Tarj.*)

g'alati ko'rinardi. Lekin bu sirni yechish juda oson. De Granle xonim qirolning oilasi bilan Fransiyaga qaytib kelgach, Parijda joylashgan va dastlabki kunlarda faqat Lyudovik XVII, Sivilniy list¹ hisobidan belgilagan nafaqaga tirikchilik o'tkazgandi. Bu uning dilini qattiq og'ritgan edi. Adliyachi Dervil Respublika o'sha vaqtda Granlening dang'illama uyini sotganida juz'iy xatoga yo'l qo'rganini tasodifan ko'rib qoladi-yu, bu uy vikontessaga qaytarilishi kerak, deb talab qiladi. Vikontessaning topshirig'i bilan u sud majlisida qatnashadi va ishni yutib chiqadi. Bu muvaffaqiyatdan dag'allashgan Dervil keksalar uyi bilan janjalli sud ishi boshladi va Lisnedagi o'rmonzorlarni vikontessaga qaytarishga muvaffaq bo'ldi. Keyin unga Orlean kanalining bir necha aksiyasiga va imperator jamoat muassasalariga hadya qilgan ajabtovur katta binolarga egalik huquqini olib berdi. De Granle xonimning boyligi epchil, navqiron vakil sharofati bilan tiklandi va yiliga oltmish ming frank daromad keltira boshladi, bu yoqda yana muhojirlar ko'rgan zararlarni to'lash haqida qonun chiqib qoldi-yu, u juda katta pul oldi. Insof-diyonatli, bilimdon, kamtar va nazokatli adliyachi Granle oilasining do'sti bo'lib qoldi. U o'z nazokati va sertavozeligi bilan de Granle xonimga sadoqati va hurmat-ehtiromi bilan Sen-Jermendagi obro'li xonadonlarda yangi mijozlar topdi. Biroq yigit ba'zi izzattalab odamlar kabi ularning iltifotini suiiste'mol qilmadi.

¹ Sivilniy list – davlat byudjeti tomonidan podsho va saroy xarajati uchun ajratiladigan mablag'.

U hatto vikontessaning, idorangizni soting va adliya mahkamasiga o'ting, bu yerda mening himoyatim soyasida tez vaqt ichida martabali bo'lib ketasiz, deb qilgan taklifini ham rad etdi. U ora-sira de Granle xonimning uyida kech-qurunlari bo'lishini hisobga olmaganda, «yuqori tabaqa»ga mansub odamlar orasida faqat aloqani tiklash uchun ko'rinib qolardi. Adliyachi de Granle xonim manfaatlarini jon-jahdi bilan himoya qilar ekan, o'zini baxtli hisoblar, bu bilan o'zining ham qobiliyatini namoyish qilardi. Yo'qsa, idorasi zavol topishi muqarrar edi. Zero, unda adliyachilarda bo'ladigan olg'irlik yo'q edi. Graf Ernest Resto vikontessaning uyida kunda-shunda bo'lib qolganidan beri, Dervil Kamillaning bu yigitga ko'ngli borligini fahmlab, de Granle xonimning mehmonxonasidan arimay qoldi. Uning bu qiligi kuni kecha Sen-Jermen zodagonlar jamiyatiga kira olishga ruxsat olgan Shosse d'antenlik oliftani eslatardi. Ta'rif etilgan kechadan bir necha kun avval Dervil balda mademuazel de Granleni uchratib qoldi va grafni imlab ko'rsatib dedi:

– Afsuski, bu yigitchaning ikki-uch millioni yo'q! To'g'rimi?

– Nima uchun afsus? Men buni baxtsizlik deb o'ylamayman, – dedi qiz. – Janob de Resto juda qobiliyatli, ma'lumotli odam. Hozir u ministr ixtiyoriga yuborilgan. Ministr uni hurmat qiladi. Undan ajoyib arbob chiqishiga men zarracha shubhalanmayman. Bu «yigitcha» katta mansabga minsa, boyluk o'z-o'zidan kelaveradi uning qo'liga

– Ha, lekin hozirning o‘zida badavlat bo‘lganida edi!

– Badavlat bo‘lgandami? – deb takrorladi Kamilla anordek qizarib. – Unda bu yerda raqs tushayotgan qizlarning hammasi uni xomtalash qilib yuborardi, – deb ilova qildi u kadrilga raqs tushayotgan qizlarni ko‘rsatib.

– Ana unda, – dedi adliyachi, – mademua-
zel de Granle uning nigohini o‘ziga tortayotgan
yolg‘iz ohanrabo bo‘lmasdi. Qizarib ketdingiz
chog‘i? Buning boisi ne ekan? Unga ko‘nglingiz
bormi? Aytavering...

Kamilla kursidan yengil dik etib turdi.

«Uni sevib qolibdi», deb o‘yladi Dervil. Shu kundan boshlab Kamilla Ernest de Restoga moyilligini Dervil ma‘qullaganini fahmlab unga alohida hurmat ko‘rsata boshladi. Shu asnogacha u garchi oilasi ko‘p narsa uchun Dervildan minnatdor ekanligini bilsa ham, uni hurmat qilishga qilardi-yu, lekin astoydil do‘stlik mehri bilan sevmasdi, shu bois u bilan muomalada samimiylikdan ko‘ra ko‘proq iltifot sezilib turar edi. Uning xatti-harakatlari va gap-so‘zlarida oralaridagi tafovutni ko‘rsatib turuvchi allanarsa bor ediki, buni zodagonlar o‘rnatgan va u zodagoncha mulozamat deb atalar edi. Minnatdorlik – bu qarz, turgan gapki, uni bolalar meros sifatida ota-onalaridan aslo bajonidil qabul qilib olmaydilar.

Dervil fikrlarini bir joyga jamlash uchun picha sukut saqladi, so‘ng gap boshladi:

– Bugungi kecha hayotimda atigi bir marta bo‘lib o‘tgan ishqiy mojaroni esimga tushirdi...

Mana siz, qiziq, adliyachining ham boshiga ishq savdosi tushgan ekan-da, deb kulyapsiz. Axir men ham bir vaqtlar yigirma besh yashar yigit edim, o'sha yoshlik chog'larimda ancha-muncha ajoyib ishlarning shohidi bo'lganman. Dastavval men sizga hikoyamda qatnashadigan bir odam to'g'risida so'zlab berishim kerak, turgan gapki, siz uni tanishingiz mumkin emas – gap bir sudxo'r haqida boradi. Mening so'zlarimdan siz u odamning afti basharasini ko'z oldingizga keltira olasizmi, yo'qmi, bilmayman, lekin Akademiyaning ijozati bilan uni mohiruxsor deb atashga tayyorman, zero ruxsorning oqish, sarg'ishligi zarhali ko'chgan kumush rangini eslatardi. Sudxo'rimning sochlari tikkaygan, mudom hafsala bilan taralgan, rasmana oqargan, kulrang ko'kimtir edi. Yuzining tarxlari xuddi Taleyrannikidek¹ bezraygan, shavqsiz, go'yo bronzadan quyilgandek tuyulardi. Ko'zlari kichkina, sassiq ko'zannikidek sariq, qariyb kipriksiz, o'tkir yorug'ga tob berolmas, shu bois soyaboni katta, uringan kartuz kiyib yurardi. Uzun burnining uchi cho'tir, parmachaga o'xshar, lablari kimyogarlar, Rembrandt va Metsu suratlaridagi ko'hna chollarnikidek yupqa edi. Bu odam sekin, mayin gapirardi, hech qachon qizishmasdi. Uning yoshini aniqlash maxol edi: shuncha umr ko'rib u keksayganmi yoki yaxshi saqlangan-u abadulabad yoshdek bo'lib qolaveradimi, zinhor-bazinhor

¹ Taleyran Sharl Moris (1754–1838) – fransuz diplomati va siyosiy arbobi. U o'ta tuturuqsizligi bilan nom chiqargan. Napoleon I va Restavratsiya davrida tashqi ishlar ministri bo'lgan.

tushunolmasdim. Uning xonasidagi hamma narsa: yozuv stoliga yopilgan yashil movutdan tortib karavot oldiga solingan gilamchagacha top-toza qilib qo'yilgan edi. Ko'ring-ko'rmang, xuddi kun bo'yi befayz oshyonida hammayoqni supurib-sidirib, mebelni mum bilan artib yuruvchi qari qiz uyining o'zginasi edi. Qishda kaminda kul bilan qoplangan cho'g' asta tutab turar, hech qachon gurillab yonmasdi. Ko'zini ochganidan to yo'tali tutadigan kechga dovur uning harakatlari soat kapgiri singari bir maromda bo'lardi. U bamisoli ertalab burab qo'yiladigan odam-avtomat edi. Agar qog'oz ustida sudralib borayotgan eshakqurtiga qo'l tekizsangiz, u bir zum to'xtab qoladi va toshdek qotadi: bu odam ham suhbat paytida deraza tagidan o'tib borayotgan foytunning shovqini tinishini kutib, birdan sukutga cho'mar, sababi, ovozini baland ko'tarishni istamasdi. Fontenel¹ singari o'zidagi barcha insoniy his-tuyg'ularni jilovlab, hayotiy kuchni tejar edi. Xullas, uning hayoti qadimgi qum soatda bir tekis to'kiladigan qumdek osoyishta o'tardi Ba'zan uning domiga ilinganlar achchiqlanishar, qattiq qichqirishar, so'ng birdan oshxonaga o'rdak so'ygandan keyin bo'ladigan sukunat cho'kardi. Kechga borib veksell-odam oddiy odam bo'lib qolar, ko'ksidagi bir parcha temir inson yuragiga aylanar edi. Bordi-yu, u o'tgan kundan ko'ngli to'lsa, qo'lini ishqalar, yuzini o'rgimchak ini kabi qoplagan chuqur ajinlardan quvonch nuri taralayot-

¹ Balzak bu yerda benihoya bosiq va xotirjam fransuz yozuvchisi Fontenelni (1657–1757) ko'zda tutgan.

gandek bo'lardi – rost, uning unsiz iljayishini, yuzining mushaklari harakatini chamasi Charm Paypoqning¹ xuddi o'shanday sassiz kulgisiga qiyos qilish bilangina ta'riflash mumkin bo'lar. Hamma vaqt, hatto eng quvonchli damlarda ham u bor-yo'g'i bir og'iz gapirar, sipolikni qo'ldan bermasdi. Zamonaning zayli bilan de-Gre ko'chasida turganimda shunday qo'shniga duch keldim. O'sha vaqtda men sud nazoratchisining idorasida kichik kotib vazifasida ishlardim va huquqshunoslik fakultetining so'nggi bosqichida o'qirdim. Bu fayzsiz, zax uyning hovlisi yo'q, barcha derazalari ko'chaga qaragan edi, xonalarning joylashishi rohibalarning hujralarini eslatardi; ularning katta-kichikligi bir xil; har bir hujraning yagona eshigi tor, darchalari bo'lgan nimqorong'i uzun yo'lakka ochilardi. Ha, bu bino chindan ham bir vaqtlar monastir mehmonxonasi bo'lgan edi. Bu xafagazak maskanda bitta-yarimta oqsuyak ishratboz yigitning shaddod sho'xligi qo'shnimning yoniga kirmasidanoq so'nardi: uy bilan yashovchisi xil tushgan edi, baayni qoya va unga yopishib olgan shilliqqurt. Chol mulqotda bo'ladigan yagona odam men edim. U mendan cho'g' so'rab, o'qish uchun kitob yoki gazeta olgani chiqib turar, kechqurunlari kulbasiga qadam ranjida qilishimga ruxsat etar, ba'zan, rag'bati bo'lsa, biz ikkovlon suhbatlashib o'tirar ham edik. Bunday ishonch to'rt

¹ Charm Paypoq – Amerika yozuvchisi Fenimor Kuper qalamiga mansub (1789–1851) qator romanlar: «Oxirgi mogikan», «Izquvar», «Hayvon ovchisi»ning qahramoni ovchi Natti Bamponing laqabi.

yillik qo'shnichiligimiz va mening boodobligim samarasi edi. Pulim yo'qligi vajidan mening hayot kechirishim ham shu cholnikiga o'xshab ketardi. Uning qarindosh-xeshlari yoki do'st-yorlari bormidi? Boymidi u, kambag'almididi? Bu savollarga bironta odam javob berolmasdi. Men sira ham uning qo'lida pul ko'rmaganman. Bordi-yu, mol-dunyosi bo'lgan bo'lsa, chamasi, bank yer-to'lasida saqlanardi. U veksellar pulini undirar, ish bajarish uchun chillakdek, bug'uniki singari oriqli oyoqlari bilan butun Parijni ildam aylanib chiqardi. Bir kuni u tasodifan cho'ntagida pul olib yurgan-u, nimadir bo'lib nimchasining cho'ntagidan qo'sh napoleondor¹ tushib qolgan. Uning orqasidan tushib kelayotgan qo'shnisi tangani olib unga uzatgan.

– Meniki emas bu! – deb xitob qilgan chol qo'lini siltab. – Tilla! Menda-ya? Boy bo'lganimda hech vaqt shunday yasharmidim!

Ertalablari kamin yonidagi dud bosgan burchakka qo'yilgan temir pechkada o'zi qahva qaynatar: tushlikni unga restorandan olib kelishar edi. Farrosh kampir belgilangan soatda uning xonasini supurib sidirgani kelardi. Tasodifni qarangi, uning familiyasi – Stern qismat deb atagan bo'lardi – juda g'alati, Gobsek² edi. Stern bunday holatda peshana-da, der edi. Keyinchalik u ishlarini olib borishni menga topshirganida, bildimki, men tanishgan vaqtimdayoq u yetmish oltini urib qo'ygani ekan.

¹ Qo'sh napoleondor – oltin tanga, bir napoleondor 20 frankka teng. (Tarj.)

² Ochofat. (Tarj.)

U 1740-yilda Antverpenda tugʻilgan ekan: onasi yahudiy, otasi – golland, toʻla ism-sharifi Jan-Ester van Gobsek ekan. Albatta, siz butun Parijda duv-duv gap boʻlgan «Goʻzal Golland» deb atalgan ayolning halokati toʻgʻrisida eshitgansiz. Kunlardan bir kun sobiq qoʻshnim bilan suhatlashib oʻtirganimizda nogahon bu hodisani esga oldim. Shunda u pinagini buzmay:

– Ha, u nabira jiyanim, – dedi.

Yagona merosxoʻri, singlisining nabirasi oʻlimi uni ogʻiz ochishga majbur qildi. Sudda ish koʻrilayotganda men Goʻzal Gollandni Sara de Gobsek deb atashganini bildim. Gobsekdan men bu gʻalati voqeani, yaʼni singlisining nabirasi uning familiyasida yurgani sababini tushuntirib berishini soʻraganimda u iljayib:

– Bizning avlodda hech bir ayol erga tegmaydi, – deb javob bergan edi.

Bu gʻaroyib odam butun urugʻ-aymogʻini tashkil etuvchi toʻrt avlod xotin-qizlaridan biron-tasini ham koʻrishni istamadi. Merosxoʻrlarini koʻrgani koʻzi yoʻq edi uning, mol-dunyosiga ular hatto oʻlganidan keyin ham ega chiqishini xayoliga keltirmasdi. Oʻn yasharligida onasi uni kemaga yungalikka kiritib qoʻygan va shu bilan u gollandlarning Sharqiy Hindistondagi mulklariga suzib ketgan, yigirma yil bu yerda darbadar hayot kechirgan edi. Sargʻish manglayidagi ajinlar dahshatli sinovlarning, nogahoniy qoʻrqinchli voqealarning, tasodifiy muvaffaqiyatlarning, joʻshqin kechinmalarning, beaded shodliklarning, och yurgan kunlarning, zavol topgan sevgining, boylikning, qashshoqlikning,

yana boylik orttirishning, tahlikali xavf-xatar-ning, o'lim changalidan bir soniyalik fursat, balki shafqatsizlarcha qilingan xatti-harakatlar tufayli omon qolgan paytlarining izini saqlab turardi. U janob de Lallini, admiral Simezni, janob de Kergaruetni va d'Estenni, bayi de Syurfenni, janob de Portandyuerni, lord Kornuelsni, lord Gastingsni, Tipu sohibning otasini va Tipu¹ sohibning o'zini tanirdi. Dehlida roja Maxaji Sinunaxuga xizmat qiluvchi, Maxaratiylarning kuch-qudratini oshirish yo'lida jonbozlik qiluvchi mahkama boshlig'ining o'zi bilan u birgalikda ish olib borardi. Uning Viktor Yuz va boshqa mashhur qaroqchilar bilan ham qandaydir aloqasi bor edi. Axir u Sen-Tom orolida uzoq vaqt yashagan edi-da. U boyish maqsadida ming go'laxga kirib chiqqan, hatto dovruq solgan dafina yovvoyilar qabilasi ko'mgan oltinni qidirib topish uchun Buenos-Ayresning chekka yerlarigacha borgan edi. Qo'shma Shtatlarining mustaqilligi uchun bo'lgan urushlarning barcha voqea-hodisalarida u qatnashgan edi. Ammo Hindiston yoki Amerika haqida u faqat men bilan ora-sira suhbatlashar, har safar shundan keyin «ezmalik» qilgani uchun go'yo pushaymon yegandek bo'lar edi. Agar odamiylik, odamlar o'rtasidagi munosabatlar o'z yo'li-

¹ Balzak Hindistonni istilo qilish uchun (XVII asrning 50–60-yillari) ingliz-fransuz qurolli kurashi davridagi Fransiya, Angliya va Hindistonning qator harbiy va siyosiy arboblarning ismi sharifini keltirgan, u tarixiy shaxslar (Lalli, Syufren, Gastings, Tipu sohib va boshqalar bilan birga «Bashariyat komediyasi» personajlarining yasama nomlarini (Kergaruet, de Portandyuer) ham keltiradi.

da din deb atalsa, Gobsekni dahriy deyish kerak edi. Garchi uni o'rganishni oldimga maqsad qilib qo'ygan bo'lsam ham, shuni sharmandalarcha e'tirof etishim kerakki, so'nggi daqiqagacha uning qalbi men uchun zim-ziyo qorong'iligicha qoldi. Ba'zan hatto o'zimdan o'zim, bu erkakmi yoki ayolmi, deb so'rardim. Basharti barcha sudxo'rlar unga o'xshasa, turgan gapki, ularni xudo urgan ekan. U onasining diniga sodiq qolganmidi va nasroniylarga bir o'lja sifatida qararmidi? Katolik, musulmon, braxmanlik ixlosmandi, lyuterchi bo'lganmidi? Uning iymon-ishonchi haqida men hech narsa bilmasdim. Din masalalariga u dahriylarga qaraganda ko'proq beparvo edi. Bir kuni kechqurun men bu tilla butga aylangan, unga yemish bo'lganlar istehzo bilan «Gobsek ota» deb atagan odamning uyiga kirdim. U o'z odaticha chuqur kursida go'yo hisobot kvitansiyalari va tilxatlarni qayta boshdan o'qiyotgandek qimir etmay kaminning zehiga nigohini qadab o'tirar edi. Siyqalanib ketgan yashil taglikda tutayotgan chiroq nuri uning yuziga tushib turar, biroq bundan uning yuzi aslo jilolanmas, qaytanga battar rangpar ko'rinar edi. Chol menga qaradi va qo'li bilan odatda men o'tiradigan stulni ko'rsatdi. «Bu jonzot nima ni o'ylayotibdi? – deb so'radim o'zimdan o'zim. – Dunyoda xudo, his-tuyg'u, sevgi-baxt degan narsalar borligini bilarmikin?»

Go'yo u og'ir betobdek hatto unga rahmim ham keldi. Lekin men, bordi-yu, uning bankda millionlari bo'lsa, o'zi kezib chiqqan, tit-pitini chiqazgan, salmoqlab ko'rgan, baho qo'ygan,

talagan barcha mamlakatlarni xayolan zabt etishi mumkinligini juda yaxshi tushunardim.

– Salom, Gobsek ota, – dedim men.

U boshini o‘girdi, quyuq qora qoshlari bilinar-bilinmas uchdi, uning o‘ziga xos bu qilig‘i janublikning eng iltifotli tabassumi bilan teng edi.

– Bugun siz xuddi tunov kuni epchilligi uchun maqtaganingiz kitob noshirining siniganini eshitganingizdagi kabi xafasiz. Chuv tushirdi-a o‘sha sizni!

– Meni-ya? – ajablandi u.

– Esingizdami, u siz bilan xuddi ota-boladek bitim tuzishga erishgan edi, qarzini to‘lay olmasligi vajidan shartga binoan butun veksellari sizning nomingizga xatlab bergan edi, keyin ishlari yurushib ketgach, sizdan shu shartnomaga ko‘ra qarzni kamaytirishni talab qilgan edi.

– Ha, ayyor edi, – deb tasdiqladi chol. – Biroq men uni keyin yana tumshug‘idan ilintirdim.

– Balki haqingizni undirish uchun biron-ta vekselni topshirish vaqti bo‘lgandir! Bugun oyning o‘ttizinchi kuni shekilli.

Men u bilan birinchi marta pul haqida gaplashdim. U yalt etib menga qaradi, qoshini qandaydir masxaraomuz uchirdi, keyin no‘noq sozandaning qo‘lidagi nay ovozidek ingichka, chiyildoq ohangda dedi:

– Men ko‘nglimni xushlayapman.

– Siz ham ko‘nglingizni xushlab turasizmi?

– Nima, sizningcha, faqat she‘rlarini bostiradigan shoirmi? – deb so‘radi u kiftini uchirib, ko‘zlarini nafratomuz suzgan.

«She'riyat? Shunday kallada-ya?» – hayron bo'ldim, zero o'shanda uning hayotini sira ham bilmas edim.

– Kimning hayoti menikidan go'zalroq? – dedi u ko'zlari chaqnab. – Siz yoshsiz, tomirlaringizda qon ko'piradi, shuning uchun kallangizda havoyi fikrlar charx uradi, siz kaminda yonayotgan o'tinga qarab, olovda ayolning chehrasini ko'rasiz, men esam ko'mirni. Siz hamma narsaga ishonasiz, men bo'lsam hech narsaga ishonmayman. Nima ham derdim, xom xayollaringizni ehtiyot qiling, qo'lingizdan kelsa. Men hozir inson hayotining intihosini ta'riflab beraman. Siz xoh daydi sayyoh bo'ling, xoh uyda ko'milib o'tiradigan, issiq o'rniniz-u rafiqangizdan hech qachon ajralmaydigan odam bo'ling, baribir shunday yoshga yetasizki, butun hayotingiz o'rgangan muhitda yashash odatiga aylanadi. Ana shunda baxt turmushga nisbatan o'z layoqatingizni sinashdan iborat bo'lib qoladi. Mana shu ikki qoidadan boshqa hammasi – bo'lmag'ur narsa. Men nuqtayi nazarimni vaziyatga qarab o'zgartirishimga, ularni geografik kengliklarga moslashtirishimga to'g'ri kelgan. Yevropada hammani qoyil qoldiradigan narsa Osiyoda qoralanadi. Parijda illat sanaluvchi narsa Azov orollarining naryog'ida zarurat deb tan olinadi. Ha, yer yuzida puxta narsa yo'q, faqat shartlilik bor, har bir iqlimda ular har xil. Kimda-kim chor-nochor zamonasozlik qilgan bo'lsa, unga sizning har qanday odob-axloq qonun-qoidalariz va ishonch-e'tiqodingiz uch pul. Biz-

ga tabiatning o'zi ato etgan yakka-yu yagona hissiyot – o'z-o'zini himoya qilish tuyg'usigina hamisha barqaror! Yevropaning madaniy davlatlarida bu tuyg'u shaxsiy manfaatdorlik deb ataladi. Mening yoshimga yetsangiz, dunyoda baxt-saodatdan ham ishonchli, ketidan quvsa arziydigan faqat bir narsa borligini bilasiz. Bu... oltin. Insonning barcha kuchi oltinda mujassamlashgan. Men sayohat qilib yurganimda butun yer yuzida tekisliklar va tog'lar borligini ko'rdim. Tekisliklar me'daga uradi, tog'lar charchatadi: xullas, qayerda yashasang ham buning ahamiyati yo'q. Xulq-atvor xususiga kelsak, odam hamma yerda bir xil: hamma yerda kambag'allar bilan boylar it-mushuk. Shunday bo'lishi tabiiy. Demak, seni ezishlariga yo'l qo'ymay, o'zing boshqalarni ezganing tuzuk. Hamma yoqda bilagida kuchi borlar mehnat qiladi, nimjonlar qiynaladi. Rohat-farog'at ham hamma yerda bir xil, hamma yerda ular bir xil tinkani quritadi: barcha rohat-farog'atni faqat birgina ermak – shuhratparastlik yengadi. Shuhratparastlik! Bu narsa bizning qonimizda bor. Xo'sh, shuhratparastlikni nima qondirishi mumkin? Oltin! Hadsiz-hisobsiz oltin. Hoy-havaslarimizni qondirish uchun vaqt, moddiy imkoniyatlar yoki shart-sharoit kerak. Nimayam derdik! Hamma narsa oltinda kurtak holatda. Turmushda u hamma narsani beradi.

Faqat aqlsizlar-u kasal odamlargina surunkasiga kechqurunlarni baxtini sinab bir necha tiyin yutish ilinjida qarta ustida behuda o'tkazishi mumkin. Yolg'iz ahmoqlargina falonchi

xonim divanda bir o'zi yotarmikin yoki bita-yarimta bilan ko'nglini xushlarmikan, bu xonimda o'zi nima ko'piykin, qonmi, limfami, ehtirosmi yoki saxovatmi, deb kurakda turmaydigan gaplarga vaqtini sarflashi mumkin. Faqat nodonlargina oqibati nima bilan tugashini hech qachon bilib bo'lmaydigan voqealarni boshqarish maqsadida siyosiy qarashlarni o'rnatish bilan shug'ullanib, yaqin odamimga foyda keltiryapman, deb xayol qilishi mumkin. Yolg'iz ovsarlargina aktyorlar haqida valdiraydi va ularning askiyalarini takrorlaydi, har kuni sayr-u tomoshalarda qafasdagi hayvonlardek girdikapalak bo'ladi, rost, ozodlikda maydon katta, boshqalarning ko'zini o'ynatish uchun bashang kiyinadi, nom chiqarish uchun ziyofatlar beradi. Nasldor otlari yoki yangi chiqqan kolyaskasi bilan maqtanadi. Vaholanki, uni qo'shnisidan naq uch kun oldin sotib olishga musharraf bo'lgan. Mana sizga parijliklarinigizning mukammal hayoti, bular bir necha jumlagaga jo bo'ladi, to'g'rimi? Biroq odamlar ko'tarila olmaydigan yuksaklikdan ularning turmushiga razm soling. Baxt nimada? Bu yo hayotimizni yemiradigan kuchli hayajon yoxud hayotni baayni yaxshi sozlangan ingliz mexanizmiga aylantiruvchi bir maromdagi mashg'ulotdir. Bu baxtdan faqat, ta'bir joiz bo'lsa, «olijjanoblarcha» havasmandlik, tabiat sirlarini o'rganishga urinish va uning ko'rinishlarini kashf etishda ma'lum natijalarga erishishgina yuqori turaadi. Ikki og'iz qilib aytganda, mana sizga san'at va fan, ehtiros va xotirjamlik. To'g'rimi? Xulla-

si kalom, sizning hozirgi jamiyatingizda manfaatlar to'qnashuvida o'tdek yongan insoniy ehtiroslar ko'z oldimdan o'taveradi, men ularni ko'rikdan o'tkazaman, o'zim esa tinch-xotirjam yashayveraman. Sizning ilmga havasmandligingiz o'rniga men (bu o'z yo'lida shunday yakkama-yakka olishuvki, unda albatta odam mag'lub bo'ladi) insoniyatni harakatga keltiruvchi barcha asoslarni anglab yetishni afzal bilaman. Xullas, men jonimni koyitmay dunyoga hukmronlik qilaman, dunyo esa menga zarracha bo'lsin hukmini o'tkazolmaydi.

– Mana, quloq soling, – dedi u biroz sukut saqlab turgach, – men sizga bugun ertalab ko'z oldimda sodir bo'lgan ikkita voqeani so'zlab beraman, shunda siz mening ermagim nima ekanligini tushunasiz.

Gobsek o'rnidan turib eshikning ilgagini soldi, deraza oldiga borib, eski gilam darpardani surdi, shunda uning halqalari metall tayoqda surilib g'ichirlab ketdi, keyin qaytib kelib yana kursiga o'tirdi.

– Bugun ertalab, – dedi u, – qarzdorlardan ikkitasining vekseliga pul undirmoqchi edim, qolganlarini men kecha o'z hisobim bo'yicha ishga tushirib yuborgan edim. Harna-da! Axir men hisobda to'lanadigan puldan qarzni undirish uchun ketadigan xarajatga va hech qachon yollamasam hamki qirq su¹dan izvoshchiga ajrataman. Axir qandaydir olti frank foyda deb butun Parijni lo'killab aylanib chiqishim kulgili emasmi? O'zi xon, o'zi bek, bor-yo'g'i yetti frank

¹ Su – fransuz tangasi.

soliq to'laydigan mendek odam-a! Ming frankli birinchi vekselni mendan xushsurat va olifta bir yigit o'z hisobiga oldi. Uning ustida yalt-yalt jiletka, qo'lida lornet, ixtiyorida tyulbyuri¹, ingliz tulpori va shu kabilar. Vekselni xotin kishi, eng latofatli parijlik ayol, qandaydir mulkdor, boz ustiga grafning rafiqasi bergan edi. Nima uchun muhtarama grafinya yuridik jihatdan qalbaki, biroq amalda tamomila ishonchli vekselga imzo chekdi ekan? Axir bu tantiq oyimchalar oilaviy mojarolardan shunday qo'rqi-shadiki, veksel sudga oshirilgan taqdirda ular pulni to'lashga qodir bo'lmasalar, o'zlarini bag'ishlab bo'lsa-da, bu ishni yopib ketishga harakat qiladilar. Men bu vekselning sirini bilishga jazm qildim. Nima yashiringan bunda: laqmalikmi, shoshqaloqlikmi, sevgimi yoki rahmdillikmi? Qandaydir Fanni Malvo degan ayol imzo chekkan xuddi shuncha miqdordagi pulli ikkinchi vekselni chitfurush, sinishi aniq savdogar o'z hisobiga olgan edi. Axir bankda ozgina puli bor bironta odam menikiga kelmaydi: u ostona hatlab xonamga kirganidan yozuv stolim yoniga kelguncha najotsizligini, barcha bankirlardan pul so'rab bekorga ovora bo'lganini, boshiga og'ir kulfat tushganini oshkor etadi. Men uyimda faqat ta'qibga uchragan kiyiklarni ko'raman, ularning ketidan bir to'da qarz beruvchilar quvadi. Grafinya Galderskaya ko'chasida, Fanni Malvo esa Monmartr ko'chasida turadi. Bugun uydan chiqqanimda

¹ Tyulbyuri – bitta ot qo'shiladigan ikki g'ildirakli usti ochiq yengil arava. (*Tarj.*)

ne-ne xayollarga bormadim! Bordi-yu, bu ikki ayolning to'lashga hech vaqosi bo'lmasa, meni o'z otasidan ko'proq izzat-hurmat bilan qarshi oladi. Grafinya xo'p nayrangbozlik qiladi, ming frank uchun o'zini ming maqomga soladi! Ochiq chiroy bilan jilmayadi, tilyog'lamalik bilan mayin gapiradi. Nomiga veksel berilgan anavi navqiron yigitga shirin gapirgani kabi og'zidan bol tomadi. Hatto menga iltijo qilsa ham ajab emas! Men bo'lsam... – chol menga sovuq nazar tashladi. – Men pinagimniyam buzmayman dedi u. – Xuddi jazo yanglig', vijdon azobidek paydo bo'laman... Xo'p mayli, gumonlarimni qo'ya turamiz. Xullas, uyiga bordim.

«Grafinya hali o'rinlaridan turganlari yo'q», dedi oqsoch.

«Ularni qachon ko'rsa bo'ladi?»

«O'n ikkidan keyin».

«Nima, grafinyaning tobi yo'qmi?»

«Yo'q, sudar, ular baldan ertalab soat uchda keldilar».

«Mening familiyam Gobsek. Gobsek keldi, deb xabar qiling. Men peshinda yana kelaman».

Shundan keyin marmar pillapoyalarga to'shalgan gilamni loy oyog'im bilan iflos qilib pastga tushdim. Men loy boshmog'im bilan boylarning gilamlarini iflos qilishni yaxshi ko'raman. Buni anchayin manmanlik uchun emas, muqarrarlikning changalli panjasini sezib qo'yishlari uchun qilaman. Monmartr ko'chasidagi ko'rim-sizgina uyga kelib, darvozaning ko'hna eshigini ochdim, hovlisi bamisoli hech qachon quyosh nuri tushmaydigan o'ra. Darbon xotinning huj-

rasi qorong'i, derazasining oynasi choponning iflos, yag'iri chiqqan yengiga o'xshaydi, tag'in deng hamma yog'i darz ketgan.

«Mademuazel Fanni Malvo shu yerda turadimi?»

«Ha, lekin hozir yo'q uyda. Agar siz veksel xususida kelgan bo'lsangiz, sizga u pul tashlab ketgan».

«Men kechroq kelaman».

Pulni darbon xotinga tashlab ketgani nur ustiga a'lo nur, biroq men qarzdor ayolni ko'rishga ishtiyoqmand edim. Menga negadir u serishva yengiltak bo'lib ko'rindi. Xullas, tongni do'konlarning derazalaridagi gravyuralarni tomosha qilib o'tkazdim. Ammo qoq peshinda grafinyaning yotoqxonasi yonidagi mehmonxonada hozir bo'ldim.

«Begoyim hozirgina qo'ng'iroq qildilar, – dedi menga oqsoch. – Menimcha, hozir sizni qabul qilolmasalar kerak».

«Men kutib turaman», dedim va kursiga o'tirdim.

Darparda ochildi-yu, oqsoch yugurgilab keldi.

«Marhamat, kiring, sudar».

Oqsochning shirinso'zligidan bekaning qarzini to'lashga puli yo'qligini fahmladim. Lekin men shunday bir sohibjamolni ko'rdimki, ta'rifiga so'z yo'q! Shoshganidan u yalang'och yelkasiga kashmiri sholro'mol tashlagan va unga shunday ustalik bilan o'ralgan ediki, uning ostida zebo qomati yaqqol ko'zga tashlanardi. Uning ustida faqat qordek oq ryush bilan burma qilingan pen'yuar bor edi. Demak, nafis ko'ylakni yuvuvchi qo'li gul kirchi ayolga yilida ikki ming frankdan kam pul ketmaydi. Boshini

kreolka¹ kabi pocha-pocha gulli ro‘molcha bilan pala-partish bog‘lagan, ro‘molcha tagidan qora gajaklari chiqib turardi. Ko‘rinib turgan o‘rni g‘ijim, uning betartibliği grafinyaning uyqisi behalovat bo‘lganidan darak berardi. Shu kuni ertalab qarzdorimning yotoqxonasida loaqal bir daqiqa bo‘lish uchun rassom xonumonini ayamasdi. Karavot yoniga tushib turgan parda burmalari go‘yo huzur-halovat va‘da qilalar, havorang shoyi parto‘shakda bir chetga surilgan choyshab-u, lojuvard oshyonda qordek oqarib yaqqol ko‘zga tashlanayotgan jimjimador yostiq go‘yo guldek qomatning suratini pinhon tutayotgandek tuyular, ko‘ngilga g‘ulg‘ula solar edi. Qizil daraxtdan qilingan karavotni ko‘tarib turgan mis arslonlar yoniga to‘shalgan ayiq terisida baldan horib-tolib qaytgan ayolning beparvo tashlagan atlas tuffichalari yiltirab yotardi. Stul suyanchig‘idan g‘ijim ko‘ylakning yenglari osilib tushgan, gilamga tegib turar edi. Kursi oyoqlari atrofida harir paypoqlar yotar, qilt etgan shabada essa ularni uchirib ketgudek edi. Divanchada oq shoyi paypoq bog‘ichlari cho‘zilib yotardi. Kamin ustida yarim ochiq qimmatbaho yelpig‘ich rango-rang tovlanardi. Kiyim-kechak javonining tortmalari ochiqligicha qolgan edi. Butun xonada gullar, brilliantlar, qo‘lqoplar, guldastalar, belbog‘lar va balda kiyiladigan liboslarning zarur buyumlari sochilib yotgan edi. Qandaydir nafis atirlarning bo‘yi taralardi. Hamma yoqda besaranjom go‘zallik,

¹ Kreolka, kreollar – Lotin Amerikasida tug‘ilgan yevropaliklar.

hasham va betartiblik ko'zga tashlanardi. Xullas, bu ayolga yoki mahbubiga balo-qazodek ko'z tikkan, ana shu hasham ortida pusib turgan qashshoqlik bosh ko'tarib, o'tkir tishlarini irjaytirgan edi. Grafinyaning horg'in chehrasi yotoqxonasiga o'xshar, unda tungi shod-xurramlikning nishonlari saqlanib qolgan edi.

Hamma yoqda sochilib yotgan zeb-ziynatlarini ko'rib yuragim tuzdek achishdi. Kuni kechagina bular uning bir chiroyiga ming chiroy qo'shib, kimlarningdir ko'zini o'ynatgan edi. Bularning hammasi vijdon azobi bilan og'ulangan sevgi-yu o'yin-kulgi, hasham, shodiyonalar aks etgan taralabedod hayotni mujassamlantirgan ediki, ayol endi zo'r berib qo'ldan ketayotgan o'sha huzur-halovat va rohat-farog'atni boy bermaslikka tirishayotganini ochiq-oydin ko'rsatardi. Bu yosh juvonning yuzlarida namoyon bo'lgan qizil dog'lar uning terisi nozik bo'lganidan dalolat berar, biroq yuzi go'yo ko'pchigandek ko'rinar, ko'zlari tagidagi soyalar yanada aniq-tiniq ko'rinayotgandek tuyular edi. Lekin baribir uning tabiat ato qilgan g'ayrat-shijoati barq urar, bema'no o'tgan hayoti uning chiroyiga putur yetkazolmagan edi. Ko'zlari chaq nab turar, husn-latofatda benazir edi: u Leonardo da Vinchi chizgan go'zal Irodiadalarining birini eslatar (men axir qadimgi rassomlarning suratlarini olib sotganman-da) edi. Undan zavq-shavq, kuch-quvvat yog'ildi. Uning qaddi-bastida so'lg'inlik, ma'yuslikdan asar ham yo'q edi, u muqarrar sevgiga ixlos uyg'otar, ammo uning o'zi sevgidan kuchli

ko'rinardi. Xullas, bu juvon menga yoqib qoldi. Yuragim ko'pdan beri bunaqa tepmagan edi. Demak, men haqimni oldim. Yoshlik chog'larimdagi tuyg'uni yana qayta boshimdan kechirishim uchun men o'zim ming frank berishga tayyor edim.

«Janob, – dedi u meni o'tirishga taklif qilib. – Marhamatingizni darig' tutmay, qarz muddatini biroz orqaga surolmaysizmi?»

«Ertaga peshingacha mayli, grafinya, – dedim unga ko'rsatgan vekselni buklay turib. – Shu muhlatgacha vekselingizni sudga oshirmayman».

Xayolan men unga bunday dedim: «Bu hasham, unvoning, baxting, foydalanayotgan barcha imtiyozlaring uchun haq to'la. Boylar o'z mol-dunyolarini saqlash uchun tribunalarini, sudyalarni, gilotinani o'ylab chiqaradilar-u parvona o'zini chiroqqa urgandek bularga o'zlarini uradilar, landovurlar. Biroq sizlar uchun, atlasda yotib, atlas yopinadigan odamlar uchun boshqa narsa: vijdon azobi, kulgi ostiga yashirilgan tish g'ijirlatish, qalbingizga tishlarini sanchuvchi arslon og'izli ximeralar¹ mavjud.

«Vekselni sudga oshirasizmi? Nahotki siz shunchalikka borsangiz? – deb xitob qildi u menga tikilib. – Nahotki meni shunchalik oz hurmat qilasiz?»

«Bordi-yu, mendan qirol qarz bo'lganda, grafinya va qarzini muddatida to'lamaganda, men uni boshqa qarzdorlardan oldinroq sudga berardim».

Shu asnoda allakim eshikni asta qoqdi.

¹ Ximera – qadimgi grek mifologiyasida bahaybat hayvon.

«Men uyda yo‘qman!» – deb qichqirdi grafinya achchiqlanib.

«Anastazi, bu men. Sizda ikki og‘iz gapim bor edi».

«Keyinroq, azizim», – dedi grafinya jahldan biroz tushib, baribir bu so‘zni u muloyim qilib aytmadi.

«Bu qanaqasi! Axir siz kim bilandir gaplash-yapsiz-ku», dedi tashqaridagi odam, so‘ng eshik ochildi-yu, xonaga bir erkak kirdi, – turgan gapki, grafning o‘zi edi u.

Grafinya menga yalt etib qaradi, men uning ahvolini tushundim, u mening qulim bo‘lib qolgan edi. Eh, yigit, veksellarni sudga oshirmay ahmoqlik qilgan vaqtlarim ham bo‘lgan, 1763-yili Pondisherida men bir ayolga shafqat qilganman. Oxiri nima bo‘ldi, deng! Rosa chuv tushirib ketdi meni! Ayb o‘zimda, nega endi unga ishondim?!

«Xo‘sh, sizga nima kerak, janob?» – deb so‘radi graf mendan.

Shu choq men to‘satdan uning xotini dir-dir titrayotganini, oppoq, silliq bo‘yni g‘udda-g‘udda g‘oz terisiga aylanganini payqadim. Men ichimda kulardim, biroq yuzimdagi bironta mushak qilt etmasdi.

«Bu kishi mening ta‘minotchilarimdan biri», dedi grafinya.

Graf menga orqasini o‘girdi, men esa cho‘n-tagimdan buklog‘liq vekselnings bir uchini chiqazdim. Juvon bu beshafqat ishorani ko‘rib yonimga keldi va menga brilliant berdi.

«Oling, – dedi u. – Tezroq yo‘qoling».

Men brilliant evaziga vekselni berdim va ta‘zim qilib chiqib ketdim. Menimcha, brilliant

naqd bir ming ikki yuz frank turardi. Grafning qo'rg'onida turli-tuman xizmatkorlarni ko'rdim, lakeylar cho'tkalar bilan yoqali kamzullarini tozalashar, etiklarini yarqiratishar, otboqarlar hashamatli faytonlarni yuvishar edi. Mening huzurimga mashhur janoblarni ana shu narsalar yugurtirardi. Nazokat bilan millionlarni o'g'irlashga, vatanfurushlik qilishga ularni shular majbur qiladi! Yayov yurib loklangan etiklarini iflos qilmaslik uchun bu kalondimog' janoblar-u ularga taqlid qiladigan har bir kishi quloqlarigacha razolatga botishga rozi. Xuddi shu asnoda darvoza ochildi-yu, mendan grafniyaning vekselini o'z hisobiga olgan o'sha navqiron olifta kabrioletda hovliga kirdi.

«Janob, – dedim unga kabrioletdan sakrab tushgach, – mana ikki yuz frank, malol kelmasa, grafniyaga aytsangiz, u menga bergan omonatni picha tutib turaman, bir hafta ichida qaytarib olishi mumkin».

Olifta ikki yuz frankni oldi, lablarida istehzoli tabassum bir zum jilva qildi. Bu bilan u: «A-ha, to'labdi-da! Nima ham derdik, juda soz!» – degandek bo'ldi.

Shunda men uning yuzida grafniyaning butun kelajagini ko'rgandek bo'ldim. Bu oq-sariqdan kelgan turqi sovuq olifta, toshbag'ir qimorboz o'ziyam xonavayron bo'ladi, grafniyani ham, uning erini ham, bola-chaqalarini ham xonavayron qiladi. Ularning meroslarini yelga sovuradi, boshqa salonlarda¹ ham dushman qo'shinlarining to'plaridan battarroq xonavayron qiladi hammani.

¹ Salon – burjua dvoryanlar uyidagi mehmonxona.

Keyin men Monmartr ko'chasiga, mademuazel Fanninikiga ketdim. Tor, tikka zinadan oltinchi qavatga chiqdim. Meni ikki xonali uyga kiritishdi, hammayoq chinnidek toza, oltin tangadek yarqirardi, birinchi xonadagi jihozlarda gard ko'rinmasdi, beka – yoshgina qiz, mademuazel Fanni meni shu yerda qabul qildi. U pariqlik ayollarga xos ko'rkam, lekin oddiy kiyingan edi: uning boshi bejirim, yuzi atirguldek tarovatli, chehrasi ochiq edi; chiroyli taralgan qo'ng'ir sochlari ikki tutam osilib tushib chakkalarini yashirib turar, bu billurdek tiniq, moviy ko'zlariga nafis ifoda bag'ishlardi. Derazalardagi pardalar orasidan sizib o'tayotgan quyosh nuri uning xokisor siymosini mayin yog'du bilan yoritardi. Uning atrofiga bichilgan bo'lak-bo'lak matolar taxlab qo'yilgan edi, shunda men u tirikchiligini qay yo'l bilan o'tkazishini fahmladim; turgan gapki, u tikuvchi edi. Bu qiz tanholikdagi pariga o'xshardi.

Men unga vekselni uzatib, «ertalab kelgan edim, sizni uchratolmadim», dedim.

«Pul darbon xotinda edi-ku», – dedi u.

Men o'zimni uning gapini eshitmaganga soldim.

«Siz, chamasi, uydan barvaqt chiqib ketar ekansiz!»

«Umuman, uydan kam chiqaman, bilasizmi, tuni bo'yi ish ustida qadalib o'tirgandan keyin cho'milgisi keladi odamning».

Men unga sinchiklab qaradim-u darrov uning ahvolini fahmladim. Qarshimda, turgan gapki, muhtojlik og'ir mehnat qilishga majbur qilgan qiz turardi. Ehtimol, biror fermerning qizi bo'lsa kerak, yuzida hamon dehqonlarning qizlarida bo'ladigan sepkil ko'zga tashlanardi. Undan nimadir yaxshilik, chinakamiga saxovat

nafasi ufurardi. Men samimiyat va ruhiy poklik qasriga qadam qo'ygandek bo'ldim, nafas olishim ham yengillashdi. Sho'rlik sodda qiz! U allanarsaga umid bog'lardi: jo'ngina yog'och karavotning bosh tomonida butga mixlangan Isoning surati osilgan, u shamshod daraxtning ikki novdasi bilan bezatilgan edi. Men qariyb iyib ketdim. Atigi o'n ikki foiz foyda evaziga unga qarz berib, uning biror daromadli do'kon sotib olishiga yordamlashishga tayyor edim. E, yo'q, – deb o'zimga o'zim nasihat qildim. – Uning, har qalay, bironta yosh amakivachchasi bordir, veksel yozdirib, bu boyaqishni kafangado qiladi». Shu taxlit men, yo'q, tantilikka balo bormi, deb o'zimga o'zim dashnom berib chiqib ketdim: axir men oliyhimmat odamga tantilik zarar-zahmat yetkazmasligini, aksincha, iltifotga sazovor bo'lgan odam pand yeganini juda ko'p ko'rganman-da. Unday muruvvat falokat keltiradi. Siz bugun xonamga kirganingizda men xuddi shu Fanni Malvo haqida o'ylab o'tirgan edim. Mana undan vafodor xotin va mehribon ona chiqadi. Bokira, yolg'iz qizning hayoti bilan vekselga imzo cheka boshlagan va hade may har xil illatlarning botqog'iga botadigan boy grafnyaning hayotini solishtirib ko'rilsa, ular orasida osmon bilan yercha farq bor!

Chol o'yg'a tolib bir daqiqa jim qoldi, bu payt men unga razm solib turdim.

– Qani, ayting-chi, – dedi u dabdurustdan.
– Mening ko'ngil ochishlarim nahotki yomon bo'lsa! Nahotki inson qalbining eng nozik joyiga qo'l solish qiziq bo'lmasa? Begona odamning hayoti ichiga kirib, uni bezaksiz, ro'y-rost

ko'rish nahot diqqatga sazovor emas? Qanday manzarani ko'rmaysiz siz u yerda?! Bitmas yara, tasallisiz g'am-anduh, yana deng ishqiy ehtiroslar, o'zini Sena suviga otib bu dunyodan ko'z yumishga majbur etuvchi qashshoqlik, huzur-halovat yo'lida egri qadam bosib, jallod kundasiga bosh qo'yadiganlar najotsizlik qah-qahasi va dabdabali ziyofatlar ko'zga chalinadi. Bugun fojia ko'rasan: biron bir halol mehnatkash oila boshlig'i bola-chaqasini boqolmay joniga qasd qiladi. Ertaga komediya tomosha qilasan: yosh tanbal yigit ko'z oldingda Dimanshni laqillatgan qarzdor¹ tasvirlangan klassik sahnaning yangi ko'rinishini o'ynamoqchi bo'ladi. Siz, albatta, o'tgan asrda nomi chiqqan rahmdil chillaki din peshvolarining suxanvarligi haqida o'qigansiz. Men ba'zan vaqtimni aya-may, ularning va'zlarini eshitgani borardim. Ular ba'zi narsalarda e'tiqodimga ta'sir etishga muvaffaq bo'ldilar, lekin mening xulq-atvorimga zarracha bo'lsin ta'sir etolmadilar. Mutlaqo, degan edi kimdir. Xullas, bilib qo'ying, sizning barcha o'sha ma'lum va mashhur voizlaringiz, har xil anavi Mirabo², Vernyu³ va boshqalar

¹ Molyerning (1622–1673) «Don-Juan» komediyasidan sahna, bunda pyesa qahramoni og'zidan bol tomib o'z kreditori Dimanshni shunday ustalik bilan laqillatadiki, u yigitdan qarzini so'rashga botin olmaydi.

² Mirabo Onore – Gabriyel (1749–1791) XVII asr oxirida fransuz burjua inqilobining arbobi; liberal dvoryanlik va yirik burjuaziya manfaatlarini tarafdori.

³ Vernyu Per – Viktyurnen – (1753–1793) XVII asr oxirida fransuz burjua inqilobining arbobi, jirondist, konvent a'zosi. 1793-yilda qatl etilgan, o'z davrining mashhur notig'i sanalgan.

mening har kungi notiqclarim oldida ip esholmaydilar. Qandaydir oshiq-u beqaror qiz, kafangado bo'lish oldida turgan savdogar chol, o'g'lining aybini yashirishga uringan ona, bir burda nonga zor rassom, shumshuk ko'rinib qolgan, ustiga-ustak, pulsizlik kasriga uzoq yillar davomida qilgan butun toat-ibodati uchun uch pul bo'layozgan mansabdor – hamma-hammasi ba'zan gaplarining kuchi va sehri bilan hang-mang qilib qo'yishardi. Qoyilmaqom aktyorlar! Bu tomoshani yolg'iz men uchun qo'yadilar! Biroq meni aldash hech qachon ularning qo'llaridan kelmaydi. Mening nazarim ham xudoning nazaridek: men ularning dilini ko'rib turaman. Nazarimdan hech narsa pana bo'lolmaydi. Qo'lida bir qop tillasi bor odamdan hech vaqtda biron narsalarni ayaydilar mi! Men inson vijdonini sotib olishga qurbi yetadigan boy odamman, dasti daroz ministrnlarni ularning erkatoylari, idora xodimlaridan tortib, ma'shuqalarigacha ishga solib o'z yo'linga yurgizaman. Hukmfarmolik emasmi bu? Istasam, eng go'zal ayollarni qo'lga kiritaman, noz-karashmalarni sotib olaman. Huzur-halovat emasmi bu? Axir hukmfarmolik va huzur-halovat sizning yangi ijtimoiy tuzumingizning tub mohiyati emasmi? Menga o'xshagan odamlar Parijda o'nta; sizlarning taqdiringizning jilovi bizning qo'limizda, ammo o'zimiz yuvosh, faqir kishi panada qabilida yuramiz. Hayot – pul harakatga keltiradigan mashina emasmi? Yodda tuting, harakat vositasi uning natijalari bilan qo'shilib ketadi: hech mahal ruh bilan shahvoniy his-

siyotni, ruh va materiyani cheklab bo'lmaydi. Hozirgi jamiyatning butun ma'naviy mohiyati oltindir. Men va mening kasbdosh birodarlarim haftaning ma'lum kunlari Yangi ko'prik yonidagi «Femida» kafesida uchrashamiz. U yerda biz suhbat quramiz, moliyaviy sirlarni bir-birimizga oshkor qilamiz. Eng katta boylik ham bizni adashtirmaydi, biz barcha ma'lum va mashhur oilalarning sir-u asrorini bilamiz! Bizda, aytish mumkinki, «qora daftar» bor, bunga biz davlat krediti, banklar va savdo-sotiq haqidagi xabarlarini tirkab qo'yamiz. Biz birjaning pirlari sifatida muqaddas inkvizitsiya tribunali tuzganmiz, badavlat odamlarning ko'rinishdan mayda-chuyda, arzimasi qilmishlarini muhokama qilamiz va har safar haq bo'lib chiqamiz. Birimiz sud hay'atini kuzatadi, boshqasi moliyaviy ishlarini, uchinchisi oliy mansabdorlarini, to'rtinchisi kommersantlarni nazorat qiladi. Mening chekinga boyvachchalar, aktyorlar, rassomlar, oqsuyaklar, qimorbozlar, qo'yingki, Parij jamoatining eng antiqa qismi tushgan. Har biri bizga qo'shnilarining sirini aytib beradi. Pand bergan muhabbat, haqoratlangan izzat-nafs jim turolmaydi, nola qiladi. Nuqsonlar, dunyodan to'yishlar, intiqom politsiyaning beminnat dastyorlaridir. Mening birodarlarim ham o'zim kabi xo'p davr-u davron surishgan, hammasidan to'yishgan, endilikda faqat hukm-farmolik bilan pulni qo'lga kiritish uchun yaxshi ko'rishadi. Mana bu yerda, – dedi u qo'lini yo'yib. – Ship-shiydam, sovuq uyda boshqa yerda qittakkina shamaga tutaqib ketadigan, biron

qochirim uchun dilozorni duelga chaqiradigan tajang oshiq itoatkorlarcha qo'lini ko'ksiga bosib menga iltijo qiladi. Qattiq nafrat yoki qayg'u-alam yoshlarini to'kib menga eng takabbur savdogar yoki eng kekkaygan sohibjamol va eng mag'rur harbiy yalinib-yolvoradi. Bu yerga o'tinch bilan mashhur rassom va kelajakda nomi avlod-dan-avlodga o'tib yuradigan yozuvchi keladi. – Mana bu yerda, – deb ilova qildi u barmog'ini manglayiga bosib, – tarozu bor, unda butun Parijning meros-u g'arazgo'yiligi tortiladi. Xo'sh, endi sizningcha, – dedi u menga xuddi kumushdan quyilgandek rangpar yuzini o'girib, – surligi bilan sizni bot-bot hayratga solgan mana shu sovuq niqob ortiga otashin huzur-halovat yashirilganiga ishonch hosil qildingizmi?

Men butunlay sarosimaga tushib o'z xonamga qaytib keldim. Bu sharti ketib, parti qolgan chol ko'zim oldida yuksalib, hukmronlik va oltin ramzi sifatida afsonaviy kimsadek namoyon bo'ldi. Hayot va odamlar meni vahimaga sola boshladi.

«Nahotki hamma narsa pulga borib taqalsa?» – o'ylardim men.

Esimda, allamahalgacha uxlolmay yotdim. Nuqul ko'z oldimga to'p-to'p oltinlar kelaverdi. Ha, go'zal grafinya ham xayolimni band etdi. Uyat bo'lsa ham e'tirof etay, u mehnat-u xokisorlikka mahkum etilgan sofdil Fanni Malvo siymosini butunlay to'sib qo'ydi. Biroq ertalab orzu-istak tumani tarqalib, es-hushimni yig'ib olganimda ko'z oldimda darhol yoqimtoy qiz siymosi paydo bo'ldi-yu, men faqat Fannini o'ylay boshladim...

– Bir piyola shakarli suvga hushingiz qalay?
– dedi Granle xonim Dervilning gapini bo'lib.

– Bajonidil ichaman, – dedi u.

– Bilasizmi, bu mashmashalarning bizga qanday aloqasi borligiga hech aqlim yetmayapti, – dedi Granle xonim, qo'ng'iroqchani chalib.

– Vo darig'! – deb xitob qildi Dervil o'zi yaxshi ko'rgan iborani ishlatib. – Men hoziroq Kamilaning ko'zidan uyqisini qochiraman, toki u baxti yaqin-yaqingacha Gobsek otaga bog'liq bo'lganini bilib qo'ysin. Lekin chol sakson to'qqizga kirib, yaqinda olamdan o'tdi, hade may janob de Resto had-hisobsiz davlatga ega bo'ladi. Qanday qilib va nima uchun bunday bo'lganini tushuntirishga to'g'ri keladi. Fanni Malvo xususiga kelsak, siz uni yaxshi taniysiz. U mening xotinim.

– Qadrdomim, – deb so'z qistirdi vikontessa de Granle, – siz tabiatan rostgo'y bo'lganingiz vajidan yigirmata guvoh oldida ham bu gapingizdan tonmasangiz kerak.

– Ha, men bu haqda butun dunyoga jar so'lishga tayyorman! – dedi adliyachi.

– Mana shakarli suv, iching, azizim Dervil. Siz hech qachon hech narsa orttirmaysiz, lekin eng baxtli va mumtoz odam bo'lib qolasiz.

– Men jindek g'afatda qoldim, – deb to'satdan luqma tashladi vikontessaning mudrab qolgan ukasi. – Demak, siz Gelder ko'chasida turuvchi qandaydir grafinyanikiga borgansiz. Nima qildingiz u yerda?..

– Gollandiyalik chol bilan suhbatlashganimdan keyin oradan bir necha kun o'tgach, – deb

hikoyasini davom ettirdi Dervil, – men dissertatsiya yoqlab, huquq litsenziati darajasini oldim, soʻngra advokatlar uyushmasiga qabul qilindim. Keksa ziqna Gobsekning menga ishonchi ortib ketdi. U hatto aniq maʼlumotlarni toʻplaganidan keyin hech tap tortmay oʻzini urgan eng xavfli aldam-qaldam ishlarida ham mendan maslahatlar soʻray boshladi. Tan berish kerakki, bunday xatarli ishlarga eng pixini yorgan korchalonlar ham jurʼat etolmasdi. Taajjubki, hech kimning taʼsiriga berilmaydigan bu odam mening maslahatlarimga qandaydir ehtiros bilan quloq osardi. Toʻgʻri, bular hamisha unga qoʻl kelardi. Mana, uch yil adliyachining idorasida ishlab, u yerda katta klerk¹ lavozimiga koʻtarildim va xoʻjayinim oyiga toʻlaydigan yuz ellik frank maoshdan tashqari tekin ovqat hamda uy bergach, de-Gre koʻchasidan koʻchib ketdim.

Qanchalar baxtli kun edi bu hayotimda! Men kekxa sudxoʻrning oldiga xayrlashgani kelganimda u menga bir ogʻiz ham doʻstona soʻz aytmadi, zarracha achinmadi. Kelib tur ham demadi, faqat oʻzining ajoyib, hayratomuz nigohini tashladiki, bundan bu odam avliyo, deb oʻylash mumkin edi. Biroq oradan bir hafta oʻtgach cholning oʻzi meni yoʻqlab keldi, u qandaydir yer-joyni musodara qilish toʻgʻrisida bir chalkash ishni keltirdi. Shu-shu xuddi pulini toʻlab qoʻygandek mening maslahatlarimdan bemalol foydalana boshladi. 1818–1819-yili qishda ishratparast va isrofgar xoʻjayinim qiynalib qoldi-yu, idorani sotishga majbur boʻldi. Garchi u vaqtlar

¹ Notariuslar yoki advokatlar idorasida ishlovchi xizmatchi.

adliyachilik patentini olish hozirgi vaqtdagidek juda qimmat bo'lmasa-da, o'z idorasiga u oz emas, bir yuz ellik ming frank so'radi. Bordi-yu, bironta serg'ayrat, ishning ko'zini biladigan uddaburo adliyachiga bu idorani sotib olishiga shuncha pulni ishonishsa, u durustgina yashashi, foiz to'lashi va o'n yil ichida qarzidan uzilishi mumkin edi. Lekin menda sariq chaqa ham yo'q edi, zero otam viloyatda mayda burjua edi. Men oilamizda yettinchi farzand edim, dunyoda kapitalistlar orasida Gobsekdan boshqa bironta tanishim yo'q edi... Lekin, bilasizmi, shuhratparastlik orzu-istaklari va qandaydir umid uchquni unga murojaat qilishdek dadil bir fikrni ko'nglimga soldi. Mana, kunlardan bir kun kechqurun imillab de-Gre ko'chasiga yo'l oldim. O'zimga yaxshi tanish badqovoq uyning eshigini taqillatganimda yuragim gursillab urib ketdi. Keksa qarimsoqdan eshitgan barcha gaplarim esimga tushdi. O'shanda bu uyga qadam qo'ygan odamlarni hadik-xavotir qiynoqqa solganiga aslo shubha qilmagandim. Mana endilikda ular bosib o'tgan yo'ldan o'tmoqdaman, xuddi ular kabi yalinib-yolboraman. «E, yo'q, – deb qat'iy qarorga keldim. – Halol odam hamisha hamma yerda o'z obro'sini saqlashi kerak. Pul deb xokituproq bo'lish yaramaydi. O'zimni u kabi omilkor qilib ko'rsataman».

Men uydan ko'chib ketganimdan keyin qo'shnilardan qutulish uchun Gobsek mening uyimni ijaraga olgan edi. So'ng u eshikdan panjarali darcha ochishni buyurgan. Shu darchadan afimni ko'rgachgina meni uyiga kiritgan edi.

– Qarang-a, – dedi u chiyillab. – Xo‘jayiningiz idorani sotmoqchi bo‘libdi-da!

– Qayerdan bilasiz buni? Bu haqda u mendan boshqa hech kimga gapirmagan edi-ku.

Cholning lablari yoyildi-yu, og‘zining burchaklarida derazalarning pardalaridagidek buri-shiq paydo bo‘ldi, ammo unsiz jilmaysa-da, nigohi sovuq boqardi.

– Faqat shu boisdan sizni bu yerda ko‘rib turibman, – dedi u quruqqina va jimib qoldi.

Men sarosimaga tushib o‘tirardim.

– Gapimga quloq bering, Gobsek ota, – dedim men nihoyat iloji boricha xotirjam gapirishga tirishib, lekin bu cholning menga tikandek qadalgan tiniq, yaltiroq, hissiz nigohi ancha dovdiratib qo‘ygan edi.

U: «Gapiring!» – degandek ishora qildi.

– Rahmingizni keltirish qiyinligini bilaman. Shu bois suxanvarlik qilib klerkning ahvoli tang ekanligini, butun umidi sizdanligini, illo, yorug‘ jahonda uning kelajagini o‘ylaydigan bironta yaqin kishisi yo‘qligini gapirib o‘tirmayman. Biroq yaqin kishilarni bezovta qilmay, ko‘ngilni buzadigan gap-so‘z va nazokat-u tavozelarni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib, ishni puxta hal qilaylik. Gap bunday. Xo‘jayininga idora yiliga yigirma ming daromad keltirardi; biroq men o‘ylaymanki, idora qo‘limga o‘tsa, qirq ming daromad keltiradi. Aqlim yetadi: mana bu yerda, – dedim peshanamga barmog‘im bilan urib, – ba‘zi narsalar bor, bordi-yu, siz shu idorani sotib olishimga zarur yuz ellik ming frank qarz berishga rozi bo‘lsangiz, men o‘n yilda qarzimni uzardim.

– Aqlli gap! – dedi Gobsek va qo‘limni qisdi. – Men ish boshlagan paytimdan beri bironta odam kelishdan maqsadi nimaligini bunchalik ochiq-oydin bayon etmagan. Garovga qo‘yadigan nimangiz bor? – deb so‘radi u menga razm solib, so‘ng shu zahoti o‘z savoliga o‘zi javob berdi. – Hech narsa. Yoshingiz nechada?

– O‘n kundan keyin yigirma beshga kiraman. Yo‘qsa, shartnoma tuzolmagan bo‘lardim.

– To‘g‘ri.

– Xo‘sh, nima deysiz?

– Mayli!

– Rostdanmi? Unda hammasini tezroq bir yoqlik qilish kerak, bo‘lmasa, boshqalar qimmatroq to‘lab ilib ketadi.

– Ertaga ertalab shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat nusxasini olib keling, keyin ishingiz xususida gaplashamiz. Men o‘ylab ko‘raman.

Ertalab soat sakkizda men cholnikiga yetib keldim. U qo‘limdan hujjatlarni oldi, ko‘zoynagini taqdi, yo‘talib tufladi, qanotsimon yoqali qora plashiga mahkamroq o‘raldi, hujjatni boshdan-oyoq diqqat bilan o‘qib chiqdi, uni qo‘lida aylantirib, yalt etib menga qaradi, yana yo‘taldi, kursida tipirchilab shunday dedi:

– Nachora, keling, savdolashamiz.

Men titrab ketdim.

– Men qarz uchun har xil haq olaman, – dedi u, – eng kami – ellik, yuz, ikki yuz, goho besh yuz foiz.

Rangim o‘chib ketdi.

– Xo‘sh, sizdan tanishligimiz uchun atigi o‘n ikki yarim foiz olaman... – u chaynaldi. – Yo‘q, bunday emas, sizdan yiliga o‘n uch foiz olaman. Ma‘qulmi sizga?

– Ma’qul, – dedim men.

– O’ylab ko’ring, ko’p bo’lsa, talashing, Grot-siy¹ (chol ba’zan hazillashib meni Grotsiy deb atardi). Men sizdan o’n uch foiz so’rayman, kasbim o’zi shunaqa. Chamalab ko’ring: shuncha foiz to’lashga qurbingiz yetadimi? Darrov rozi bo’ladigan odamni yoqtirmayman. Yana bir marta so’rayman: ko’plik qilmaydimi?

– Yo’q, – deb javob berdim men. – To’layman, faqat qattiq berilib ishlashga to’g’ri keladi.

– Ana xolos! – deb luqma tashladi Gobsek menga ayyorona ko’z qirini tashlab. – Bundan chiqdi, mijozlar to’lasharkan-da?

– E, yo’q, jin ursin! – deb xitob qildim men, – o’zim to’layman. Men odamlarni talagandan ko’ra, qo’limni shartta bolta bilan chopib tashlashlariga rozi bo’laman.

– Xayr, – dedi Gobsek.

– Gonorarni men taksa bo’yicha olaman.

– Ba’zi hollarda taksa ish bermaydi, masalan, qarzni to’lash uchun muhlat olishda, do’stona kelishuvda. Bunday holda ikki, uch ming, hatto ishning muhimligi, muzokaralar, safarlar, dalolatnomalar, har xil ko’chirmalar va sudda gap sotish uchun olti ming frank olish mumkin. Faqat shunday ishlarni topa bilish kerak. Men sizni odamlarga bilag’on va uddaburo advokat deb tavsiya qilaman, huzuringizga mijozlarni yuboraman, ular sizga shunchalik ko’p da’voyi dostonlarni olib kelishadiki, sizning advokat ka-

¹ Grotsiy Gugo (1583–1645) – gollandiyalik huquqshunos va reaksion davlat arbobi, burjua qonunshunoslari uni «xalqaro huquq otasi» deb e’lon qilishgan.

sabalarinigiz hasaddan yorilib o'radi. Mening kasabalarim Verbrust, Palma, Jigonne, sizga yer uchastkalarini musodara qilish xususidagi ishlar topshirishadi. Ularda bunday ishlar g'ij-g'ij. Demak, sizda ikki tur mijozlar bo'ladi, bittasi xo'jayiningizdan qolgan, ikkinchisi men topgan mijozlar. Ochig'i, sizdan o'n besh foiz olishim kerak edi, axir sizga yuz ellik ming beryapman-ku!

– Yaxshi, mayli, shunday bo'la qolsin, lekin ortig'iga rozi emasman, – dedim men bundan ortig'i to'g'ri kelmasligini pisanda qilib.

Gobsek muloyimlashdi, u mendan mamnun bo'ldi.

– Idora uchun xo'jayiningizga pulni o'zim to'layman, – dedi u. – Men bahosini kamaytirishga, garov haqini ozaytirishga urinib ko'raman.

– Bemalol. O'zingizni ma'qul kafolat bilan ta'minlang.

– Siz esa shundan so'ng, har biri o'ng ming frankdan iborat o'n beshta veksel berasiz.

– Faqat bu ikki tomonlama bitimni ro'yxatdan o'tkazish va...

– Yo'q! – deb xitob qildi Gobsek jahl bilan so'zimni bo'lib. – Nega endi men sizga ko'proq ishonishim kerak ekan.

Men indamadim.

– Foizlar ustiga, – deb ilova qildi u hovuridan tushib, – siz ko'zim tirikligida mening ishlarimni olib borasiz. Tuzukmi?

– Roziman, biroq o'z mablag'imdan sarf-xarajat qilmayman.

– To'g'ri! – dedi Gobsek. – Aytmoqchi, – deb qo'shib qo'ydi u hayotida birinchi marta chiroyi

ochilib, – siz uyingizga borib turishingga ijozat berasiz.

– Sizni ko‘rishdan hamisha xursandman.

– Faqat, bilasizmi, ertalab sizga ham, men-ga ham bu noqulay, sizning o‘z ishingiz bor, mening o‘z ishim.

– Kechqurun keling unda.

– Yo‘q, buyam to‘g‘ri kelmaydi, – deb e‘tiroz bildirdi u shaxdam. – Siz jamoat orasida bo‘lishingiz, mijozlar bilan uchrashishingiz kerak. Mening oshnalarim bor, ular bilan kechqurunlari kafeda o‘tiramiz.

«Oshnalarim? Nahotki?» – deb o‘yladim ichimda.

– Bilasizmi, tushlik vaqtida uchrashamiz.

– Juda soz! – deb ma‘qulladi Gobsek. – Birjada ish bitgandan so‘ng, soat beshda. Kelishib olaylik, men siznikiga haftasiga ikki marta – chorshanba va shanba kunlari kelaman. Biz xuddi yor-birodarlardek ish xususida gaplashamiz. O-ho! Men ba‘zan xushchaqchaq bo‘lib ketaman. Siz meni kaklikning qanoti va bir qadah shampan vinosi bilan mehmon qilasiz, keyin otamlashib o‘tiramiz. Men juda ko‘p ajoyib-g‘aroyib voqealarni bilaman, bularni endi aytsa bo‘ladi, siz bulardan ko‘p narsani o‘rganasiz, odamlarni, ayniqsa, ayollarni bilib olasiz.

– Bo‘pti! Kaklik va shampan vinosi mendan.

– Yodingizda tuting, hashamga zo‘r bermang, yo‘qsa, ishonchimdan mahrum bo‘lasiz. Uy-ingizda dabdaba bo‘lmasin. Bitta-yarimta kampir-ni oshpaz qilib oling, shuning o‘zi yetadi. Men sog‘-salomat yuribsizmi, deb xabar olib turaman. Axir ozmuncha mablag‘ qo‘yayapmanmi sizga!

He-he! Axir ishlaringiz qanday ketayotganini bilib turishim kerak-ku! Xo'p, omon bo'ling. Kechga yaqin xo'jayiningiz bilan birga keling.

– Malol kelmasa, menga bir narsani aytsangiz, – dedim men cholga u meni ostonagacha kuzatib qo'rganida, – shaxsimni tasdiqlovchi hujjatning nusxasi nega kerak bo'lib qoldi sizga?

Jak-Ester van Gobsek yelkasini qisdi va ay-yorona kulib javob berdi:

– Yoshlar munchayam go'l-a! Men sizga ayt-sam, janob adliyachi, kezi kelganda laqillatib ketmasliklari uchun shu narsani bilib qo'ying, basharti odam o'ttizga kirmagan ekan, uning halolligi va salohiyati qarzni to'lay olishidan dalolat beradi. O'ttizdan oshgan odamga esa hecham ishonib bo'lmaydi.

Shunday deb orqamdan eshikni yopdi.

Oradan uch oy o'tgach, men adliyachi bo'ldim va biroz vaqtdan keyin, xonim, sizning ishingizni sudda muvaffaqiyat bilan yutib chiqdim. Bu yutuq menga ozmi-ko'pmi shuhrat keltirdi. Garchi men Gobsekka had-hisobsiz foiz haq to'lasam ham, besh yildan keyin butunlay undan qutuldim. Men Fanni Malvoni jon-dilimdan sevib, unga uylandim. Qismatimizning o'xshashligi, mehnat bilan o'tgan hayotimiz bizlarni chambarchas bog'ladi. Uning boyib ketgan fermer amakisi o'lib qoldi-yu, meros sifatida yetmish ming frank oldi, bu Gobsek bilan hisob-kitob qilishimga yordam berdi. O'shandan buyon hayotim saodat va huzur-halovatda o'tmoqda. O'zim haqimda ortiq hech narsa demayman, baxtli odam haqidagi mavzu juda zerikarli

bo'ladi. Men shohidi bo'lgan voqeaning qahramonlariga qaytamiz. Idorani sotib olganimdan keyin bir yil o'tgach, beixtiyor bo'ydoqlarning ziyofatiga tushib qoldim. Oshnalarimdan biri xotinboz olifta yigitga garovda yutqazib qo'yib ziyofat berayotgan edi. Janob de Tray, o'taketgan olifta yigit o'sha paytlar oqsuyaklarning mehmonxonalarida chakana dovruq solmagan edi...

– Hoziram dovrug'i baland, – deb gap qistirdi graf de Born, adliyachining so'zini bo'lib. – U frakni antiqa kiyadi, foytunlarga oldinma-ketin qo'shilgan otlarni antiqa boshqaradi. Maksimning qanday qarta o'ynashini, qanday yeb, qanday ichishini aytmayisizmi! Bunday nazokatni va xush tavozelikni butun dunyoda ham topolmayisiz. U poygachi otlarni, yangi rasm bo'lgan shlyapalarni va suratlarning qadriga yetadi. Xotin-qizlar unga oshiq-u beqaror. Yiliga u yuz minglab pulni sovuradi, biroq uning arzigulik mulki yoki bir bo'yra yeri borligini hech kim hech qachon eshitmagan. U zamonamizda sayyoh ritsarning namoyandasi, poytaxtdagi mehmonxonalarni, pardoixonalarni va xiyobonlarni kezib yuradi. U bir amfibiyadirki, uning tabiatida erkaklik alomatlari qancha bo'lsa, xotinelik alomatlari ham shunchadir. Ha, Maksim de Tray juda g'aroyib kimsa, jonkuyar va g'alamis, odamlarda qo'rquv va nafrat uyg'otadigan nusxa, bilimdon va g'irt nodon, xayr-saxovat va jinoyat qilishga moyil, goh muttaham, goh oliy-himmat, qonga emas, ko'proq tuproqqa belangan urishqoq, bu shunday odamki, uni vijdon azobi emas, har xil tashvishlar iztirobga solishi

mumkin, uni fikr-mulohazalardan ko'ra his-tuyg'ular kuchliroq xayolini band etadi, chetdan qaraganda qalbi ehtirosga to'la, olov ko'rinadi, aslida esa muz kabi sovuq, surgundagilar bilan zodagonlar orasidagi ajoyib birlashtiruvchi halqa. Maksim de Tray aql-hushli odam edi, bunday odamlardan goh-goh Mirabo, Pitt, Rishelye, biroq ko'pincha de Xori, Fukye-Tenvil va Konyarlarga¹ o'xshash graflar chiqadi...

– Xullas, – dedi Dervil, vikontessaning ukasi aytgan gaplarga diqqat bilan quloq berib, – men bu odam haqida baxtsiz chol Goriodan juda ko'p eshitgandim, shu bois davralarda u bilan xatarli uchrashuvdan zo'r berib o'zimni olib qochib yurardim. Biroq oshnam meni ziyofatiga holi jonimga qo'ymay shunday taklif qildiki, men yo'q deyishga botinolmadim, bil'aks meni odamoviga chiqarib qo'yishardi. Siz, xonim, bo'ydoqlarning ziyofatini tasavvur qilishingiz mahol. Hasham, tansiq taomlar, har xil nozne'mat, xuddi xasis odam shuhrat ketidan quvib bir kunda bor-yo'g'ini sovurayotgandek.

¹ Pitt Uilyam Kenja (1759–1806) – Angliyaning premyer-ministri, XVIII asrdagi fransuz burjua inqilobining ashaddiy dushmani, Gersog Rishelye Arman-Emmanyuel (1766–1822) – Restavratsiya davrida fransuzlarning ministri. Xorl-Antuan – 1720-yilda charxpalakka tortib o'ldirilgan qotil. Fukye-Menvil Antuan Kanten (1746–1795) – inqilob dushmanlariga qarshi kurashgan, inqilobiy tribunalning jamoat qoralovchisi, monarxiya aristokratiyasining unga nisbatan nafrati mazkur qissaning qahramoni graf de Bornning tashlagan luqmasida ifodalanadi, graf uning ismini jinoyatchilar bilan birgalikda tilga oladi va Pitt hamda Rishelye haqida hurmat bilan so'zlaydi. Konyar Pyer (1779–1831) – o'zini graf qilib ko'rsatgan avantyurist: o'g'riboshi bo'lgan.

Xonaga kirgan kishi hang-mang bo'lib qoladi: bezatilgan stol qanchalik batartib! Kumush va billur yaraqlab ko'zni oladi, qordek oq ipak dasturxon nuqradek tovlanadi. Xullas, hayot fayzli va gulgun. Yigitlar bir-biridan zebo jilmayishadi, xuddi nikoh paytidagi kuyovlardek ohista gaplashishadi, ularning tevarak-atrofi chinnidek toza. Ikki soatdan keyin esa... Stol usti jang maydonidagi kabi ag'dar-to'ntar: hammayoqda singan qadahlarning parchalari, g'ijim salfetkalar: tovoqlarda chala-yarim yeyilgan go'shtlar, ularga qarasa odamning ko'ngli ayniydi: qiyqiriq, qahqaha, hazil-mutoyiba, to'xtovsiz hajviy she'rlar va yalang'och askiyalar, bo'g'riqib ketgan chehralar, ma'nosiz chaqnagan ko'zlar, ochiq-oydin dilda bori-ni izhor etish. Vag'ir-vug'ur avjida, bittasi shishani sindiradi, boshqasi ashula boshlaydi, uchinchisi do'stini duelga chaqiradi, boshqalar esa, qarabsanki: quchoqlashishyapti yoki urishishyapti. Havo nihoyatda badbo'y, unda yuzlarcha hidlar omixta bo'lib ketgan, go'yo yuz kishi birvarakayiga baqirayotgandek shovqin-suron. Nima yeyayotganini, nima ichayotganini, nima deyayotganini hech kim bilmaydi: bittasi qovoq-tumshug'ini osiltirib jim o'tiradi, boshqalar chakagi tinmay vaysaydi. Birovi esa xuddi jinnidek yakkash bir so'zni takrorlaydi, xuddi qo'ng'iroqdek daranglaydi: bir xillar bu to'polonni bosishga harakat qiladi, eng tajribali odamlar esa ishratxonaga borishni taklif etadi. Bordi-yu, shu asnoda bu yerga hushyor odam kirib qolsa, hoynahoy, Vakx – ya'ni may va ish-

rat xudosiga qilinadigan to‘y-tomosha ustidan chiqib qolibman-da, degan xayolga boradi. Mana shu to‘s-to‘polonda janob de Tray ko‘nglimni olmoqchi bo‘ldi. Men hali uncha-munchani idrok etardim, shu bois o‘zimni hushyor tutdim. Aksincha, u mast-alast ko‘rinar, lekin haqiqatda esa esi joyida, faqat o‘z ishlari xususida o‘ylar edi. Bu ish qanday sodir bo‘lganini bilmayman, u meni tamomila sehrlab qo‘ydi, men de Grinon mehmonxonasidan chiqib ketayotib, unga sizni ertaga kechqurun soat to‘qqizda Gobsekning huzuriga olib boraman, deb va‘da qilib yubordim. Bu gapga chechan de Tray sehrgarlarcha ustalik bilan meni gapso‘zlari bilan avrab qo‘ygan edi. Axir u ikki gapning birida «or-nomus», «oliyjanoblik», «grafinya», «iffatli ayol», «saxovatpesha», «baxtsizlik», «umidsizlik» degan so‘zlarni tilga olib tursa, ishonmay bo‘ladimi?! Ertalab uyqidan uyg‘ongach, men kecha nima deganlarimni eslashga urindim, ming mashaqqat bilan fikrlarimni bir yerga to‘pladim. Ha, ha, bordi-yu, mijozlarimdan birining qizi bugun ertalab soat o‘n ikkigacha ellik ming frank topolmasa, isnodga qolishi, erining hurmat va muhabbatidan mahrum bo‘lishini esladim. Bu ishda qarta o‘ynab qarz bo‘lgandik, karetasozning haqi va qandaydir ortiqcha chiqimlar aralashgan edi... Mening xushro‘y ulfatim, o‘sha xonim ancha-muncha boy, tejamkorligi bilan bir necha yil ichida mol-dunyosiga yetkazgan zararini qoplay oladi, deb meni ishontira boshladi. Shundagina men oshnamning meni zo‘r berib uyiga taklif

qilayotganining sababini bildim. Uyat bo'lsa ham e'tirof etaman, bu olifta bilan yarashishdan Gobsekning o'zi manfaatdor ekanini men zinhor-bazinhor bilmagan edim. O'rnimdan turar-turmas, janob de Tray yetib keldi. Odatdagi ko'ngil uchun aytiladigan gaplardan keyin men shunday dedim:

– Graf, ochig'i, nima sababdan sizni Gobsekning huzuriga olib borishimga aqlim yetmaypti. Axir u sudxo'rlar orasida eng nazokatli va eng beozor-ku! Puli bo'lsa hech yo'q demaydi, to'g'rirog'i, unga yetarli kafolat bersangiz bas.

– Janob Dervil, – dedi de Tray, – garchi kecha o'zingiz rozi bo'lgan esangiz-da, bu ishni sizni zo'rlab aralashmayman.

«Yorab! – xayolan xitob qildim men. – Nahotki men bu odam oldida o'zimni subutsiz qilib ko'rsataman!»

– Kecha men sizga Gobsek ota bilan bekor-ga g'ijillashib qoldim, deb tushuntirgan edim, – deb ta'kidladi de Tray. – Axir butun Parijda oy oxirida, hisobotni yakunlamay turib bir lahza-da yuz ming frank sanab beradigan finansist yo'q. Shuni nazarda tutib men sizdan u bilan yarashtirib qo'yishingizni iltimos qilgan edim. Xo'p, bo'пти, bu to'g'rida ortiq gaplashmaymiz...

Janob de Tray shunday dedi-yu, zaharxanda jilmayib eshik tomon yurdi.

– Men siz bilan birga boraman Gobsekning oldiga! – dedim men. Biz de-Gre ko'chasiga yetganimizda olifta olazarak bo'lib atrofni ko'zdan kechirdi, uning nigohida shunday vahima bor ediki, uni ko'rib hang-mang bo'lib qoldim. U goh

qizarar, goh bo'zarar, goh yuzi za'faron tusga kirar, faqat Gobsekning zinapoyasini ko'rgan-dagina manglayida reza ter paydo bo'ldi. Biz kabrioletdan sakrab tushganimizda muyulish-dan de-Gre ko'chasiga kirakash foytun burildi. Navqiron olifta qarchig'aynikidek ko'zlari bilan darhol foytunning burchagida o'tirgan ayolni ko'rdi, chehrasida baralla quvonch balqidi. U bir bolani chaqirib otning jilovidan ushlab turishni amr qildi. Biz zinadan ko'tarilib kekxa diskontyorning¹ yoniga kirdik.

– Janob Gobsek, – dedim men, – mana men sizning huzuringizga jonajon do'stlarimdan birini olib keldim. (Azroildan qo'rqqandek qo'rqing undan, deb cholning qulog'iga shipshidim). Isho-namanki, mening o'tinchimga quloq osib, avvalgi do'stlik rishtasini qayta bog'laysiz (har vaqtdagidek foiz hisobiga) va uni falokatdan xalos qilasiz (basharti sizga foydali bo'lsa).

Janob de Tray sudxo'rga ikki bukilib ta'zim qildi va uning gaplarini eshitishga tayyorlanib xuddi saroy a'yonidek nazokat bilan royish o'tirdi. Uning hozirgi turishi har kimni ham maftun etardi: biroq mening Gobsekim mo'jaz kamin oldida hamon qimir etmay, bez bo'lib o'tirardi. U, ko'ring-ko'rmang, fransuz komediya teatrlarining ayvoniga qo'yilgan, kechki chiroqlar bilan yoritilgan Volterning haykaliga o'xshab ketardi. U boshidan tushmaydigan isqirt kartuzini salgina ko'tarib salomlashgan bo'ldi, shunda yilt etib ko'zga tashlangan, eski marmardek sarg'ayib ketgan yarg'oq boshi haykalga o'xshashligini mukammal to'ldirdi.

¹ Diskontyor – veksellarni hisob-kitob qiluvchi odam.

– Menda faqat doimiy mijozlar uchungina pul bor, – dedi u.

– Bundan chiqdi, kafangado bo‘lish uchun boshqalarning oldiga borganimdan ranjibsiz-da? – dedi graf jilmayib.

– Kafangado bo‘lgani? – kinoya bilan so‘radi Gobsek.

– Siz hamyonida sariq chaqa ham yo‘q odam kafangado bo‘lmaydi, demoqchimisiz? Qani, Parijda mendan ham badavlatroq odamni topib ko‘ring-chi! – deb xitob qildi bu olifta va o‘rni-dan turib poshnasida chir aylandi.

Uning hazilkashlik bilan qilgan bu qiligi gar-chi chuqur ma‘noni anglatga ham Gobsekka zarracha ta’sir qilmadi.

– Mening eng qalin do‘stlarim kimlar? – deb so‘zida davom etdi de Tray. – Ronkerol, de Marse, Frankessini, aka-uka Vandenes, Aju-do-Pinto janoblar, xullasi kalom, Parijning ajoyib yigitlari. Men qarta stolida bir shahzoda-ning va o‘zingizga yaxshi tanish elchining doimiy sherigiman. Menga Londondan, Karlsbad-dan, Badendan, Batdan daromad kelib turadi. Tushum zo‘r! Gapim noto‘g‘rimi?

– To‘g‘ri.

– Siz doim meni o‘z nog‘orangizga o‘ynata-siz! – Zodagonlar orasida menga oltinni shilib olishga imkon berasiz, ahvolim tang paytda og‘zi-burnimdan buloqdek tirqiratasiz. Hazir bo‘ling, bu ish sizning ham boshingizga tushi-shi mumkin. O‘lim sizni ham siqib suvingizni oladi.

– Ehtimol.

– Aytmoqchi, isrofgarlar bo‘lmaganda nima qilardingiz? Biz xuddi et bilan teridek bir-birimizga kerakmiz.

– To‘g‘ri.

– Qani, qo‘lni tashlang, Gobsek ota, yara-shamiz. Bordi-yu, bu ish to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lsa himmat qiling.

– Siz menikiga keldingiz, – dedi sudxo‘r loqayd-gina, – buning boisi shuki, sizning veksellaringiz Jirar, Palma Verbust va Jigonnelarning me‘dasi-ga zig‘ir yog‘idek urgan. Ular hatto ellik foiz zarariga ham ularni o‘tkazolmay garanglar. Va-holanki sizga vekselda ko‘rsatgan pulning faqat yarmini to‘lagan bo‘lsalar kerak, bundan chiqadiki, sizning veksellaringiz yigirma besh foiz ham turmaydi. Yo‘q, yo‘q, kaminangizga aslo to‘g‘ri kelmaydi! – deb gapida davom etdi Gobsek. – Axir cho‘ntagida hemiri yo‘q, ammo u yuz ming frank qarzi bor odamga bir tiyin ham qarz berib bo‘ladimi? Bundan ikki kun oldin baron Nusengen-nikida siz qarta o‘ynab o‘n mingni boy berdingiz.

– Marhamatli janob, – dedi graf surbetlarcha unga boshdan oyoq razm solib, – mening ishim-ga aralashmang. Olmoqning bermog‘i bor.

– To‘g‘ri.

– Mening veksellaringa hamisha pul to‘lanadi.

– Ehtimol.

– Hozirgi paytda masala bir narsaga kelib taqaladi. Men oladigan qarzimga yarasha garov qo‘ya olamanmi, yo‘qmi?..

– To‘g‘ri.

Ko‘chadan uy yoniga yaqinlashib kelayotgan foytunning taqillagani eshitildi.

– Hozir sizga ba’zi narsalarni olib kelaman, o’ylaymanki, siz bundan tamomila mamnun bo’lasiz, – dedi de Tray va xonadan chopgancha chiqib ketdi.

– E, bo’tam! – deb xitob qildi Gobsek o’rnidan chaqqon turib mening qo’llarimni qisarkan. – Bordi-yu, u garovga qo’yadigan buyum qimmatbaho bo’lsa, hayotimni saqlab qolasan! Axir oz bo’lmasa hayotdan ko’z yumardim! Verbrust bilan Jigonne meni kulgi qilmoqchi bo’lishibdi. Biroq sening sharofating bilan bugun kechqurun ularni men kalaka qilaman.

Bu cholning shodligida nimadir dahshatli bir narsa bor edi. Mening oldimda u birinchi marta sevinayotgan edi, lekin bu quvonch bir zumlik bo’lsa-da, hech qachon xotiramdan chiqmaydi.

– Marhamatingizni darig’ tutmay, picha yonimda bo’lsangiz, – deb ilova qildi Gobsek. – Rost, to’pponcham bor, aniq nishonga urishimga iymonim komil, yo’lbars oviga ham chiqqanman, palubada jon olib jon beradigan abordaj janglarida qatnashganman, lekin shunga qaramay bu olifta murdordan hayiqaman.

U yozuv stoliga bordi-da, kursiga o’tirdi. Chehrasi yana rangpar va xotirjam bo’ldi-qoldi.

– Shunaqa gaplar! – dedi u men tomonga o’girilib. – Turgan gapki, hozir sizga qachonlardir so’zlab berganim, sohibjamolni ko’rasiz. Men dahlizda bu zodagon juvonning qadam tashlashini eshityapman.

Chindan ham navqiron quruq savlat bir xonimni qo’ltig’idan olib kirib keldi. Men xonimni bir ko’rishdayoq tanidim, u keksa Gorioning

qizlaridan bittasi edi. Bir kuni Gobsek ta'riflagan grafinya shu bo'lib, chol shuning yotog'iga kirgan edi. Avvaliga u meni payqamadi, sababki, men deraza taxmonida turgan va darhol yuzimni oyna tomonga o'girib olgan edim.

Grafinya sudxo'ring zax va qorong'i kulbasiga kirgach, Maksim de Trayga shubha bilan qarab qo'ydi. U shunchalar zebo ediki, barcha gunohlariga qaramay unga yuragim achidi. Uning yurak-bag'ri qattiq azob-uqubatdan o'rtanayotgani, latif va mag'rur chehrasiga chala yarim parda tortgan pinhona alam husnini buzayotgani ko'rinib turardi. Navqiron quruq savlat uning uchun baayni iblis, boshiga bitgan balo edi. Men Gobsekning oldindan ko'ra bilish salohiyatiga qoyil qoldim, bundan to'rt yil avval bu ikki kimsaning birinchi vekselidanoq ularning taqdirini aytib bergan edi. «Hoynahoy farishtanusxa bu maxluq, – deb o'yladim men, – juvonga hukmini o'tkazib olgan, uning barcha zaif tomonlaridan: izzatlabligidan, rashkidan, huzur-halovatga tashnaligidan, oqsuyaklarcha bazm-u ziyofatlarga o'chligidan foydalanadi...»

– Ha, bu juvonning ko'ngilchanligi uning qo'lidagi bir qurol bo'lib xizmat qilgan! – deb gap qistirdi vikontessa. – Uning vafodorligidan foydalanган, ko'nglini buzib rahmini keltirgan, biz ayollargagina xos bo'lgan oliyhimmatlikni maqtab lof urgan, muloyimligini suiiste'mol etgan va jinoiy quvonchlarni unga juda qimmatga sotgan...

– Sizga e'tirof etamanki, – deb gap boshladi Dervil de Granle qilayotgan imo-ishoralarni payqamay, – men bu tashidan latofatli, ichi-

dan chirigan baxtsiz ayolning shoʻr taqdiriga sira achinganim yoʻq, biroq uning manglayi toza, dudoqlari atirgul gʻunchasidek tarovatlil, tabassumi jozibali, sadafdek tishlari oppoq farishtanamo hamsoyasi boʻlmish navqiron oliftaga nafrat bilan qaradim. Ular ikkovi shu choq oʻzlarining hakamlari qarshisida turishardi, u esa bularni xuddi oʻn oltinchi asrda kekxa rohib muqaddas inkvizitsiya zindonida qiynoqqa solinayotgan dinsiz ikki mavrga qaragandek koʻzdan kechirardi.

– Janob, – dedi grafinya ovozi qaltirab, – qaytarib olish sharti bilan mana bu brilliantlarning toʻla-toʻkis haqini olsa boʻladimi? – shuni deb u Gobsekka quticha uzatdi.

– Boʻladi, xonim, – deb luqma tashladim men deraza taxmonidan chiqib.

Grafinya yalt etib men tomonga qaradi, meni tanib choʻchib ketdi va ochiq-oydin: «Sirimni ochmang», degandek nazar tashladi.

– Biz, huquqshunoslarda bunday bitim «keyin xarid qilish huquqi bilan shartli sotish» deyiladi, bunday kezlarda mol-mulk va hovli-joyni maʼlum muddatga topshirish koʻzda tutiladi, muddat oʻtib, sotib olgan kishiga kelishilgan mablagʻ toʻlangach, xususiy mulk oʻz egasiga qaytarilishi mumkin.

Grafinya ustidan togʻ agʻdarilgandek yengil tortdi. Maksim de Tray chamasi brilliantning bahosi qatʼiy emasligi vajidan sudxoʻr kam pul berishi mumkinligidan choʻchib, qosh-qovogʻini uyib oldi. Gobsek churq etmay lupani oldi va quticha ichidagi buyumni koʻzdan kechira

boshladi. Dunyoda yana yuz yil yashasam ham, bu manzarani zinhor-bazinhor unutmayman. Cholning rangpar yuziga qizillik yugurdi. Ko'zi g'ayritabiiy chaqnadi, ularda, go'yo brilliantlarning jilosi aks etgandek bo'ldi. U o'rnidan turib deraza oldiga bordi va asil toshlarga xarislik bilan tikilar ekan, ularni tishsiz og'ziga shunday yaqin olib kelardiki, go'yo ularni yutib yubormoqchidek tuyulardi. U nimadir deb g'o'ldirar, qutichadan goh bilaguzuklar, goh shokilali ziraklar, goh til-laqoshlarni olar, ularning suvi nechog'lik tozaligini va olmoslarning rangini aniqlash uchun aylantirib ko'rar, biron qusuri yo'qmikin, deb tekshirar edi. U bu zeb-ziynatlarni qutichadan olar, qayta ularni joylar, yana olar, cho'g'dek yonsin deb yana aylantirar edi. Shu asioda u cholga qaraganda ko'proq yosh bolaga o'xshar, to'g'rirog'i, ham bola, ham chol edi.

– Naqadar soz! Eh, muncha yaxshi-a! Bunday brilliantlar inqilobdan oldin uch yuz ming turardi! Suvi qanchalar tiniq! Turgan gapki, bu Hindistondan, Golkonddan yoki Visapurdan keltirilgan. E, sizlar buning qadriniyu bahosini bilarmidingiz hech zamonda! Yo'q, yo'q, butun Parijda bularning qadri-yu bahosiga faqat Gobsek yeta oladi. Imperiya davrida buyurtmaga shunday bezaklarni tayyorlatish uchun ikki yuz mingdan ortiq to'lagan bo'lishardi. – U alam bilan qo'l siltab davom etdi: – Hozir kun sayin brilliantlarning narxi tushib ketyapti! Bitim tuzilganidan keyin Braziliya bozorni olmoslarga to'ldirib yubordi, lekin ularning suvi sarg'ish, hindlarnikidaqa emas. Buning ustiga xonimlar

endilikda brilliantlarni faqat saroy ballarida taqishyapti. Xonim, siz saroyda bo'lib turasizmi?

Bu gapni zarda bilan ayta turib, chol benihoya zavq-shavq bilan brilliantlarni birin-ketin tomosha qilardi.

– Yaxshi! Zarracha dog‘ yo‘q! – deb g‘o‘ldiradi u. – Mana bunda zarradek xol bor! Bunisi darz ketgan! Manavisi bag‘oyat chiroyli! Go‘zal!

Uning rangpar yuzi olmoslarning yalt-yult tovlanishidan yorishib ketgan edi. Shu on xayolimga viloyat mehmonxonalaridagi yashilvoriy eski oynalar keldi, ularda nurlar jilolanmaydi, ularga qarashga jur‘at etgan odamning aksini miyasiga qon quyilishi natijasida jon taslim qilayotgan alfozda ko‘rsatadi.

– Xo‘sh, qalay? – deb so‘radi graf Gobsekning yelkasiga qoqib.

Kexsa go‘dak cho‘chib tushdi. U ardoqli o‘yinchoqlaridan boshini ko‘tardi-da, ularni yozuv stoli ustiga terib qo‘ydi va kursiga o‘tirdi-yu, yana o‘sha-o‘sha odobli, loqayd hamda marmar toshdek hissiz sudxo‘rga aylandi-qo‘ydi.

– Siz qancha qarz ko‘tarmoqchisiz?

– Yuz ming. Uch yil muddatga, – dedi graf.

– Nima ham derdim, bo‘ladi, – deb rozilik bildirdi Gobsek, qizil daraxtdan yasalgan qimmatbaho qutichasidan bebaho, aniq tarozisini avaylab olarkan.

U brilliantlarni tortdi, eski niginxonani chomalab ko‘rdi. Bu payt uning yuzida quvonch va buni yashirish uchun intilish ifodalari zohir edi. Grafinya esankiragancha o‘yga cho‘mib qolgandi; uning bu ahvolini ko‘rib men sevindim, zero

nazarimda juvon qanday razolat botqog'iga botganini tushungandek edi. Bundan chiqdi, hali u or-nomusni butunlay yo'qotmagan, balki jindek hafsula qilish va hamdardlik ko'rsatib yordam qo'lini cho'zish bilan jar yoqasidan uni qutqarib qolishning iloji bo'lar. Men harakat qilib ko'rdim.

– Bu sizning o'z brilliantlaringizmi, xonim? – deb so'radim undan.

– Ha, janob, – dedi u menga kibr-u havo bilan qarab.

– Keyin sotib olish sharti bilan dalolatnoma yozing, vaysaqi, – dedi Gobsek va o'rnidan turayotib menga o'z kursisini ko'rsatdi.

– Sizning, xonim, hoynahoy eringiz bordir? – deb ikkinchi savolni berdim.

Grafinya betoqat boshini liqillatdi.

– Dalolatnoma tuzishdan bosh tortaman! – deb xitob qildim men.

– Nega endi? – deb so'radi Gobsek.

– Nega bo'lardi? – dedim men achchig'im chiqib, keyin cholni deraza tomon boshlab borayotib shipshidim: – Erlik xotin hamma narsada eriga qaram, shuning uchun bitim haqiqiy bo'lmaydi, siz bundan bexabar edim, deb bahona qilolmaysiz, chunki dalolatnoma bor. Siz bu brilliantlarni ko'rsatishingizga to'g'ri keladi, chunki dalolatnomada ularning og'irligi, bahosi va hokazolar ko'rsatiladi.

Gobsek bosh irg'ab so'zimni bo'ldi va ikki xiyonatchiga qaradi.

– U to'g'ri gapiryapti. Shartlar o'zgaradi. Sakson ming naqd to'lanadi, brilliantlar menda qoladi, – deb qo'shimcha qildi chol bo'g'iyoq ovozda. –

Uy anjomlariga bitim tuzganda garovga qo'shilgan buyum har qanaqangi dalolatnomalardan afzaldir.

– Lekin... – deb de Tray gap boshlagan edi, Gobsek shartta uning gapini bo'ldi-da, qutichani grafinyaga uzatdi.

– Rozi bo'ling yoki qaytarib olib keting. Boshimni g'alvaga qo'yishni istamayman.

– Gunohingizga iqror bo'lib, o'zingizni eringizning oyog'iga tashlang yaxshisi, – deb shipshidim grafinyaga.

Sudxo'r labimning qimirlashidan nima deganimni tushundi va menga sovuq nazar tashladi.

Yosh olifta bo'zdek oqarib ketdi. Grafinya taraddudga tushib qoldi. Maksim de Tray uning yoniga keldi, u har qancha sekin gapirmasin, baribir uning gaplari qulog'imga chalindi: «Alvido, qimmatli Anastazi. Baxtli bo'l. Men esam... Ertagayoq barcha tashvishlardan xalos bo'laman».

– Janob! – deb xitob qildi grafinya, yalt etib Gobsekka qarab. – Men roziman, shartlaringizni qabul qilaman.

– Mana bu boshqa gap! – dedi chol. – Sizni gapga ko'ndirish qiyin ekan, sohibjamol. – U bank chekiga ellik mingga imzo qo'ydi-da, grafinyaga topshirdi. – Buning qo'shimchasiga, – dedi u Volterning jilmayishidek jilmayib, – qolgan pul hisobiga siz uchun eng ishonchli o'ttiz mingga veksellar beraman. Baayni bu pulni tilla bilan to'lagandekman. Graf de Tray hozirgina menga: «Mening vekselimga hamma vaqt pul to'lanadi», deb aytdi, – davom etdi Gobsek grafinyaga graf imzo chekkan, kuni kecha Gobsekning

oshnalaridan biri sudga oshirgan va chamasi unga suv tekinga pullangan vekselni uzatib.

Maksim de Tray g'ingshidi, bu g'ingshishda «qari muttaham!» degan so'z baralla sezildi.

Gobsek pinagini ham buzmad, karton g'ilofdan bir juft to'pponchani bamaylixotir oldi-da, sovuqqina dedi:

– Haqorat qilingan shaxs sifatida birinchi bo'lib otish huquqi menda.

– Maksim, – deb bazo'r qichqirdi grafinya, – uzr so'rang! Siz janob Gobsekdan uzr so'rashingiz kerak.

– Janob, sizni haqorat qilish niyatim yo'q edi, – deb g'uldiradi graf.

– Men buni juda yaxshi bilaman, – dedi Gobsek xotirjam. – Sizning niyatingiz veksellarga haq to'lamaslik edi.

Grafinya o'rnidan turdi-da, ta'zim qildi va vahima bosdi shekilli, chopganча chiqib ketdi. Graf de Tray uning orqasidan talpindi, biroq xayrlasharkan, bunday dedi:

– Bordi-yu, bu to'g'rida churq etib og'iz ochsangiz, janoblار, yo sizning, yo mening qonim to'kiladi.

– Omin! – dedi unga javoban Gobsek to'pponchalarni yashirib. – O'z qonini to'kish uchun kishining qoni bo'lishi kerak, chirog'im, sening tomirlaringda qon o'rniga bo'tana oqadi.

Ko'cha eshik qars etib yopilib, ikkala foytun jo'nab ketgach, Gobsek sapchib o'rnidan turdi va o'yinga tushib qichqirdi:

– Ana, brilliantlar menda! Ular meniki! Qu-ling o'rgilsin brilliantlar! Ajoyib brilliantlar!

Suv tekin tushdi-ya! Holingiz qalay, Verbrust va Jigonne janoblar! Siz kekxa Gobsekni laqillatmoqchi bo'lganmidingiz? Men o'zim sizlarni laqillatdim! Men oladiganimni olvoldim! Menga yetishingizga yo'l bo'lsin sizlarga! Parvozingiz past! Domino ustida bu voqeani gapirib berganimda rosa kulgili ahvolga tushadilar-da!

Bu qahrli shodlik, yaltiroq toshlarni qo'lga kiritgan yovvoyi odamning g'azabnok tantanasi meni hang-mang qilib qo'ydi. Men tilim kalimaga kelmay taxta bo'lib qoldim.

– E, hali shu yerdamisan, qarog'im! Butunlay unutilib yuboribman. Bugun birga ovqatlanamiz. Senikida, axir men ro'zg'orga qaramayman-ku, anavi restoranda tortiladigan sardaklari-yu qaylalari, sharoblari me'daga tegib ketgan, ular naq iblisni ham zaharlashadi.

Nihoyat, u yuzimdagi o'zgarishni ko'rib, darhol hissiz, loqayd odamga aylandi-qo'ydi.

U kamin yoniga, manqal ustida sut solingan idish turgan yerga o'tirayotib:

– Buni siz tushunmaysiz, – dedi. – Men bilan ovqatlanishni istaysizmi? Bemalol ikkovimizga yetadi.

– Yo'q, rahmat, – dedim men. – Men mudom peshinda ovqatlanaman.

Shu payt yo'lakda allakimning shoshib-pishib kelayotgani eshitildi.

Kimdir Gobsekning eshigi tagida to'xtadi va g'azab bilan eshikni taqillatdi. Sudxo'r ostona oldiga bordi-da, darchadan mo'ralab eshikni ochdi. O'ttiz beshlarga borgan bu kishi unga beozor ko'rindi shekilli, uni ichkariga kirgizdi.

Kelgindi oddiy kiyingan, savlati esa marhum gersog Rishelyeni eslatardi. Bu kishi grafinyaning eri edi: balki uni oqsuyaklar orasida uchratgandirsiz – oʻxshatganim uchun meni afv eting; shu atrofda istiqomat qiluvchi davlat arboblariidek basavlat edi.

– Janob, – dedi u yana xotirjam boʻlib olgan Gobsekka, – xotinim sizning oldingizga keldimi?

– Ehtimol.

– Nima balo, janob, gapimga tushunmayapsizmi?

– Sizning xotiningiz bilan tanish emasman, – dedi sudxoʻr. – Bugun ertalab oldimga juda koʻp odam keldi. Erkaklar, xotinlar, yigitchalarga oʻxshash qizlar va qizlarga oʻxshash yigitchalar. Rost, eslash qiyin menga...

– Hazilni qoʻying, janob! Men xotinimni soʻrayapman. U hozirgina oldingizda edi.

– U xonim sizning xotiningiz ekanligini men qayoqdan bilay? Men siz bilan uchrashish baxtiga noil boʻlgan emasman.

– Yanglishasiz, janob Gobsek, – dedi graf ke-satib. – Biz siz bilan bir kuni xotinimning yotogʻida uchrashganmiz. Siz xotinim bir tiyin ham olmagan vekselga pul undirgani kelgandingiz.

– Bu pulni nima evaziga toʻlaganini surishtirib bilish – mening ishim emas, – deb eʼtiroz bildirdi Gobsek grafga istehzoli nazar tashlab. – Men uning vekselini bir hamkasabamdan hisob-kitob qilayotganda olgan edim. Darvoqe, ijozatingiz bilan sizga shuni aytsam, graf, – deb ilova qildi Gobsek zarracha hayajonga tushmay, sutga qahva qoʻshar ekan, – mening fikrimcha, kaminaga

o'z uyimda pand-nasihah qilishga sizning haqingiz yo'q. Men, janob, o'tgan asrning oltmish birinchi yilidayoq balog'at yoshiga yetganman.

– Marhamahatli janob, siz xotinimdan nihoyatda past bahoda brilliantlarni sotib olgansiz. Bu brilliantlar uniki emas, menga meros qolgan qimmatbaho buyumdur.

– Mening o'zimning oldi-sotdi ishlarim siri ni sizga ochishga majbur emasman, lekin sizga aytib qo'yay, bordi-yu, grafinya brilliantlarni sizdan beso'roq olgan ekan, siz xat orqali barcha zargarlarni ogohlantirib, ularni sotib olmanglar, deb tayinlab qo'yishingiz darkor edi. Yo'qsa, rafiqangiz ularni bo'lib-bo'lib sotib yuborishi mumkin edi.

– Janob! – deb xitob qildi graf. – Axir siz mening xotinimni bilasiz-ku!

– To'g'ri.

– Er-u xotin bo'lgani uchun eriga bo'ysunishi shart.

– Ehtimol.

– Brilliantlarni pullashga uning haqi yo'q!

– Rost.

– Nega endi bunday bo'ldi-a, janob?

– Buning sababi bor! Men xotiningizni bilaman, u eriga bo'ysunishi shart, gapingizga qo'shilaman: u yana boshqalarga ham bo'ysunar ekan, lekin sizning brilliantlaringizdan xabarim yo'q. Basharti, rafiqangiz veksellarga imzo chekar ekan, turgan gapki, u savdo-sotiq bitimlarini ham tuza oladi, brilliantlarni xarid qilishi yoki sotish uchun komissiyaga olishi ham mumkin. Shunaqasiam bo'ladi.

– Yaxshi qoling, janob! – dedi graf jahldan rangi boʻzdek oqarib. – Sud bor-ku.

– Rost.

– Manavi janob, – deb qoʻshimcha qildi graf meni koʻrsatib, – oldi-sotdining shohidi boʻlgan.

– Ehtimol.

Graf eshik tomon yurdi.

Ish qaltis tus olayotganini koʻrib, oraga tushishni va raqiblarni murosaga keltirishni lozim topdim.

– Graf, – dedim men, – siz haqsiz, ammo janob Gobsekda ham ayb yoʻq. Siz xotiningizni bir chekkada qoldirib, janob Gobsekni sudga tortolmaysiz, zotan bu sud majlisida yolgʻiz xotiningizning oʻzi sharmanda boʻlmaydi. Men adliyachiman, davlat vakili va halol odam sifatida oldi-sotdi mening koʻzim oldida boʻlib oʻtganini tasdiqlashga oʻzimni majbur deb bilaman. Lekin men siz bu oldi-sotdini qonunga xilof deb bekor qilishingizga ishonmayman, boz ustiga sotilgan brilliantlar haqiqatan ham sizniki ekanligini isbotlash mahol. Adolat yuzasidan siz haqsiz, lekin qonun boʻyicha magʻlubiyatga uchrashingiz aniq. Janob Gobsek insofli odam, u brilliantlarni oʻzi uchun juda foydali tarzda sotib olganini inkor etmaydi. Men ham oʻz burchim va vijdonim haqi, shundayligiga guvohlik beraman. Agar siz sudga bersangiz, uning oqibati nihoyatda shubhali. Men sizga janob Gobsek bilan murosaga kelishingizni maslahat beraman. Axir u sudda oʻzining halolligini isbotlay oladi, sizning esa oʻsha pullarni baribir toʻlashingizga toʻgʻri keladi. Siz brilliantlaringiz yetti, sakkiz oyga, boringki, bir yilga garov

qo'yilgan deb hisoblang, rost-da, axir grafniya olgan pulni bu vaqt ichida to'lolmasligingiz mumkin-ku! Ehtimol, siz ularni bugunoq sotib olishni ma'qul ko'rarsiz. Albatta, bu ishda siz yetarli kafolat berishingiz kerak bo'ladi.

Sudxo'r bamaylixotir nonni qahvaga bo'ktirib, parvoyi falak nonushta qilardi, biroq «murosaga keling», degan gapni eshitib, yalt etib menga qaradi. Bu uning: «Barakalla! Men bergan saboq bekor ketmabdi», degani edi. Men unga nigohimni tashladim, buning ma'nosini u darrov tushundi: «Bu ish shubhali va xavflidir, siz darhol kelishib, shartnoma tuzishingiz darzor». Sudda men bor haqiqatni gapirishimni bilib, Gobsek tixirlik qilmadi. Graf lutfan jilmayib, menga minnatdorlik bildirdi. Ayyorlik va ochko'zlik bobida Gobsek har qanday diplomatik kongress ishtirokchilarini bir cho'qishda qochiradi. Uzoq muzokaralardan keyin men dalolatnoma tuzdim, bunda graf Gobsekdan bu mablag'ga qarz foizlarini qo'shgan holda sakson besh ming frank olganiga iqror bo'ldi, Gobsek esa, qarz butunlay to'lansa, brilliantlarni grafga qaytarib berish majburiyatini oldi.

– Bu qanday isrofgarchilik! – deb xitob qildi grafinyaning eri afsus-nadomat bilan dalolatnomaga imzo chekar ekan. – Bu mushkul ahvoldan qanday qilib qutulib ketish mumkin ekan?

– Janob, bolalaringiz ko'pmi? – jiddiy ohangda so'radi Gobsek.

Bu savoldan graf seskanib ketdi, keksa sudxo'r go'yo tajribali shifokordek darhol og'riyotgan joyni topgan edi. U churq etib og'iz ochmadi.

– Shunday ekan-da, – deb g‘o‘ldiradi Gobsek o‘shshayib turgan grafning ahvol-ruhiyatini tushunib. – Men boshingizdan o‘tganlarini besh qo‘limdek bilaman. Bu ayol – iblis, siz hamon uni sevasiz shekilli. Tushunaman! U hatto meni ham hayajonga sola bildi. Balki siz mol-dunyoyingizni saqlab qolishni va bittami-ikkitami farzandingizga olib qo‘yishni istarsiz? Sizga maslahatim shuki, aysh-ishrat qiling, xo‘jako‘rsinga qarta o‘ynang, pullaringizni yelga sovuring va tez-tez Gobsekning oldiga kelib turing. Oqsuyaklar doirasida meni juhud, vahshiy, sudxo‘r, qaroqchi deb atashadi, seni u kafangado qiladi, deyishadi. Tupuraman bu gaplarga! Meni haqorat qilgan dilozor xor bo‘ladi. Kamina qulingiz to‘pponchadan bexato otadi, qilichbozlikning ham hadisini olgan. Buni hamma biladi. Yana sizga maslahatim shuki, ishonchli do‘st toping, yo‘lini topsangiz, yolg‘ondaka oldi-sotdi qilib, butun mol-mulkingizni unga topshiring... Farzandingiz voyaga yetganda, butun mulkingiz o‘shalarga taqsimlanadi... Siz huquqshunoslarda bu nima deyiladi? Fidenkomis shekilli? – deb so‘radi u menga o‘girilib.

O‘z xayollari bilan band bo‘lgan graf ketishi oldidan Gobsekka shunday dedi:

– Ertaga pulingizni keltirib beraman. Brilliantlarni taxt qilib turing.

Biz xoli qolgach, Gobsek nafrat bilan so‘z qotdi:

– Menimcha, u sizning barcha insofli odamlaringiz kabi laqma.

– Yaxshisi, otashin muhabbat qurboni, deng.

– Garov xati uchun pulni sizga graf to‘lay qolsin, – dedi Gobsek men u bilan xayrlashayotganimda.

Menga oqsuyak ayolning qabih sirlarini fosh etgan o‘sha voqeadan keyin bir kuni ertalab huzurimga graf kirib keldi.

– Janob, – dedi u xonamga kirgach. – Men juda ham muhim ish yuzasidan siz bilan maslahatlashmoqchiman. Shuni sizga e‘tirof etamanki, sizga butunlay ishonaman va umid qilamanki, buni isbotlayman. De Granle ishida tutgan yo‘lingiz har qanday maqtovga loyiq. (Mana ko‘rdingizmi, xonim, – dedi adliyachi vikontessa tomonga o‘girilib. – Sizga oddiygina xizmat ko‘rsatdim, buning uchun esa necha marta maqtovga sazovor bo‘ldim...) Men grafga ehtirom bilan ta‘zim qildim va men faqat halol odamning burchini ado etdim, dedim.

– Gap bunday, janob, men u g‘aroyib odam haqida xo‘p so‘rab-surishtirdim. Axir hozirgi tutgan mavqengiz uning sharofatidan-ku. Olgan ma‘lumotlarimga asoslanib ayta olamanki, o‘sha Gobsek sharm-u hayosizlar maktabining xudo urgan faylasufi. Uning halolligi haqida fikringiz qanday?

– Graf, – dedim men. – Gobsek menga himmat qildi... O‘n besh foizdan, – deb ilova qildim kulib. – Biroq uning xasisligi menga sira begona odam bilan ochiq gapirish huquqini bermaydi.

– Gapiravering, janob. Sizning rostgo‘yligingiz na unga, na sizga zarar yetkazadi. Men bu sudxo‘r siymosida farishtani ko‘rishni umid qilmayman.

– Gosbek otaning, – dedim men, – bir qoidasi bor, unga doimo amal qiladi. U pulni tovar deb hisoblaydi, vaziyatga qarab hech pinagini buzmay uni yo arzon, yo qimmat pullaydi. Uning fikricha, qarzi evaziga katta foiz oladigan sudxo‘r ham har bir daromadli ishda va oldi-sotdida qatnashadigan odam kabi kapitalistdir. Bordi-yu, uning moliyaviy qarashlarini va odamzotning tabiati haqidagi mulohazalarini olib tashlasa, iymonim komilki, bu xususiyatlarsiz u butun boshli Parijda eng insofli odamdir. Unda ikki narsa mavjud: ziqnalik va faylasuflik kamtarin va ulug‘ inson. Basharti men yosh-yosh bolalarimni yetim qoldirib o‘lib ketsam, ularni u o‘z bag‘riga oladi. Mana, janob, shaxsiy kuzatishlarimga tayanib Gobsekni shunday odam deb bilaman. Uning o‘tmishi haqida men hech narsa bilmayman. Ehtimol u qaroqchi bo‘lgandir: ehtimol ovorayi jahon darbadar yurgandir, brilliantlar va odamlarni, ayollarni va davlat sirlarini sotgandir, lekin iymonim komilki, bironta odam sinovlarda unchalik toblanmagan. Men qarzimni olib kelib, hammasini to‘lab undan qutulganimdan keyin yotig‘i bilan mendan qanday niyatda bunchalik ko‘p foiz haq oldingiz va o‘z do‘stingizga yordam qilish istagingiz bor ekan, nega bu himmatni tamomila beg‘araz qilmadingiz, deb so‘radim. «O‘g‘lim, men seni minnatdorlik bildirish zaruratidan xalos qildim, qolaversa, sen o‘zingni menga mute bilmaysan. Shu bois biz dunyoda eng qalin do‘stlarmiz». Uning bu javobi janob Gobsekning fe‘lini men aytgan gaplardan ko‘ra aniqroq ochib beradi.

«Qarorim qat'iy, – dedi graf. – Mol-mulkimni Gobsekning hukmiga topshirish haqidagi zarur qog'ozlarni tayyorlayvering. Men, janob, qarshi tilxat yozishni faqat sizga ishonaman, bunda u oldi-sotdi qalbaki ekanligini bayon qiladi, mol-mulkimni o'zim istaganimcha ishlatishimga va uni balog'atga yetganidan keyin to'ng'ich o'g'limning qo'liga topshirishga so'z beradi. Lekin men sizga bir narsani aytib qo'ymog'im kerak: tilxatni uyimda saqlashga qo'rqaman. O'g'lim onasiga shunday mehr qo'yganki, bu qimmatbaho hujjatni unga ishonib topshirolmayman. Uni o'zingiz saqlab qo'yishingizni sizdan iltimos qilaman. Bordi-yu, Gobsek o'lib-netib qolgudek bo'lsa, mening mol-mulkimni sizga meros qoldiradi. Shunday qilib, hammasi o'ylab qo'yilgan.

Graf gapdan to'xtadi, u juda hayajonlangan ko'rinardi.

– Bezovta qilganim uchun ming karra uzr, – dedi u nihoyat, – ochig'i, men qattiq iztirobdaman, salomatligim ham yaxshi emas, nuqul xavotirga soladi. Anavi ko'ngilsiz voqea menga shafqatsiz zarba bo'ldi. Qo'rqamanki, uzoq yashamayman, shu vajdan keskin choralar ko'rishga majburman.

– Janob, – dedim men, – avvalambor ishonchingiz uchun minnatdorlik bildirishimga ijozat eting. Men bu ishonchingizni oqlash uchun diqqatingizni bir narsaga jalb etmoqchiman, siz ko'radigan tadbirlar kenja farzandlaringizni baxtsiz qiladi, axir ular ham sizning nomingizda-ku! Boringki, xotiningiz sizning oldingizda

gunohkor bo'lsin, lekin siz baribir uni qachonlardir sevgansiz, shuning uchun uning bolalari ma'lum darajada ta'minlanishga haqli. Men sizga shuni aytib qo'yay, bordi-yu, ularning ulushi aniq ko'rsatilmasa, siz mening zimmamga yuklayotgan faxrli majburiyatni o'z ustimga ololmayman.

Graf seskanib ketdi, ko'zlariga yosh qalqidi-yu, qo'limni mahkam siqib dedi:

– Men sizni yaxshi bilmagan ekanman. Siz menga ham ozor berdingiz, ham xursand qildingiz. Ha, qarshi tilxatning birinchi moddasidayoq u bolalarga qancha ulush ajratishni ta'kidlash kerak.

Men uni idoramning eshigigacha kuzatib chiqdim, shunda uning chiroyi adolatli ish qilgani uchun qoniqqanidan porlab ketganini ko'rdim. Mana, Kamilla, yosh juvonlar tayg'onchoq yo'ldan jahannamga shunday qulab ketishlari mumkin. Ba'zan ziyofatlarda birgina raqsga tushish-u fortepyano yonida qo'shiq aytish va shahar tashqarisida sayr qilish o'nglanmaydigan baxtsizlikka olib kelishi mumkin. Manmanlik ovozigacha quloq osib, yoshlikning havoyi istaklari girdobiga o'zlarini otib, bunga ularning o'zlari talpinadilar! Ayol ma'lum chegara-dan chiqsa bas, u albatta uch furiya¹ga ro'baru bo'ladi, bularning nomi – sharmandalik, puschaymon, muhtojlik – ana shundan keyin...

– Boyaqish Kamilla, ko'zlari yumilib ketyapti, – deb gap qistirdi vikontessa Dervilning so'z-

¹ Furiya – qadimgi Rim mifologiyasida qasos oluvchi ilohiy-lardan biri. (Tarj.)

zini boʻlib. – Bora qol, qizim, oʻrningga yot. Qoʻrqinchli voqealar bilan seni qoʻrqitishning hojati yoʻq, sen shundogʻam pokdomon, oliy-himmat boʻlib qolasan.

Kamilla de Granle onasining muddaosini tushunib xonani tark etdi.

– Siz juda oshirib yubordingiz, qimmatli Dervil, – dedi vikontessa. – Ishonchli vakil har holda ona ham emas, voiz ham.

– Lekin gazetalar bundan ming chandon boʻrttirib yozadi...

– Azizim! – dedi vikontessa taajjubga tushib. – Chindan ham sizni taniyolmayapman! Nahotki siz mening qizimni gazeta oʻqiydi, deb oʻylasangiz? Davom eting, – deb qoʻshimcha qildi u.

– Grafning mol-mulki Gobsek qoʻliga oʻtganligi haqidagi vasiqaning tasdiqlanganiga uch oydan koʻproq vaqt oʻtdi...

– Endi grafning ism-sharifini ochiq aytsangiz boʻladi, qizim yoʻq bu yerda, uning ismi de Resto, – dedi vikontessa.

– Juda soz, – dedi ishonchli vakil rozi boʻlib. – Oradan bir qancha vaqt oʻtdi, lekin men oldi-sotdi haqidagi muhim hujjatni qoʻlimga olmadim. Axir u menda saqlanishi lozim edi-da. Parijda advokatlarni kundalik tashvishlar shunday band etadiki, ular oʻz mijozlarining ishlariga hojatmandlarning oʻzlari kabi koʻp vaqt ajratolmaydilar. Istisno sifatida baʼzi ishlarnigina biz oʻrinlatamiz. Ammo, har qalay, bir kuni Gobsekni uyimda mehmon qila turib, men undan, xabaringiz yoʻqmi, negadir janob de Restodan hech darak yoʻgʻ-a, deb soʻradim.

– Bunga jiddiy sabablar bor, – deb javob berdi chol. – Graf o'lim to'shagida yotibdi. Ko'ngli nozik odam. Bundaylar g'am-g'ussaga bardosh berolmaydilar, g'am-g'ussa ularni go'rga tiqadi. Hayot – murakkab, og'ir hunar, unga o'rganish uchun tirishish kerak. Hayotni bilgan odam, uning og'usini totiganida yuragining pay tolasi chiniqadi, pishiq bo'ladi, bu unga o'z ta'sirchanligini idora qilishga imkon beradi. Asablar unda po'lat prujinadan qolishmaydi, qayiladi-yu, lekin sinmaydi. Boz ustiga hazm qilishi yaxshi bo'lsa, bunday odam Livan kedrlari kabi uzoq umr ko'radi. Ajoyib daraxtlar-da o'ziam.

– Nahotki graf o'lsa? – deb xitob qildim men.

– Kim biladi tag'in, – dedi Gobsek. – Uning merosi haqidagi ish sizga naf keltiradi.

Men mehmonga qaradim va uning niyati nimaligini bilishga harakat qildim.

– Menga shuni tushuntirib bersangiz, malol kelmasa, nima uchun hamma odamlar ichida menga-yu grafga hamdardlik ko'rsatdingiz?

– Chunki faqat sizlargina hech qanday nayrangsiz menga ishondingiz.

Garchi bu javob qarshi tilxat yo'qolgan taqdir-da ham Gobsek o'z mavqeyini suiiste'mol qilmaydi, degan gapga meni ishontirsa-da, baribir grafni borib ko'rishga jazm qildim. Qandaydir ishni bahona qilib uydan Gobsek bilan birga chiqdim. Gelder ko'chasiga ko'z ochib yumguncha yetib keldim. Meni grafinya kichik bolalari bilan ko'ngil ochib o'tirgan mehmonxonaga olib kirdilar. Uy xizmatkori men kelganimni xabar qilganida u sapchib o'rnidan turdi, bir ko'ngli

istiqbolimga peshvoz chiqmoqchi ham bo'ldi-yu, biroq bu ahddidan qaytib o'tirdi va indamay kamin oldidagi kursini ko'rsatdi. Darhol u xuddi chehrasiga niqob tutgandek bo'ldi, odatda oqsuyak ayollar o'z ehtiroslarini shunday ustalik bilan yashiradilar. Boshidan kechirgan ko'rgiliklar uning husniga raxna solgan, biroq chehrasining go'zal tarxlari uning avvalgi lato-fati-yu chiroyini bildirib turar edi.

– Grafda muhim gapim bor edi: u bilan, xonim, suhbatlashsam degandim.

– Buning uddasidan chiqolsangiz, mendan baxtliroq ekansiz, – deb luqma tashladi grafinya mening gapimni bo'lib. – Graf hech kimni ko'rishni istamaydi, shifokorning keli-shi ham unga malol keladi, har qanday mehribonlikdan, mening g'amxo'rligimdan ham bosh tortadi. Bemorlar o'zi g'alati bo'lishadi. Ular xuddi bolalardek nima istashlarini yaxshi bilishmaydi.

Grafinya sholg'omdek qizarib ketdi. Men esam Gobsekka o'xshab qo'rs gapirib yuborganimni o'ylab pushaymon edim va suhbat mavzuyini o'zgartirishga oshiqdim.

– Har holda, bemorni hamma vaqt yolg'iz qoldirmaslik kerak, – dedim va unga diqqat bilan tikildim.

Biroq bu safar u qizarmadi, nazarimda menga sirini oshkor qilishni istamasdi.

– Tushuning axir, xonim, – deb yana gap boshladim, – mening sarkashligim shunchaki qiziqsinishdan emas. Gap muhim moddiy manfaatdorlikda...

Shunday dedim-u, noto'g'ri yo'ldan ketayotganimni fahmlab tilimni tishlab qoldim. Grafinya laqmalik qilganimdan darrov foydalandi.

– Er bilan xotinning manfaati bir-ku.

– Ma'zur tutasiz, men bu yerga faqat grafga aloqador ish bilan kelganman, – dedim e'tiroz bildirib.

– Men hozir buyuraman, gaplashmoqchi ekanligingizni unga xabar qilishadi.

Garchi grafinya bu gapni ochiq chiroy va xushmuomalalik bilan aytgan bo'lsa-da, men u o'la qolsa ham meni erining yoniga qo'ymasligini angladim.

Biz yana biroz mayda-chuyda narsalar haqida gaplashdik. Men bu vaqt ichida diqqat bilan uni kuzatib turdim. Grafinya barcha ayollar kabi qanday ish tutishini o'ylab, reja tuzib oldi-yu, ayollargagina xos xiyonatkorlikning oliy namunasini ifoda etuvchi bu rejasini juda ustalik bilan yashirdi. Aytish dahshat, men uning qo'lidan har narsa, hatto jinoyat qilish ham kelishi mumkinligidan xavfsiradim. Axir har bir imo-ishorasidan, nigohidan, o'zini tutishidan, gap ohangidan kelajakda holi nima kechishini bilganligi sezilib turardi. Men u bilan xayrlashib chiqib ketdim... Endi men sizga keyinchalik oshkor bo'lgan ba'zi tafsilotlarni ilova qilgan holda bu dramaning oxirgi sahnasini so'zlab bera-man. Darvoqe, bu tafsilotlarni yer tagida ilon qimirlasa biladigan Gobsek ikkovimiz aniqladik. Graf de Resto o'zini aysh-ishrat ummoniga otib, mol-dunyasini yelga sovura boshlagach, er-xotin orasida o'zgalarning nazaridan chet-

da janjallar bo'lib turgan, bular graf xotinidan yana ko'proq nafratlanishiga sabab bo'lgan. U qattiq og'rib, ko'rpa-to'shak qilib yotib olgach, xotiniga va kichik farzandlariga nafrati alan-ga olib ketdi: yotog'iga kirishni ularga taqiqlab qo'ydi, bordi-yu, bu tartibni buzishsa, hayoti uchun xavfli shunday tutqanoq tutib qolardi-ki, shifokorning o'zi, eringizning amriga bo'ysu-ning, deb grafinyaga iltijo qildi. Grafinya de Resto oilaviy mol-dunyosi, mulki, fermasi, hat-to o'zi yashab turgan uy ko'ziga afsonaviy sehr-gar, butun boyligini yutib yuborayotgandek bo'lib ko'rinadigan Gobsekning komiga kirib ketayotganini ko'rib erining niyati buzuqligini fahmladi. De Tray kreditorlarning ta'qibidan qutulish uchun Angliyada sayohat qilib yurardi. Faqat ugina sudxo'r grafga grafinyadan o'zi-ni himoya qilish yo'lini o'rgatganini, ko'rilgan yashirin chora-tadbirlarni osongina tushuntirib berishi mumkin edi. Aytishlaricha, u uzoq vaqt imzo chekishdan bosh tortibdi, bu esa, bizning qonunlarga ko'ra er-xotinning mol-mulki so-tilganida zarur. Ammo graf bir amallab uning roziligini olgan. Grafinya graf o'z mol-mulkini pulga aylantiradi va jaraq-jaraq pullar qanday-dir notariusning yashirin javonida yoki bank-da saqlanadi, deb tasavvur qilgan edi. Uning mo'ljalicha, janob de Restoning qo'lida shun-day hujjat bor ediki, to'ng'ich o'g'li bu bilan me-rosdan chekiga tushgan ulushini undira olishi mumkin edi. Shu bois u erining yotog'ini mijja qoqmay kuzatishga jazm qilgan edi. Uyda u yagona hokima edi va hammani o'zining josusi-

ga aylantirgandi. Uzuqkun u erining yotog'i oldidagi mehmonxonada uning har bir so'ziga, shitir-shitiriga quloq solib o'tirar, kechasi esa unga shu yerning o'ziga joy solib berishar, lekin u mijja qoqmas edi. Shifokor batamom uning tarafida edi. Uning eriga soxta sadoqati hammani hayratga solardi. Bevafoqlik va hiylakorlik qon-qoniga singib ketgan bu juvon eri nima sababdan jirkanishini izhor etganini yashirib, o'zini behad g'am-alam chekayotgan motamsaro ko'rsatib, el og'ziga tushdi. Odob-axloq bobida o'zlarini pokdomon hisoblaydigan ayollar, u o'z gunohini yuvdi, deb topishdi. Biroq uning ko'zi o'ngida nuqul muhtojlik turar, lavanglik qilsa go'yo qashshoqlik g'ippa tomog'idan oladigandek tuyular edi. Eri o'lim to'shagida ingrab yotgan yerida uni yonidan quvgan. Endi xotin erining atrofini sirli doira bilan o'rab olgan edi. U eridan ham yiroq, ham yaqin edi, barcha haq-huquqlardan mahrum esa-da, qudratli, o'zini vafodor xotin qilib ko'rsatardi, biroq uning o'limini kutar va boyligini qo'lga kiritishni xohlardi. U baayni qumda in kovlab, har bir qum zarrasining to'kilishiga quloq tutib, in tubida o'lja poylab yashirinib yotgan hasharotga o'xshardi. Eng qattiqqo'l adab o'rgatuvchi ham chor-nochor grafinyani mehribon ona deb e'tirof etgan bo'lardi. Aytishlaricha, otasining o'limi unga saboq bo'libdi. U bolalarini jon-dildan suyar va o'zining nopok hayotini ulardan yashirar edi; norasida bolalarni chalg'itish va ular ko'ziga o'zini oppoq ko'rsatish qiyin emasdi, u bolalariga juda yaxshi ta'lim va tarbiya

berdi. Tan beraman, men bu ayolga hayrat va o'kinch bilan qarardim, bu qilig'im uchun Gobsek yaqinginada menga tegajoqlik qilar edi. Shu kezlarda grafinya Maksim de Tranning firibgarligiga iqror bo'ldi va achchiq ko'z yoshlari bilan avvalgi gunohlarini yuva boshladi. Aminmanki, erining mol-mulkini egallab olish uchun qilgan ishlari albatta razilona bo'lsa-da, baribir bunga uni onalik muhabbati, ular oldidagi gunohini yuvish istagi undagan edi. Jo'shqin muhabbat zavq-shavqini boshidan kechirgan har qanday ayol singari endilikda u sidqidildan ezgulikka intilardi. Ehtimol, u aysh-ishratda kechirgan hayotining samarasi bo'lmish achchiq mevani totib ko'rgachgina ezgulikning qadriga yetgan edi. Har safar katta o'g'li Ernest otasining xonasidan chiqqanida grafinya uni so'roqqa tutar, ilondek avrab graf nima qilganini, nima deganini surishtirar edi. O'g'li: onam otamni cheksiz sevgani uchun surishtiryapti, deb o'ylab, uning savollariga bajonidil javob berardi. Mening borishim grafinyani sarosimaga solib qo'ydi. U mening qiyofamda erining g'arazli niyatlarini amalga oshiruvchi qora niyatli kimsani ko'rdi va meni jon taslim qilayotgan erining yoniga qo'ymaslikka ahd qildi. Men qandaydir kori bad bo'lganini payqadim va qarshi tilxatlarning taqdiri haqida tashvishlanganim uchun qanday bo'lmasin janob de Resto bilan uchrashishga harakat qildim. Men bu hujjatlar grafinyaning qo'liga tushib qolishidan, grafinya bularni ro'kach qilishi mumkinligidan, oqibatda u bilan Gobsek orasida hech tugamas da'volashish

boshlanib ketishidan xavotir olardim. Men bu sudxo'ring fe'lini yaxshi bilardim, u graf topshirgan mol-mulkini grafinyaga bermasligiga iymonim komil edi. Lekin faqat o'zingina ishga tushirib yubora oladigan bu tilxatlarda sud mojarosini boshlashga sabab bo'luvchi dalillar xiyla ko'p edi. Bu sho'rishi g'avg'oning oldini olish uchun men ikkinchi marta grafinyanikiga bordim.

– Men shuni aniqladimki, xonim, – dedi Der-vil vikontessa Granlega sirli tusda, – biz kundalik tashvishlar bilan bo'lib, yetarli ahamiyat bermaydigan bir axloqiy sir bor ekan. Men tabiatan kuzatuvchan bo'lganimdan o'zim olib borishimga to'g'ri kelgan, ayniqsa, odamlarda tama va g'arazgo'ylik o'ti alanga olgan ishlarini beixtiyor tahlil qilardim. Bilasizmi, raqiblarning bir-birining yashirin fikrlar va niyatlarni bilib olish bobidagi ajoyib salohiyatlariga bir necha bor amin bo'ldim. Ba'zan ikki raqib o'ta sezgirlik va shunday fahm-farosat namunalari-ni namoyish etishardiki, xuddi oshiq-ma'shuqa bir-birining dilidagini bilib turgani kabi ular ham bir-birlarining ko'ngillarida nima borligini ko'rib-bilib turishardi. Mana, nihoyat, biz grafinya ikkovimiz xoli qolgach, meni uning ko'rishga ko'zi, otishga o'qi yo'qligini darrov tushundim. Garchi buni u tavoze va shod-xurramlik pardasi bilan yashirsa-da, fahmladim. Axir men uning sirlaridan beixtiyor voqif edim, ayollar esa sirini biladigan odamni yomon ko'rishadi. U, harqalay, erining ishonchli vakili bo'lsam hamki, eri hali mol-mulkini menga topshirishga ulgurmaganini fahmladi.

Men o'sha kuni oramizda bo'lib o'tgan gaplarni gapirib, vaqtingizni olmayman. Faqat shuni ayta olamanki, hayotimda olib borgan olishuvlarim ichida eng xavflisi shu bo'lgani aniq. Kishini yo'ldan ozdirish bobida tabiatning barcha sehr-u jodularidan bahramand bo'lgan bu ayol o'zini goh royish, goh manman, goh xushmuomala, goh sodda qilib ko'rsatar edi. U hatto yuragimda ehtiros o'tini alangalatib, meni rom qilmoqchi ham bo'ldi, biroq barcha urinishi zoye ketdi. Ketishga chog'langanimda ko'zlari shunday qahr-u g'azab bilan chaqnadiki, men hatto qaltirab ketdim. Biz yovlashib qoldik. U o'ziga qolsa meni yo'q qilib yuborishga tayyor edi. Men esam unga achinardim, lekin bu taxlit ayollarga achinish qattiq haqorat bilan barobar. Bu achinishni u xayrlashayotganimizda men nazokat bilan aytgan gaplardan tushundi. Men unga, har qancha urinmang, baribir yutqazishingiz muqarrar, sizni qashshoqlik kutadi, deb tushuntirdim. Chamasi u vahimaga tushib qoldi.

– Bordi-yu, men graf bilan gaplasholganimda, loaqal bolalaringizning taqdiri...

– Yo'q! Unda hamma narsada sizga mute bo'lib qolaman! – deb xitob qildi u so'zimni bo'lib, nafrat bilan qo'lini silkitar ekan.

Oramizdagi kurash shunday oshkora tus olgach, muhtojlikka giriftor bo'ladigan bu oilani o'zim xalos qilishga jazm etdim. Bu maqsadim yo'lida men zarur bo'lsa, hattoki huquqiy jihatdan qonunsiz ishlar qilishgacha bel bog'ladim. Men mana bunday ish ko'rdim. Men graf Restoga qarshi ish qo'zg'ab, u Gobsekdan yolg'on-

daka qarz bo'lgan barcha pulni da'vo qildim va ijro varaqasi oldim. Turgan gapki, grafinya sud qarorini hammadan yashirishga majbur bo'ldi, bu qaror menga graf o'lganidan keyin uning mol-mulkini xatlash huquqini berardi. Keyin men graf xonadonidagi xizmatchilardan birini o'zinga og'dirib oldim, u xo'jayini garchi tun yarimda bo'lsa hamki jon talvasasiga tushsa, meni xabardor etishga so'z berdi. Men qo'q-qisdan kirib kelib, hoziroq mol-mulkni ro'yxatga olaman, deb po'pisa qilib grafinyani qo'rqi-tishga va shu yo'l bilan grafda saqlanayotgan hujjatni saqlab qolishga bel bog'ladim. Keyinchalik shuni bildimki, bu ayol o'layotgan erining oh-u nolasiga quloq tutgan ko'yi «Grajdanlar kodeksi»ni titkilagan ekan. O'lim to'shagida jon talashib yotgan alamdiydani o'rab olgan merosxo'rlarning qalbiga nazar tashlashning iloji bo'lganda biz dahshatli manzarani ko'rgan bo'lardik. Bunda qanchadan-qancha g'araz, tama, makr bor edi. Bularning hammasi tag'in pul uchun! Keling, bu tafsilotlarga chek qo'yamiz, shundog'am ular bir-biridan jirkanch, lekin bular mazkur ayolning iztiroblarini, erining azoblarini ko'z o'ngimizga keltirishimizga yordam beradi va o'zlarining fojialariga o'xshash oilaviy fojialarini yashirib turgan pardani ko'taradi. Graf de Resto taqdiriga tan berib xonanishinlikda ikki oy ko'rpa-to'shak qilib yotdi. Bedavo dard sekin-asta a'zoyi badanini va ongini barbod etdi. U ba'zan kasallarda uchraydigan va tushuntirib bo'lmaydigan xurmacha qiliqlar chiqardi, u xonasini supurib-sidirish-

ni man qildi. Har qanday xizmatlardan voz kechdi, hatto o'rnini qayta solishlariga ham yo'l qo'ymasdi. Hamma narsa joniga tekkanligi xonadagi jihozlarning tartibsizligida ko'rinardi, eng nozik, bejirim buyumlarni ham chang va o'rgimchak ini bosib yotardi. Bir vaqtlar boy va nozikta'b odamga xonadagi tartibsizlig-u ifloslik go'yo huzur bag'ishlayotgandek edi. Bu yerda kamin, yozuv stoli va stullar ustida kasal uchun keltirilgan dori-darmonlar uyulib yotar, qayoqqa qaramang, dorili yoki dorisiz «kir-chir shishachalar, ichki ko'ylaklar, singan likopchalar ko'zga tashlanar, kamin oldida qopqoqsiz grelka yotar, mineral suvi to'kib tashlanmagan vanna turar edi. Bu mudhish tartibsizlikning har bir bo'lagida inson hayotining yemirilishi sezilardi. Ajal odamni tomog'idan g'ippa bo'g'ishga tayyorlanar ekan, kuchini buyumlarda sinab ko'rishga qasd qilgandek edi. Kunduzgi yorug'lik grafni vahimaga solgani bois deraza eshiklari taqa-taq berk turar, nimqorong'ilikda xona yana ham tundroq ko'rinar edi. Bemor cho'pdek ozib ketgan edi. Faqat uning yaltiroq ko'zlarida hayotning so'nggi uchquni miltillab turardi. Uning so'niq, rangpar yuziga ajal soya solgan edi, oldirmay qo'yganidan o'sib ketgan uzun soch tolimlari ich-ichiga botgan lunjlari-ga tushib turishi bu taassurotni kuchaytirardi. U zohidlarni eslatardi. G'am-g'ussa undagi barcha insoniy tuyg'ularni so'ndirgan edi. Axir u hali ellikka ham bormagan, bir vaqtlar butun Parij uni shukuhli va baxtli odam sifatida ko'rgan edi!

Bir kuni ertalab, 1824-yil dekabr boshlarida, grafning o'g'li Ernest chuqur g'ussa bilan otasiga tikilib o'tirgan edi. Otasi qimirlab, unga qaraydi.

– Og'riyaptimi, dada?

– Yo'q, – deydi graf qalbni zirqiratuvchi jilmayib. – Nuqul bu yerim, ham yuragimning tagi!

Shunday deb u chillakdek barmoqlarini boshiga tekkizadi, keyin shunday iztirobli boqib qo'lini pachoq ko'kragiga bosadi, o'g'li yig'lab yuboradi.

– Nimaga Dervil kelmayapti-a? – deb so'raydi graf o'z xizmatkoridan. Graf uni o'zining sodiq xizmatkori deb bilar, aslida esa u tamoman xotini tarafida edi. – Bu qanaqasi, Moris? – deb xitob qildi graf jon berayotib, so'ng qo'zg'alib, to'shakda o'tirdi: chamasi ongi butunlay tiniqlashgan edi. – Keyingi ikki hafta ichida sizni kamida yetti marta ishonchli vakilimni chaqirib kelishga yubordim, hamon undan darak yo'q. Nima, meni mayna qilyapsizmi? Hoziroq, shu daqiqada borib uni olib keling! Agar bo'yin tovtlasangiz, o'rnimdan turib, o'zim boraman...

– Grafinya, – dedi kamerdiner mehmonxonaga chiqqach, – grafning gapini eshitdingizmi? Bu yog'i qandoq bo'ldi?

– Hech narsa, o'zingizni o'sha vakilning oldiga ketayotgan qilib ko'rsating, qaytib kelgach, grafga, u Parijdan qirq lye¹ nariga muhim sud majlisiga jo'nab ketibdi, deb xabar qiling. Haf-taning oxirida kelarmish, deb qo'shib qo'ying.

«Kasallar o'limlari yaqin qolganiga sira ishonishmaydi. U vakilning qaytishini bemalol ku-

¹ Lye – Fransiyada 4,5 kilometr ga teng qadimgi uzunlik o'lchovi. (Tarj.)

tadi», deb ko'nglidan o'tkazdi grafinya. Kuni kecha shifokor unga, graf bir kunga ham bormaydi, degan edi. Oradan ikki soat o'tgach, xizmatkor unga ko'ngilsiz xabarni yetkazgach, graf qattiq tashvishga tushdi.

– E, xudo! – deb shivirladi u. – Butun umidim sendan!

U o'g'liga uzoq tikilib turdi-da, nihoyat unga bunday dedi:

– Ernest, bolaginam, hali sen yoshsan, lekin qalbing toza, o'layotgan otaga berilgan va'daning muqaddasligini tushunasan... Sen sir saqlashga, uni qalbingda qattiq asrashga, buni hatto onangdan ham yashirishga qodirmisan? Butun uyda men endilikda faqat senga ishonaman. Mening ishonchimni oqlay olasanmi?

– Ha, dada.

– Gap bunday, Ernest, hozir men senga muhrlangan konvert beraman: u Dervilga tegishi kerak. Uni ehtiyot qil, yaxshilab yashir, toki uning sendaligiga hech kim shubha qilmasin. Uydan hech kimga bildirmay chiqqin-da, uni burchakdagi pochta qutisiga tashlagin.

– Xo'p bo'ladi, dada.

– Senga ishonsam bo'ladimi?

– Ha, dada.

– Kel, meni o'p. Endi o'lish menga uncha og'ir bo'lmaydi, bolajonim. Olti, yetti yildan keyin buning qanday muhim sirligini bilasan, sen fahm-u farosating va otangga sadoqating uchun taqdirlanasan. O'shanda seni qanchalik sevganimga amin bo'lasan. Endi meni bir zum xoli qo'y va yonimga hech kimni kiritma.

Ernest mehmonxonaga chiqdi va u bu yerda turgan onasini ko'rdi.

– Ernest, – deb shipshidi u, – bu yoqqa kel. – U o'tirdi va o'g'lini o'ziga tortib bag'riga mahkam bosdi-da, mehr bilan o'pdi. – Ernest, otang sen bilan gaplashdimi hozir?

– Ha, oyi.

– Nimalar dedi u senga?

– Aytolmayman, oyi.

– Oh, qanchalik o'ktam bolasan! – deb xitob qildi grafinya va uni qizg'in o'pdi. – Sir saqlay olishingdan qanchalar xursandman! Odam uchun eng muhim ikki qoidani hech qachon unutma, bular yolg'on so'zlamaslik va va'daning ustidan chiqish.

– Oyijon, namuncha yaxshisiz-a! Siz, albat, hayotingizda hech yolg'on so'zlamagansiz! Ishonaman bunga.

– Yo'q, Ernest, ba'zida yolg'on gapirganman. So'zimning ustidan chiqmaganman, lekin butunlay noiloj qolgan vaqtlarimdagina shundoq qilganman. Menga qara, sen katta, aqlli bolasan, otang meni o'zidan chetlatayotganini, g'amxo'rligimdan hazar qilayotganini o'zing ko'rib turibsan. Bu adolatsizlik. Uni qanchalik sevishimni ko'ryapsan-ku.

– Ha, oyi.

– Boyaqish o'g'lim, – dedi grafinya ko'z yoshlarini shashqator oqizib. – Hammasiga yomon odamlar aybdor, ular menga tuhmat qilishdi, otang bilan meni ajratib yubormoqchi bo'lishdi. Chunki bu kishilar g'arazgo'y va baxildirlar. Ular bizning davlatimizni tortib olib, o'zlarini-

ki qilmoqchilar. Agar otang sog' bo'lganida oramizdagi janjal tezda bartaraf bo'lardi, u mehribon, meni sevadi, o'zining xato qilganini tushurardi. Biroq kasallik uning aql-u idrokiga rahna soldi, menga bo'lgan nafrati ko'nglida chuqur ildiz otib, qandaydir telbalikka aylandi. Shundan keyin boshqa bolalarga qaraganda senga mehri oshib ketdi. Bu ham uning aqli xiralashganini ko'rsatadi. Axir o'zing ham u kasal bo'lishidan avval Polina bilan Jorjni sendan kam sevmaganini bilasan-ku. Endilikda hamma narsa uning injiqligiga bog'liq. Senga bo'lgan mehr-u muhabbati ko'ngliga har xil gaplarni solishi mumkin. Ayt menga, u senga biror topshiriq berdimi? Xaloskorim, axir sen ukang bilan singlingni kafangado qilishni istamaysan, onang bir burda nonga zor bo'lib tilanchilik qilishiga yo'l qo'ymaysan! Hamma gapni ayt menga.

– A-a! – deb qichqirdi graf eshikni lang ochib.

Yarim yalang'och, cho'p-ustixon graf bo'sag'ada turardi. Uning bo'g'i qichqirig'i grafinyaning o'takasini yordi, u eriga qaragancha taxta bo'lib qoldi, qoqsuyak, rangi dokadek oq bu odam unga xuddi go'rdan chiqqandek tuyular edi.

– Hayotimni g'am-g'ussa bilan og'ulaganingiz yetmasmidi, hatto tinchgina o'lishimga ham qo'ymaysiz, o'g'limning qalbiga yovuzlik urug'ini sochib, uni ablah odam qilmoqchi bo'lasiz! – deb qichqirdi u yana, xirqiroq ovozda.

Grafinya shu asnoda qo'rqinchli, jon talvasasida tasqara bo'lib ketgan bu chalajon odamning oyog'iga o'zini tashladi, ko'zlaridan mo'ldir-mo'ldir yosh oqdi.

– Rahm qiling! Rahmingiz kelsin menga! – deb fig'on chekdi u.

– Siz menga rahm qilganmidingiz? – deb so'radi graf. – Siz o'zingizning mol-mulkingizni sovurganingizda men g'iring deganim yo'q, endi mening mol-mulkimni ham yelga sovrarmoqchisiz. O'g'limni xonavayron qilmoqchimisiz?!

– Mayli! Rahm qilmang, nobud eting meni! Bolalarga shafqat qiling! – deb yolvordi u. – Buyuring, men monastirga ketay va qolgan umrimni tanho o'sha yerda o'tkazay. Men bir so'zsiz itoat etaman. Oldingizda gunohimni yuvish uchun nimani buyursangiz shuni bajo keltiraman. Biroq bolalar... Keling, loaqal o'shalar baxtli bo'lishsin... Bolalar, bolalar!..

– Mening bolam bitta! – deb xitob qildi graf jon achchig'ida qoqsuyak qo'llarini o'g'liga uzatib.

– Kechir! Men shunday pushaymonman, shunday pushaymonmanki! – deb chinqirdi grafinya o'layotgan erining oriq, terdan nam oyoqlarini quchoqlab. U oh-u faryod chekayotganidan tili aylanmas, nuqul g'o'ldirar edi.

– Hali siz pushaymon yeyapsizmi?! Hozirgina Ernestga gapirgan gapingizdan keyin bu so'zni tilga olishga qanday haddingiz sig'di! – dedi o'layotgan graf va uni oyog'i bilan siltab tashladi.

Grafinya yerda cho'zilib qoldi.

– Sizning kasringizga sovqotdim, – dedi graf qandaydir mudhish loqaydlik bilan. – Siz yomon qiz, yomon xotin edingiz, yomon ona ham bo'lib qolasiz...

Sho'rlik ayol hushidan ketdi. Chalajon graf bir amallab to'shagi oldiga bordi-da, yotdi va

oradan bir necha soat o'tgach hushini yo'qotdi. Kashishlar uning tavba-tazarrusini qabul qilgani, tasalli bergani kelishdi. Yarim kechada u jon taslim qildi. Xotini bilan qilgan dahanaki jang uning batamom darmonini quritgan edi. Men tun yarmida Gobsek bilan birga keldim. Uydagilarning sarosimaga tushganidan foydalanib biz osongina marhumning yotog'i yonidagi mo'jaz mehmonxonaga o'tib oldik. Biz bu yerda yig'layotgan bolalarni ko'rdik; ular bilan tunni marhumning jasadi yonida o'tkazish uchun qolgan ikkita kashish bor edi. Ernest oldimga kelib, onam marhumning xonasida yolg'iz qolishga istak bildirdi, dedi.

– Kirmang u yoqqa, – dedi u. Ovozidagi shijoat va keskin qo'l harakati meni qoyil qoldirdi.
– Onam ibodat qilyapti...

Gobsek o'z odaticha unsiz kuldi, lekin bu yigitchaning qayg'u va g'azab aks etgan yuzi meni hayajonga solgandi, tevarak-atrofdagi marhumning liboslari, qog'ozlar, g'ijimlangan lattalar sochilib yotardi. Murda yotgan to'shak yonida bu tartibsizlikni ko'rish dahshat edi. Grafning joni uzilishi bilanoq xotini xonaga otilib kirib, javonlarni, yozuv stolining tortmalarini sindirgan, gilamning atrofida yirtilgan xatlarning parchalari yoyilib yotar, qutichalar sindirilgan, portfellar tilimlangan – uning tiyiqsiz qo'llari hamma yerni tit-pit qilgan edi. Ehtimol, uning qidirishi avvaliga foydasiz bo'lgan, ammo ayolning turishiga va hayajonlanishiga qarab men oxiri sirli hujjatni topgan, degan fikrga keldim. Men to'shakka qaradim-u odatdagi advokatlik

ishlarida kamolotga yetgan tuyg'ۇ bilan nima bo'lgan bo'lsa hammasini angladim. Graf de Restoning jasadı chalqancha yotar, boshi devor tomon karavotdan osilib qolgan edi. Ayol uni bamisli yer bilan bir bo'lib yoyilib yotgan keraksız konvertlardek nafrat bilan itqigani shundoq ko'rinib turardi. Murdaning to'ng'ib qolgan jasadı, kerilgan qo'l-oyoqlari dahshatli va beo'xshov qotib qolgan edi. Turgan gapki, joni uzilayotgan graf umrining so'nggi daqiqasi-gacha birovning tajovuzidan asrab qolish maqsadida qarshi tilxatni yostig'i tagida saqlagan. Grafınya hujjatlar qayerda saqlanishini fahmlagan, darvoqe, qotib changak bo'lib qolgan barmoqlar ham buni ochiq ko'rsatib turardi. Yostiq yerga olib tashlangan, unda ayollar tuflisining izi ko'rinardi. Gilamda, grafınyaning oyoqlari tagida grafning muhri bosilgan yirtiq paket yotardi. Men apil-tapil paketni oldim-u paket ustida o'z ismimning bitilganini ko'rdim. Men grafınyaga xuddi jinoyatchini so'roq qilayotgan tergovchidek o'qrayib qaradim.

Kaminda qog'oz parchalari yonib tugamoqda edi. Biz kelganimizni bilgach, grafınya ularni o'tga tashlagan, zotan, dastlabki satrlarda kichik bolalarining ismlarini ko'rgan va ularni merosdan mahrum etuvchi hujjatni yo'qotyapman, deb xayol qilgan edi. Vaholanki, mening qistovim bilan ularga meros bo'lib berilgan edi. Esankirash va sodir bo'lgan jinoyat oldidagi vahima uning ongini xiralashtirgan edi. U jinoyat ustida qo'lga tushganini ko'rdi, ehtimol uning ko'zi o'ngida jallod kundasi paydo bo'lgan-

dir, jallod qizigan temir bilan uning badaniga tamg'a bosayotganini his qilgandir. U harsillab nafas olgancha churq etmay turar, bizlar nima deyishimizni kutib telbanamo ko'zlarini lo'q qilgancha bizlarga tikilar edi.

– Nima qilib qo'yingiz?! – deb zarda qildim men olov yamlashga ulgurmagan bir parcha qog'ozni kamindan yulib olib. – Siz o'z bolalaringizni xonavayron qildingiz! Axir bu hujjatlar ularni mol-mulk bilan ta'minlardi...

Grafinyaning og'zi qiyshayib ketdi, go'yo hali zamon yuragi yorilib o'ladigandek edi.

– Xe-xe! – dedi Gobsek ovozi g'ijirlab. Bu nido mis shamdonni marmar ustida surgandek eshitildi.

Xiyla sukut saqlagach, chol menga parvoyi falak:

– Mabodo siz bu chol graf sotib ketgan mol-mulkning qonuniy egasi emas, deb grafinyaga gap uqtirmoqchidirsiz? Shu daqiqadan e'tiboran uning uyi meniki bo'ladi.

Boshimga xuddi to'qmoq bilan urgandek bo'lishdi, men taajjubdan garangsib qoldim. Grafinya sudxo'rga ajablanib qaraganimni payqadi.

– Janob! Janob! – deb g'o'ldiradi u boshqa so'z topolmay.

– Siz anavi vasiqani, fidenkomisni kuchga kiritmoqchisimisiz? – deb so'radim Gobsekdan.

– Ehtimol.

– Siz grafinyaning jinoyatidan foydalanmoqchisiz shekilli?

– To'g'ri.

Men eshik tomon yurdim, grafinya esa, o'zini marhum yotgan to'shak yonidagi stulga tashlab zor qaqshab yig'lay boshladi. Gobsek men-

ga ergashdi. Ko'chada men indamay boshqa tomonga yo'l oldim, biroq u yonimga keldi va hatto qalbim tubigacha nazar solmoqchidek menga qattiq tikildi. Keyin ingichka, chiyildoq ovozda qichqirdi:

– Nima, hali meni ayblamoqchimisani?

Shu kundan boshlab biz onda-sonda uchra-sha boshladik. Grafning dang'illama uyini Gobsek ijaraga berdi: yozni xuddi boyonlardek uning mulkida o'tkazdi, u yerda chol o'zini bamisoli xo'jayindek tutdi, fermalar qurdi. Tegirmonlarni va yo'llarni tuzatdi, daraxtlar o'tqazdi. Kunlardan bir kun uni Tyuilri xiyobonida uchratib qoldim.

– Grafinya mardonavor hayot kechiryapti, – dedim men unga. – U o'zini butunlay bolalariga bag'ishladi, ularga ajoyib ta'lim va tarbiya berdi. Katta o'g'li jonon yigit.

– Ehtimol.

– Menga qarang, Ernestga yordam berishingiz kerak-ku.

– Yordam? – takror so'radi Gobsek. – Yo'q, yo'q! Baxtsizlik – eng yaxshi murabbiy. Baxtsizlikda u ko'p narsalarni o'rganadi, pulning qadriga yetadi, odam taniydi, erkak-ayollarning qadr-qimmatini tushunadi, qo'yib bering, Parij dengizining to'liqlarida suzsiz. Mohir botsman bo'lib yetishgach, uni kapitanlikka ko'taramiz.

Men bu jumboqning mag'zini chaqishni istamay u bilan xayrlashdim. Garchi onasi janob de Restoga mendan nafratlanishni qulog'iga quysa-da va u maslahat so'rab menga murojaat qilishga bo'yni yor bermasa hamki, men o'tgan

hafta Gobsekning uyiga bordim. Men unga Ernestning Kamillani sevib qolganini aytib, uni o'z majburiyatini bajarishga shoshirmoqchi edim, zero yosh graf hademay balog'at yoshiga yetishi kerak edi. Chol to'shakda yotardi: u ko'pdan beri kasal, hayotining so'nggi kunlarini yashayotgan edi. U menga, oyoqqa turganimdan keyin ishlar bilan shug'ullanishga qurbim yetsa javobini aytaman, dedi. Turgan gapki, u qalbida hayot uchquni miltillab turrar ekan, boyligining hatto bir zarrasidan ham ajralishni istamasdi. Zero, paysalga solishga boshqa sabab yo'q edi. Men uning kasali o'zi o'ylagandan ko'ra xavfliroq ekanini ko'rdim. Hayotining so'nggi kunlarida telbalikka aylangan uning ochko'zligi qay darajaga yetganini ko'rish istagida unikida ancha vaqt qolib ketdim. U yon-verida begona odamlarni ko'rishni istamay, endilikda butun uyni ijaraga olgan, unda yolg'iz o'zi yashar, barcha xonalar huvillab yotardi. Uning yotog'ida hamma narsa avvalgicha edi. Menga tanish jihozlar oradan o'n olti yil o'tsa hamki, zinhor o'zgarmagan, har bir buyum go'yo oyna tagida saqlangandek bus-butun edi. Hamon o'sha oqsoch, sadoqatli ayol ilgarigidek zimmasiga qo'yilgan butun vazifani bajarar, ro'zg'orga qarar, kelganlar haqida xabar berar, hozir, kasal yotganida uni parvarish qilar, xo'jayinining oldiga chiqqanida nogiron erini eshikka poyloqchi qilib qo'yar edi. Gobsek juda zaif bo'lsa-da, ba'zan mijozlarni qabul qilar, daromadni o'zi olardi. Biroq ishini shunday osonlashtirgan ediki, uydan

tashqarida bitadigan ishlar uchun ahyon-ahyonda topshiriq bilan nogironni yuborishning o'zi kifoya edi. Fransiya Gaiti respublikasini¹ tanigani to'g'risida shartnoma tuzilganida Gobsekni bu sobiq koloniyadagi fransuz fuqarolarining yer-suvini baholovchi va tugatuvchi komissiyaning a'zosi qilib tayinlashdi. Zotan u San-Damingodagi almisoqdan qolgan yer-suvlar, ularning egalari va plantatorlari haqida had-hisobsiz ma'lumotlarga ega edi. Farosatli Gobsek shu zahotiyoq sobiq yer egalari bilan merosxo'rlarining da'volarini ko'rib chiqadigan vositachilik shirkati tashkil etish kerakligini fahmladi. Shunday qilib, u hech qachon sarmoya qo'shmay bu korxonaning rasmiy tuzuvchilari Verbrust va Jigonne bilan bab-baravar daromad ola boshladi. Chunki uning to'plagan ma'lumotlari sarmoya qo'yishdan ortiqroq foyda keltirardi. Agentlik g'ofil, badgumon yoki huquqlari asosli emasligini bilgan odamlarning mol-mulk da'volaridan tushadigan daromadni o'ppondek komiga tortardi. Gobsek tugatuvchi sifatida yirik plantatorlar bilan muzokaralar olib borar, ularning har biri o'z yerlarining bahosini oshirish yoki tezroq huquq olish uchun unga baholi qudrat sovg'a qilishardi. Bu poralar o'z yo'lida qo'shimcha ulush bo'lib, Gobsek qarz majburiyatlaridan undirolmagan daromad o'rnini to'ldirishi kerak edi. Keyin u agentlik orqali majburiyatlarni suv tekinga sotib olardi. Shuningdek, u egalari Respublika sekin-asta to'lashiga ishonmay to'lovni oz bo'lsa-da, tez-

¹ Fransiya Gaiti respublikasini 1825-yilda tanigan.

roq qo'lgaga olishni afzal ko'rgan majburiyatlarni ham arzon-garovga xarid qilardi. Bu katta qalloblikda Gobsek yeb to'ymas ajdaho edi. Har kuni ertalab u sovg'a olar va xuddi qandaydir nabob vaziri kabi bu sovg'aga hayot in'om etsam arzirmikan, deb o'ylab ko'rayotgandek uni ochko'zlik bilan ko'zdan kechirar edi. Gobsek nimayiki keltirishsa, hammasini qabul qilardi, biror kambag'al olib kelgan bir savat baliqdan tortib ziqna odamlar sovg'a qilgan shamlargacha olardi. Bundan tashqari, badavlat kishilardan kumush idish-tovoq va savdogarlardan til-la tamakidonlar olar edi. Bu sovg'a-salomlarni qayerga qo'yishini hech kim bilmasdi. Hamma uning uyiga narsa keltirar, lekin u yerdan hech narsa olib chiqmas edi.

– Xudo haqqi, sidqidildan aytaman, – dedi oqsoch xotin, mening eski tanishim. – Menimcha, bularning hammasini yutyapti-ku, lekin o'ziga jabr qilyapti – cho'p-ustuxon bo'p ketdi. Xuddi mening osma soatimdagi kakkudek qorayib qoldi.

Mana, o'tgan hafta Gobsek menikiga nogironni yubordi, u xonamga kirib kelib shunday dedi:

– Yuring, janob Dervil, tezroq boraylik. Xo'jayin jon beryapti. Limondek sarg'ayib ketdi, siz bilan gaplashishga ilhaq. Ajal uni kekirdagidan g'ippa bo'g'di, tomog'idan xirqiroq ovoz eshitilyapti.

O'layotgan cholning xonasiga kirib hayron bo'lib qoldim, u ichida olovi yo'q, bir uyum kul to'planib yotgan kamin oldida tiz cho'kib o'tirardi. U karavotdan tushib kamin oldigacha sudralib borgan, biroq orqaga qaytishga ma-

joli yetmagan, yordamga chaqiray desa ovozi chiqmagan edi.

– Keksa do‘stim, – dedim men uning o‘rnidan turishiga yordamlashib va to‘shagi yoniga olib kelib. – Sovqotdingizmi? Nega kaminni yoqishni buyurmaysiz?

– Hecham sovqotayotganim yo‘q, – dedi u. – Yoqishning hojati yo‘q, aslo. Safarim qaridi, chirog‘im, – dedi u picha sukut saqlab menga xira, so‘niq nigohini tashlar ekan. – Qayoqqa safar qilayotganimni bilmayman, ammo bu yerdan ketaman. Menda allaqachon karfologiya¹ boshlandi, – deb ilova qildi u tibbiyotcha atamani ishlatib, bu uning ongi tiniqligini ko‘rsatardi. – Nazarimda butun xonada oltin dumalab yurgandek bo‘ldi, men ularni tutib olgani o‘rnimdan turdim. Butun boyligim endi qayoqqa ketadi? Uni men davlat xazinasiga qoldirmayman; men vasiyatnoma yozdim. Uni topgin, Grotsiy. Men seni vasiy qilib tayinlayman. Go‘zal golland ayolidan qiz qolgan. Kunlardan bir kuni uni kechqurun Vivyen ko‘chasida ko‘rib qoldim. Uning laqabi – Mash‘ala. Uni qidirib top, Grotsiy. Men seni vasiy etib tayinladim. Bu yerdan istagan narsangni ol, yeb-ich, menda ular bisyor. G‘ozning jigaridan qilingan qiymalar, qop-qop qahva, qand bor. Tilla qoshiqlargacha bor. Xotiningga Odio yasagan servizdan ol. Brilliantlarni kimga qoldiray? Sen, tamaki hidlaysanmi, chirog‘im? Menda har xil navdagi tamakilar serob. Uni Gamburgda sot, u yerda bir yarim baravar qimmat turadi. Ha,

¹ Karfologiya – o‘layotgan odam qo‘llarining beixtiyor harakatlanishi.

menda hamma narsa bor. Endi hammasidan ajralish kerak. yo'q, yo'q, Gobsek ota qo'rqqoq emas, ko'ngling to'q bo'lsin...

U to'shagida sal qo'zg'aldi: uning yuzi oq yostiqa bronza rangida ko'zga tashlandi. U chillakdek qo'llarini cho'zib, qoqsuyak barmoqlari bilan adyolni changalladi. O'zicha uni ushlab jon saqlab qolmoqchi bo'ldi. Keyin hissiz nigohi singari sovuq kaminga qaradi-yu, es-hushidan ayrilmay jon berdi. Oqsoch, nogiron va mening ko'z oldimizda Leterning «Brut bolalarining o'limi» suratidagi konsullar orqasida turgan qadimgi rim keksalarining hadixavotirli qiyofasi namoyon bo'ldi.

– Mardonavor jon berdi, qari qurumsoq! – dedi nogiron, soldatchasiga burro qilib.

Mening qulog'im tagida esa hamon joni uzilayotgan sudxo'rning afsonaviy boyliklari to'g'risidagi gapi jaranglardi. Shunda men beixtiyor kamindagi kul uyumiga qaradim, choling so'niq ko'zlari ham unga qadalgan edi. Bu kul uyumining kattaligi meni hayron qoldirdi. Men otashkurakni oldim-da, uni kul uyumiga tiqdim, otashkurak qattiq bir narsaga tegdi, u yerda bir to'p oltin, kumush yotardi, chamasi, bular uning kasal yotganida topgan daromadi edi. Ularni tuzukroq yashirishga uning holi kelmagan, badgumonligi esa bularni bankka berib yuborishiga monelik qilgan edi.

– Mahkamaga yuguring! – dedim nogironga. – Darhol hamma narsani ro'yxatga olish kerak.

Meni hang-u mang qilgan Gobsekning so'nggi so'zlarini va oqsoch xotin aytgan so'zlarni

eslab ikkala qavatdagi eshiklarning kalitlarini oldim-da, xonalarni koʻzdan kechirmoqchi boʻldim. Men ochgan birinchi xonada cholning menga uydirma tuyulgan gaplariga javob oldim, bu yerda ziqnalik har qanday mantiqdan xoli, mulohazasiz ehtirosga aylanishi mumkinligini koʻrdim, bunday misollarni biz aksari vaqt viloyatlarda koʻramiz. Marhumning yotogʻi yonidagi xonada chindan ham aynigan qiymalar, har xil oziq-ovqatlar, hatto poʻpanak bosgan ustritsa va baliqlar uyulib yotardi. Har xil qoʻlansa hidlardan nafasim boʻgʻilib qolayozdi. Hamma narsalarda qurt va hasharotlar gʻujgʻon oʻynardi. Yaqinda olgan sovgʻalari har xil katta-kichik qutilar, ulkan choy qadoqlari va qop-qop qahvalar orasida yotardi. Kamin ustida kumush idishda uning nomiga Gavrnning portlardagi omborlariga kelgan har xil yuklarning hujjatlari saqlanardi. Mustamlaka mollari: toy-toy paxta, quti-quti qand, bochkachalar toʻla rom, qahva, nil boʻyogʻi va tamakilar butun bir bozorga arzigulik edi! Uy qimmatbaho mebelga toʻlib ketgan, kumush buyumlar, chiroqlar, suratlar, vazalar, kitoblar, romsiz karnay qilib oʻralgan antiqa gravyuralar va rang-barang nodir narsalar bor edi. Chamasi bu hisobsiz qimmatbaho buyumlarning hammasi sovgʻa qilib keltirilmagan edi, ularning aksariyati sotib olinmagan garov buyumlari edi. Men bu yerda javohirot solingan, bosh harflar va gerb bilan bezatilgan qutichalarni, ajoyib ipak dasturxonlarni va sochiqlarni, tamgʻasiz qimmatbaho qurollarni koʻrdim. Yaqinginda

kitoblar orasidan sugʻurib olingan bir kitobni ochib, u yerda ming franklik bir nechta qogʻoz pulni koʻrdim. Shunda men har bir buyumni, hatto eng kichiklarigacha diqqat bilan koʻzdan kechirishga, hamma narsani agʻdar-toʻntar qilishga, pol taxtasini, shiftlarni, devorlarni, boʻgʻotlarni tekshirib, oltin qidirishga jazm etdim. Zero, Rembrandt moʻyqalamiga loyiq bu gollandiyalik oltinga hirs qoʻygan edi. Men ish tajribamda hech qachon bunday ochkoʻzlikning inson xarakteriga uygʻunlashib ketganini koʻrmagan edim. Marhumning yotogʻiga qaytib kelib, uning yozuv stolida bu boyliklarning qanday qilib sekin-asta toʻplanganining tagiga yetdim. Presspape tagida Gobsekning savdogarlar bilan yozishmalari yotardi, bularga u odatda mijozlari sovgʻa qilgan narsalarni pullardi. U yigʻilib qolgan oziq-ovqatni Shevening doʻkoniga sotishni istamagan, zero Sheve oʻttiz foiz narxini tushirishni talab qilgan. U bir necha frank uchun talashib yurganida, oziq-ovqatlar buzilib qolgan. Kumushlar shuning uchun sotilmay qolib ketganki, Gobsek ularni joyiga yetkazib berish uchun ketadigan xarajatni ustiga olishdan bosh tortgan. Qop-qop qahvalar ham aynib qolgan, chunki toʻkilganini chegirib tashlashni istamagan. Xullasi kalom, oldi-sotdiga aloqador har bir narsa uning uchun tugamas bahslarga sababchi boʻlgan. Bu uning bolalikka qaytganidan dalolat berar edi. Mazkur hol yana shunda koʻrinardiki, u biror narsaga qattiq hirs qoʻygan, aqli zabun barcha chollarda boʻladigan yovvoyilarcha qaysarlik namunalarni koʻrsatar

edi. Shunda men o'zimga o'zim uning og'zidan eshitgan savolni berdim; bu boylik kimga qoladi? Men uning yagona merosxo'ri haqida bergan g'alati ma'lumotlarni eslab, uni Parijdagi barcha ishratxonalarni qidirib topishim va had-hisobsiz boylikni axloqsiz ayol qo'liga topshirishim kerakligini fahmladim. Lekin avvalo bilib qo'ying, yaqin kunlar ichida graf Ernest de Resto butunlay ishonchli hujjatlar asosida mol-mulkiga ega bo'ladi-yu, mademuazel Kamillaga uylanadi, onasi bilan ukasiga yetarli mablag', singlisiga sep beradi.

– Yaxshi, qadrlı Dervil, biz o'ylab ko'ramiz, – dedi de Granle xonim. – Bizning oiladek oila uning onasi bilan qarindosh bo'lishga rozilik bildirishi uchun de Resto juda boy bo'lmog'i darkor. Yodingizda bo'lsin, o'g'lim ertami-kechmi gersog de Granle bo'ladi. Oilamizning ikki tarmog'ining mol-mulkini birlashtiradi. Men kuyovimning o'g'linga munosib bo'lishini istayman.

– Bilasizmi, – deb so'radi graf de Born. – Restoning gerbi qanday? To'rt qismi to'q qizil hoshiyali, kumush yo'lli, qora xochli, juda qadimiy gerb.

– To'g'ri, – deb tasdiqladi vikontessa, – qolaversa Kamilla o'sha gerbdagi Res tuta¹ni buzgan qaynonasi bilan uchrashmasligi ham mumkin.

– De Bosean xonim uyida grafinya de Restoni qabul qilibdi, – deb luqma tashladi kekxa tog'a.

– Yo'q, uni ziyofatga chaqirgan, xolos! – deb e'tiroz bildirdi vikontessa.

¹ Res tuta – ishonch (*lotincha*).

Ruschadan Qodir
Mirmuhamedov tarjimasi

CHIN SEVGI

(Hikoya)

Ilohiy xaloskorimiz Iso Masih tavalludidan boshlangan melodiy yil hisobi boʻyicha oʻn uchinchi asrning boshlarida yoxud shunga yaqin bir paytda Parij shahrida ajib bir sevgi voqeasi sodir boʻlganki, u butun shahar ahlini, shuningdek, qirol aʼyonlarini ham behad hayratlantirgan. Din peshvolari, ruhoniy otalar esa ushbu voqeani bizga yodnoma sifatida yozib qoldirganlar; ularning bu ishda qanday xizmat koʻrsatganlarini quyidagi satrlardan bilib olursiz.

Bayon qilayotgan voqeamiz qahramoni Tur shahri fuqarosi ekan. Avom xalq uni soddagina qilib «turlik» deb atagan, sababki, u bizning munavvar Turda tugʻilgan va asl ismi Anso boʻlgan. Ushbu saxovatli hamshaharimiz keksayib qolgan paytida oʻzi tugʻilgan qadrdon Turga qaytib kelibdi va agar shaharning hamda abbatlikning¹ solnomalariga ishonsak, u Sen-Marten shahrining meri boʻlibdi, lekin Parijda yashagan paytida u mohir zargar boʻlib dovruq qozongan ekan. Xullasi kalom, Anso navqiron yigitlik chogʻida oʻzining oʻta halol va diyonatli kimsa ekanligi va oʻzga ezgu fazilatlarini sharofati tufayli Parij shahrining fuqarosi boʻlgan ekan

¹ Abbatlik – oʻz xususiy yer-suvi, xoʻjaligiga ega boʻlgan katoliklar monastiri.

hamda qirol homiyligini sotib olib (u zamonda bunday homiylik pul turarkan), uning tabaasi bo'libdi. Sen-Deni ko'chasida Sen-Le cherkovi yonida Ansoning boj to'lamay qurgan o'z uyi bo'lib, bu yerdagi ustaxonada u zo'r mahorat bilan yasayotgan go'zal taqinchoqlar, g'aroyib buyumlar Parijning ko'pchilik fuqarolarini bamisoli ohanrabodek o'ziga tortar ekan. Usta Anso asli turlik bo'lsa ham, boz ustiga, ikkita azamat yigitni bir cho'qishda qochira oladigan kuch-qudratga ega bo'lsa ham, axloqu odobda bag'oyat ibratli, avliyosifat odam bo'lgan. U turli xil ko'ngilochar o'yinxonalari serob bo'lgan ulkan shaharda yashasa-da, hattoki ayni gulday ochilgan, qirchillama yigit chog'ida ham, biron marta bo'lsin Parijning ishratxona yo fohishaxonalari qadam qo'ymagan. Ko'pchilikning aytishicha, ushbu fazilat xudo tomonidan biz bandalariga ato etilgan insoniy ongni barkamol qilarkanki, faqat shundagina biz muqaddas dinimiz asrorlarining homiysi bo'lmish iymon-e'tiqodni to'g'ri idrok eta olar ekanmiz; binobarin, men zargarimizning axloqiy pokligi sababini chuqurroq anglab olmog'imiz zarur, deb hisoblayman. Eng birinchi navbatda shunga e'tibor beringki, kitobxon, Anso Parijga piyoda yurib kelibdi, o'sha zamondagi shahar fuqarolarining e'tirof etishicha, u Ayyub payg'ambar dan ham abgorroq ahvolda ekan va zumda «pov» etib yonib, «pis» etib o'chadigan o'zga turliklardan farqli o'laroq, metin irodali odam bo'lgan va sabr-matonatda o'z g'animidan qasos olishga chog'langan rohibdan qolishmas ekan. U usta-

ga shogirdlik qilgan paytlarida astoydil tirish-qoqlik bilan ishlagan; o'zi usta bo'lganidan keyin esa, mehnatsevarlik layoqatini o'n chandon oshirgan, har doim va har jabhada o'z kasbiga xos bo'lgan yangi-yangi usullarni o'rgangan, o'zi ham eng antiqa usullarni kashf etgan va bu izlanishlari oqibatida ko'p yangiliklarni ixtiro qilgan. Uyiga kechikib qaytayotgan o'tkinchi odamlar, shahar ko'chalarini nazorat qiluvchi tungi soqchilar yoki boshpanasi yo'q sayoq odamlar har kuni tunda turlikning ustaxonasi derazasida chiroq yonib turganini, jo'shqin g'ayratli ustaning esa, ustaxona eshigini ichidan zanjirlab, ammo qulog'ini ding qilgan holda o'z shogirdi bilan birgalikda bolg'achasini do'qillatayotganini, nimanidir charxlayotganini, kesayotganini, qayrayotganini, egovlayotganini, yo'nayotganini ko'rganlar. Muhtojlik mehnatni vujudga keltiradi, mehnat oliy bilimni yaratadi, bilimdan esa boylik yuzaga keladi. Ey, chervonlarni shamolga sovuruvchi, Qobilning¹ ishratparast, maishatparast avlodlari, quloq soling! Hattoki nopok maishiy xohishlar ustamiz xayolini bezovta qilib, qalbini g'ulg'ulaga solgan paytlarda ham (odatda bu hol so'qqabosh bandalarda ko'proq uchrab turadi), dili pok odamlarni yo'ldan ozdiruvchi shaytonni xochga cho'qinib daf qilish imkoni bo'lmagan taqdirda, turlik Anso gunoh ishga yetaklamochi bo'lgan shum xayollarni bartaraf qilib, jonjahl bilan bolg'achasini to'qillatganicha, oltin

¹ Qobil – Odam alayhissalomning to'ng'ich o'g'li; u g'ayirlik qilib o'z ukasi Hobilni o'ldirgan.

va kumushlardan eng nafis, bejirim, fusunkor buyumlar yasar va shu yo'l bilan tomirlarida jo'sh urayotgan qaynoq qonini tinchitar ekan. Buning ustiga, turlik Anso quvlik-shumlikni bilmaydigan eng soddadil odam bo'lgan. Birinchi galda, u Xudodan, keyin o'g'rilardan, yana ham ko'proq mansabdorlardan qo'rqqan, lekin har turli mashaqqatlar, bezovtaliklar uni hammasidan ham ko'proq vahimaga solgan. Qo'li ikkita bo'lsa ham, hech qachon bir paytda ikki ish bilan mashg'ul bo'lmagan. U doim xuddi nikohdan o'tayotgan kelinchakdek tortinib, sipolik bilan gapirgan. Garchi ruhoniy otalar, harb ahli va o'zga kazo-kazo zotlar uni donishmand odam deb hisoblashmasa ham, u o'z ona tilini juda puxta bilgan va odamlar bilan hamsuhbat bo'lishni yoqtirgan. Oradan vaqt o'tib, usta bilan tobora yaqinroq muloqotda bo'la boshlagan pariqliklar unga qanday kun kechirmoq lozimligi haqida turfa xil saboqlar berganlar; chunonchi, hayotda mudom o'zi tanlagan yo'ldan borishni va birovlarining ishi uchun bosh qotirib, yo'ldan adashmaslikni, ko'rpaga qarab oyoq uzatishni, hech kimdan pul qarz so'ramaslikni va hech kimga qarz bermaslikni, hamisha qu-loqni ding qilib, sergak bo'lib yashashni, firibgarlarning yolg'on gaplariga uchmaslikni, qanday ish bilan shug'ullanayotgani haqida hech kimga og'zidan gullab qo'yimaslikni, bergan va'dasida qat'iy turishni, hattoki suvni ham bekorga isrof qilib to'kmaslikni, pashsha singari befarosat bo'lmaslikni, o'z tashvishini odamlardan sir tutishni, hamyonini hech kimga

ishonib berib qo'ymaslikni, ko'chada yurganida atrofga olazarak bo'lib qaramaslikni va yasagan buyumlarini ularga sarflagan mehnatidan qimmatroqqa sotishni o'rgatganlar. Mana shu hayotiy donishmandlik qoidalari uning o'z foydasini ko'zlab halol pul topishi uchun zaruriy tajriba orttirishiga imkon bergan. U ana shunday – hech bir kimsaning dilini zarracha og'ritmay yashagan. Metr¹ Ansoning turmush tarzini kuzatgan ko'pchilik odamlar: «Jin ursin, koshkiydi, uning o'rnida men bo'lsam! Buning uchun bir umr Parij ko'chalarida loy kechib yurishga ham rozi bo'lardim», – der ekanlar. Lekin boshqa bir toifa odamlar ham borki, ular hatto Fransiya qiroli bo'lishga ham shaylar! Ey yigit, sen avvalo xudodan o'sha zargar-niki singari qo'l so'ra o'zingga; uning tomirlari bo'rtib chiqqan, zabardast, seryung qo'llari shu qadar chayir bo'lgan ekanki, agar u mushtini tugsa, eng chapdast shogird, hatto ombir bilan ham u mushtni yoya olmas ekan. Aniqki, bunday azamat yigit ushlagan narsasini, agar xohlasa, hech ham changalidan chiqarmaydi. Turlik zargar hatto temirni ham tishlari bilan g'ajib, chaynab yutib yubora olar, oshqozoni o'sha temirni bemalol qabul qilar, ichaklari uni hazm qilib, chiqindisini, yo'lda hech nimaga ziyon-zahmat yetkazmay, tashqariga chiqarib yuborarkan. Turlikning yelkasiga yer kurrasini ko'tartirib qo'ysalar ham qaddi bukilmasdi; qadim zamonda bir majusiy zotga shu vazifa

¹ Metr – ustoz, murabbiy ma'nosini bildiruvchi bu so'z odatda hurmatli kishilar ismi oldiga qo'shib ham aytiladi (*fr.*).

yuklangan ekan, faqat Iso Masih dunyoga kelib, ul zotni bu yukdan ozod qilibdi. Ochig'ini aytadigan bo'lsak, turlik yigit bir butun granitdan bir zarb bilan yo'nib yaratilgan odamlardan edi; bunday odamlar ko'p harakat va ovo-ragarchilik oqibatida yaratilgan shaxslardan afzal bo'ladilar, unday shaxslarning ko'p yerini yamab, tarashlab epaqaga keltiradilar va hamma yog'i yirtiq-yamoq bu kimsalar hech nima-ga yaramaydilar. Bir so'z bilan aytganda, metr Anso naq po'latday toblangan, sheryurak odam bo'lib, ko'zlarining nigohi misoli cho'g' ediki, bu cho'g' oltinni eritib yuborishi ham mumkin edi, agar temirchi o'chog'idagi olovning tafti yetarli darajada issiq bo'lmasa; lekin ustaning nigohi hamma narsaning me'yorini biluvchi parvardigorning xohishiga ko'ra, harir bir nam parda bilan to'silgan ediki, aynan shu parda turlikning jo'shqin hovurini bosib turardi, aks holda, u tevarak-atrofdagi hamma narsani kuydirib kulga aylantirishi mumkin edi. Qani, ayting-chi, yomon yigit ekanmi bizning turlik?

Ezgu fazilatlar sohibi bo'lgan bu zargari-miz hayotini chuqurroq kuzatgan har bir in-son shunday savol berishi aniq: «Nima uchun ustamiz chig'anoq ichidagi shilliq qurt singari so'qqabosh, axir undagi tabiat ato etgan nodir xislatlar har bir go'zal ayol qalbini rom qilishi mumkin edi-ku?» Lekin kaltafahm tanqidchilar dunyoda muhabbat degan bebaho tuyg'u bor-ligini bilmaydilar albatta... Oshiq yigit qaygadir borishi, qayoqdandir qaytib kelishi, nimanidir eshitishi, kimnidir poylashi,

goh sukut saqlashi, goh to'lib-toshib gapirishi, ba'zan g'unajak bo'lib bukilishi yo qaddini g'ozdek adl tutishi, goh terakdek o'sib, goh giyohdek kichrayishi va butunlay ko'rinmay ham qolishi, bironta musiqa asbobini ting'illatib ma'shuqasining ko'nglini ovlashi, tavba qilib, uzr so'rashi, tupkanning tagiga ravona bo'lishi, sevgilisining xohishi bilan, o'lgan-tirilganiga qaramay, qayoqdandir yo'q narsani topib yo'ndirib kelishi, o'g'irda suvni tuyishi, tunda oyga termulib chuqur-chuqur xo'rsinishi, xonimining mushugi va kuchukchasini erkalashi, tanishlari bilan do'st tutinishi, bod kasali bilan og'rigan uning xolasini ko'rgani kirib, hol-ahvol so'rashi va bu kampirga: «O, ko'rinishingiz juda yaxshi, hali siz bizlardan ham uzoq yashaysiz!» – deb uning ko'nglini ko'tarishi; keyin esa, xonimining yaqin qarindoshlari nimalarni yoqtirishini so'rab bilib olishi, hech kimning g'ashiga tegmasligi, idishlardan birontasini sindirib qo'ymasligi, osmondagi oyni olib tushib berishi, qayoqdagi tuturuqsiz gaplarni aytib ezmalik qilishi va safsata sotishi, hech tap tortmay, yonib turgan yong'inni yorib, toshqin suvni kechib o'tishi, hamda ma'shuqasi kiygan liboslardan maroqlanib: «Oh, qanday mo'jizaviy bejirim libos!» yoki «Ah, xonim, bu libos go'zal jamolingizni yana ham ochib yuboribdi, azbaroyi xudo!» deyishi; keyin shu gapini yana ming xil taxlitda qaytarishi lozim. Bulardan tashqari, uning o'zi ham xuddi saroy olifta yigitlari singari, yuz-ko'zini bo'yab, sochini silliq tarab, zebo kiyinib, beayov kinoyaviy hazillar qilishi, shay-

toni lain boshiga solgan barcha musibatlariga yuzida jilva bilan bardosh berishi, qahr-u g'azabini ichiga yutishi, o'jar xulqini jilovlashi lozim. Mahbubasining onasini ham, xolasining qizini ham, uy xodimasini ham sovg'a-salomlar bilan xushlashi, ertalabdan to qorong'u kechgacha xushmuomala bo'lib, ochiq chehra bilan yurishi, yo Tangrim ko'rsatgan yo'ldan borib murodga yetishi, yo shaytonning dumidan tutib jahannamga ketishi kerak. Axir bilasizlar-ku, ayol zotining ko'nglini olish juda og'ir vazifa, – dumini bir likillatadi-yu ketadi-qoladi – hatto aytmaydi ham nega sizdan xafa bo'lganini. Va nihoyat, gapning po'stkallasini aytadigan bo'lsak, tangri xush kayfiyatda bo'lgan chog'ida yaratgan bir ma'suma xilqatni sevib qolgan yigit gapga chechanligi bilan uni o'ziga rom qilishi, atrofida parvona bo'lib, xuddi shoh Dovud singari musiqa kuylari ila sarmast qilishi, ming-minglab do'zaxiy azoblarni boshidan kechirishi, bu xonimning sharafiga, Korinf¹ usulida yasalgan yuzlab hashamatli, jimjimador ustunlar tiklashi, lekin shunga qaramay, agar u o'sha xilqatni bironta arzimas, nihoniy ishda ranjitib qo'ygudek bo'lsa, holbuk, xonimning o'zi ham nima istashini bilmaydi va lekin o'sha narsani bilishni oshiq yigitidan talab qiladi, shu zahoti xuddi moxovdan hazar qilgandek qochib ketadi. Xonim o'zicha haq – hech nima qilolmaysan. Ba'zi bir erkaklar bunday holat-

¹ Korinf – Yunonistondagi qadimiy shahar, antik davrda u o'zining muhtasham me'moriy binolari bilan dovrug qozongan.

da g'amga botadilar, g'azablanadilar va telba bo'la boshlaydilarki, buni tasavvur qilish ham qiyin. Ayrim yigitlar shu choti ayri xotinni deb hatto o'z jonlariga qasd qiladilar. Erkak kishi ana shu jihatlari bilan hayvondan farq qiladi, zero hayvon hech qachon bebaxt sevgi tufayli jinni bo'lmaydi. Mana sizga hayvonlarda qalb yo'qligini bildiruvchi aniq dalil. Oshiq yigit eplay olmaydigan hunar bo'lmasligi kerak dunyoda: u masxaraboz ham, askar ham, tovlamachi ham, hazilkash ham, ko'zboyloqchi ham va yana qiziqchi, qirol, dangasa, rohib, laqma, mayxo'r, firibgar, maqtanchoq, chaqinchi, saf-sataboz, tuturuqsiz, shilqim, pulni po'choqday sovuruvchi, ovsar, devona bo'la olishi kerak; Iso payg'ambar bunday amallardan voz kechgan, donishmand kimsalar undan ibrat olib, ishq-muhabbatdan yuz o'girmoqdalar. Bunday mashg'ulotga mukkasidan ketgan kalondimog' erkaklar birinchi navbatda vaqtlarini, jonlari va qonlarini ishq yo'lida qurbon, dil rozlarini oshkor qilishga majbur bo'ladilar, yuraklari, qablari, fikr-xayollari haqida gapirmay qo'ya-qolaylik – ularga haddan ziyod o'ch bo'ladi xotin zoti. Ular bir-birlari bilan chakaklari tinmay valdirasharkan, shunday deydilar: «Agar erkak butun borini menga baxshida qilmas ekan, demak, u menga hech nima bermadi, deb hisoblayman». Yana shunaqangi badqovoq xonimlar bo'ladiki, oshiq yigitlari ularning istaklarini o'lib-tirilib, jonlarini jabborga berib bajargan bo'lsalar ham, qovoqlaridan qor yog'ib: «Bo xudo, shuyam ish bo'ptimi, muncha lallayma-

sal» – deb burunlarini jiyiradilar. Sababki, bu beshafqat, kalondimog‘ xotinlar hech qachon hech nimaga qoniqmaydilar, doim nimanidir qo‘msaganlari-qo‘msagan... Bu qonun Parij shahrida bo‘lgan, bor va bundan keyin ham kuchini yo‘qotmaydi, zero ayol zotidan bo‘lgan chaqaloqlarni cho‘qintirayotganlarida ularni faqat Parijdagina namakob suvda cho‘miltiradilar. Mana shuning uchun ham Parij ayollari tug‘ilgan kunlaridan boshlab mug‘ombir, shayton bo‘lib o‘sadilar.

Metr Anso esa o‘z ustaxonasidagi lovullab yonib turgan o‘chog‘ida kumush eritar, oltinga zarb qilar ekan, yasayotgan bu buyumida kishi ko‘zini qamashtirishga qodir bo‘lgan ohanjamali bezaklarni ishlab, muhabbatning afsonaviy naqshlarini aks ettirmoqchi bo‘lar, ammo buning uchun usta yuragining qo‘ri yetarli darajada alanganmasdi, zero u hech yerdan jonli nusxa topolmayotgan edi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bizga osmondan qovurilgan kakliklar yog‘ilib tushmaganiday, iffatli qizlar ham Parijda, hech narsadan hech narsa yo‘q, erkaklarning quchog‘iga tashlanmaydilar, hattoki ular qirol zargari bo‘lganlarida ham. Bizning turlik zargar esa, ilgari aytib o‘tganimizdek, nafaqat qirol zargari, yana o‘zga fazilat sohibi – axloqan pok inson edi. Lekin metr Anso, qimmatbaho buyumlar xarid qilgani do‘koniga kelgan oliynasab va boyvuchcha xonimlardagi saxiy tabiat ato etgan barcha latofatli, malohatli xislatlarni ko‘ra olmasdi. Do‘konga kelgan bu xonimlar sho‘x-sho‘x chaqchaqlashishar, xa-

rid qilayotgan buyumlari narxini pasaytirmoqchi bo'lib, zargarga hazil-huzul gap qotishar, xushomad qilib uni iydirmoqchi bo'lishardi; ko'pincha u uyiga qayta turib, shular haqida shoirona teran xayolga botar, o'zini xuddi uyasi yo'q kakku qushdek his qilardi. Shunda u o'ziga-o'zi bunday derdi: «Bas, endi uylanmasam bo'lmaydi, xotin uyni supurib-sidiradi, ovqat pishiradi, kiyim-kechakni yamaydi, pokiza saqlaydi, sho'x-sho'x qo'shiqlar aytadi, u mabodo biron-bir taqinchoqni yoqtirib qolsa, hamma eri bor xotinlar singari, menga tantiqlik qilib: «Voy, jonginam, manavini qara, biram chiroyli ekanmi?» – deydi. Bu gapni eshitgan qo'shnilarim xotinimni darrov tanishadi va men haqimda: «Qanday baxtiyor-a, bu yigit!» – deyishadi ichlarida. Shunda zargar o'zi orzu qilgan ishlarini xayolida birin-ketin amalga oshira boshlaydi: mana, u nikohdan o'tib uylandi, suyukli xotinini bag'riga bosib erkaladi, uni zeb-ziynatli liboslar bilan yasantirdi, unga tilla zanjir sovg'a qildi, yostiqdoshining boshidan to oyog'igacha – butun vujudini ardoqlab sevdi, o'zining shaxsiy jamg'armasini istisno qilganda, uyidagi jamiki ro'zg'or va xo'jalik ishlari va ashyolarini xotining ixtiyoriga topshirdi. U xotinini bolaxonadagi o'z yotoqxonasiga joylashtiradi. Bu xonaning derazalari chiroyli, oynaband, yeriga sholcha to'shalgan, devoriga gulqog'ozlar yopishtirilgan; bu xonaga Anso ko'rkam javon va atrofiga sariq rangli parda tortilgan, oyoqlari jimjimador juda keng karavot olib chiqib qo'yadi; chiroyli ko'zgular sotib oladi... Zargarimiz

o'z uyi eshigiga yaqin kelib qolganida, tasavvuridagi xotinidan o'ntacha farzand ko'rgan edi. Evoh, xotin ham, bolalar ham g'oyib bo'lishdi bolg'achaning to'qillashidan; Anso esa, o'zi ham sezmay, xayolida orziqib kutgan sharpalarni g'oyat antiqa chizgilarda aks ettirar, ishqiy armonlarini esa, xaridor xonimlarning ko'ngliga xush yoquvchi ajoyib suratlar bilan ifodalardi; xaridor xonimlar-ku, bu suratlar zamirida qancha xotin va nechta bola yashirib yotganidan bexabar edilar. Usta zargarimiz o'z iste'dodini qancha ko'p kamolga yetkazgan sari, o'zi butun dardini ichiga yutib shuncha ko'proq yovvoyilashib borardi. O'shanda agar Tangri shafqat qilmaganida, bu dunyodan u muhabbat lazzatidan bahramand bo'lmay o'tib ketgan bo'lardi, vale boqiy dunyoda u albatta chin muhabbat mevasini tatib ko'rgay. Yuksak fazilatlar sohibi bo'lmish ulug' inson Aflotun shunday saboq beradi. Hayhot, biz bu qissamizga turli xil mulohazalarni tiqishtiraversak, uni ortiqcha chekinishlar, keraksiz sharhlar bilan semirtirgan bo'lamiz; odatda, iymoni sayoz odamlar, bizdan o'z ijodimizni aynan shunday chekinishlar, keraksiz sharhlar bilan bejashni talab qiladilar, xuddi qip-yalang'och bo'lib dingillab, chopqillab yurishni xohlagan bolakayni yo'rgaklab qo'yishgandek. Iloyo, o'sha safsataboz mahmadonalarga iblis o'zining qizdirilgan panshaxasi bilan uchta huqna¹ qo'ysin. Mana endi, hikoyamizni bemalol boshlasak bo'ladi.

¹ Huqna – klizma.

Metr Anso qirq bir yoshga qadam qoʻygan paytida ajib bir voqeani boshidan kechirdi. Xushhavo kunlarning birida u Senaning soʻl sohili-da uylanish haqida teran xayolga berilib sayr qilib yurarkan, Prichetnik dalasi deb atalgan va Sen-Jermen abbatligining (dorilfununning emas) mulki hisoblangan dalaga borib qolgani-ni sezmay qoldi. Turlik usta sayr qilib yurib, bir maysazor oʻtloqda koʻrdi oʻzini. Bu yerda u nihoyatda gʻaribona kiyingan bir qizni uchratdi; u qiz Ansoni shaharning aslzoda kishilaridan deb oʻylab, unga taʼzim qildi va: «Xudo sizni oʻz panohida asrasin, monsenyor», – dedi. Uning qizlargagina xos boʻlgan nazokatli ovozi shunday iltifotli saxovat bilan yangradiki, samoviy kuyni eslatuvchi bu nafis ovoz zargarni oʻziga maftun qildi-yu, bu qizni u chin yurakdan sevib qoldi – oʻsha paytda hamma narsa, ayniqsa, mudom unga tinchlik bermayotgan «qachon uylanarkanman», degan shirin orzu yoʻlini ravon, mushkulini oson qilgandi. Garchi u hozir shunday xayol ogʻushida boʻlsa ham, baribir, qizning yonidan oʻtib nari ketdi va burilib orqasiga qaytishga yuragi jurʼat etmadi, zero belidagi kamarini yechib rohatlanishdan koʻra, shu kamaridan sirtmoq yasab oʻzini osishni afzal biluvchi iboli bokira qizdek tortinchoq edi u. Mana, nihoyat, metr Anso u qizdan kamon oʻqi uchib bora oladigan yergacha uzoqlashganida, oʻn yil burun zargarlar ustaxonasiga ishga qabul qilingan, keyin Parijning badavlat fuqarosi boʻlib, foniy hayot yoʻlining yarmini bosib oʻtgan odam ayol kishining jamoliga nigoh tashlashga

haqli emasmi axir, xususan, taxayyulidagi orzu-istaklari jo'sh urib unga tinchlik bermayotgan chog'da, deb juda to'g'ri va qat'iy qarorga keldi u. Mana, shartta orqasiga burilib, qiz turgan yerga qaytib bordi va jur'at etib uning yuziga qaradi... Qiz oriq sigirining bo'yniga bog'langan arqonni tortar, sigir esa, ariq bo'yidagi o'tlarni chimdib yeyish bilan ovora edi.

– Yaxshi qiz, – dedi Anso, – siz juda qashshoq bo'lsangiz kerak, qarasam, hatto yakshanba kuni ham qo'lingiz orom olmayapti. Nahotki, qamoqqa tushishdan qo'rqmasangiz?

– Janobim, – dedi qiz ko'zlarini yerga tikkancha, – nega qo'rqarkanman, axir men abbatlikning mulkiman-ku. Muhtaram abbat hazratlari kechki ibodatdan keyin sigirni dalaga olib chiqib o'tlatishimizga ruxsat berganlar.

– Bundan chiqdi, sigir sizning joningizdan ham aziz ekan-da?

– Gapingiz to'g'ri, janobim, bizni yedirib-ichiruvchi yagona boquvchimiz shu sigir.

– Sizni bunday abgor ahvolda ko'rib hayron qolyapman! Kiyimingiz juldur-juldur... eskirib uvada bo'lib ketgan, hatto yakshanba kuni ham dalada yalang oyoq yuribsiz, vaholan-ki, siz shunday bebaho xazinalar sohibasisiz-ki, abbatlikka qarashli butun mulkni aylanib chiqqanda ham bunday boylikni topib bo'lmaydi. Shahar yigitlari sizga muhabbat izhor qilgani orqangizdan ergashib, jig'ingizga tegisha-yotgandir?

– Hecham, janobim. Axir men abbatlikning mulkiman-ku, – deb yana takrorladi qiz va chap

qo'liga taqilgan temir halqani zargarga ko'rsatdi; bunaqa halqa dalada o'tlab yurgan uy hayvonlari bo'yniga osiladi, faqat qizning halqasida qo'ng'iroqcha yo'q edi.

Dilbar qiz ustaga ko'z tashladi, uning ko'zlari-dagi o'kinch alomatini ko'rib, Anso hayrat og'ushida to'xtab qoldi. Ma'lumki, eng kuchli ruhiy iztirob yurakdan yurakka ko'z orqali yetib boradi.

– Bu nima? – deb so'radi Anso halqaga qo'lini tekkizib, – u hamma gapni qizning o'zidan so'rab bilmoqchi edi. Garchi bu halqadagi abbatlikning tug'rosi ancha bo'rtiq holda bo'lsa ham, zargar uni ko'zdan kechirishni istamadi.

– Janobim, men abbatlik mulki – qulning qiziman, shu sababli, menga uylangan har qanday odam, hatto u Parij fuqarosi bo'lsa ham, qulga aylanadi. Ming urinsin, u joni va tani bilan abbatlikning mulki bo'ladi-yu, mabodo o'sha odam nikohdan o'tmay turib men bilan qovushgudek bo'lsa, o'shanda ham bolalarimiz abbatlik mulki bo'lib qoladilar. Shuning uchun ham hamma mendan yuz o'girgay, men dalada yolg'iz qolib ketgan bir jonivordek tashlandiq qizman. Hammadan ko'proq menga alam qiladigani shuki, abbatlik piri buzurgi ko'ngli xohlagan paytda meni o'zimga o'xshagan birona qulga qo'shib qo'yadi. Hattoki hozirgidek juldurvoqi va badbashara bo'lmaganimda ham, bordi-yu, biron kishi meni chin dildan sevib qolgudek bo'lsa, baribir, u qo'limdagi mana-vi halqani ko'riboq darrov xuddi qora o'latga yo'liqishdan qo'rqqanday, tiraqaylab qochib ketadi.

Shunday deb qiz yana sigirining arqonidan tortdi.

– Yoshingiz nechada? – so‘radi zargar.

– Bilmayman, janobim, lekin xo‘jayinimiz monsenyor piri buzurg buni yozib qo‘ygan.

Bunday shafqatsizlik qashshoqlikning achchiq azobini tortgan ustamizning rahmini keltirdi. U qiz bilan yonma-yon yurib borarkan, ikkovlari ham teran sukutga tolgan holda bir jilg‘a bo‘yiga yetdilar.

Zargar qizning chiroyli chehrasiga, uning sholg‘omdek qizarib ketgan qo‘llariga, ulug‘vor qaddi-qomatiga, uning changga botgan, go‘yo bibi Maryam haykali uchun tarashlangan oyoqlariga maroqlanib qarardi. Qizning qomati va jamolidagi bunday nafis, nozik belgilar uni o‘ziga maftun qilgan edi – Anso Parij shahrining hamda dehqon qizlarning himoyachisi avliyo ayol Jenevyevaning tirik portreti qarshisida turgandek his qilardi o‘zini. Shuni bilingki, qalbi ham, niyatlari ham pok bo‘lgan ma‘sum zargarimiz bu qizning maftunkorona iymanib, ko‘kragini dag‘al ro‘moli bilan yashirayotganini kuzatarkan, uning qordek oppoq siynasi latofatini aniq tasavvur qilardiki, g‘arq pishgan olmani ko‘rgan maktab bolasi havas bilan tamshanganidek, ustani ham ro‘mol panasidagi siynalar shunday o‘ziga rom qilgan edi.

Yana shuni ham aytib o‘tish joizki, zargarining ko‘ziga tashlangan bu qizdagi barcha jihatlari bebaho xazina edi, rohiblarga tegishli bo‘lgan jamiki mulk singari. Bu qiz shunday noyob gul ediki, unga qo‘l uchini tekkizish qan-

chali qat'iy taqiqlangan bo'lsa, Anso ham shunchalik intizor edi qaynoq sevgiga, yuragi esa hayajonlanganidan «gurs-gurs» tepardi.

– Sigiringiz juda ham yaxshi ekan, – dedi u.

– Sut ichishni xohlaysizmi? – dedi dehqon qiz. – Bu yil may oyi issiq keldi, shaharga hali ancha uzoq.

Chindan ham beg'ubor osmonda qatra bulut ko'rinmas, tevarak-atrof xuddi temirchi-ning o'txonasi yanglig' jazirama issiq edi. Ham-mayoqdan – yaproqlardan, ob-havodan, yigit-u qizlardan, yoshlik ifori ufurib turardi. Hamma narsa ko'kargan, gullagan, muattar hid taratar-di. Qizning hech qanday maqsadni ko'zlamay, soddadillik bilan qilgan taklifi (zero, qizning bu ikki og'iz so'zidagi g'ayrita'rif jozibani, uning uyatchan nigohini tog'-tog' oltinga ham topib bo'lmasdi) ustaning yuragini eritib yubordi, shunda u bu qullikdagi qizni butun Parij poyi-ga bosh urib sajda qiladigan qirolicha qiyofasi-da ko'rishni xohladi.

– E, yo'q, azizam, menga sut emas, siz ke-raksiz, men sizni sotib olish uchun rozilik so'ramoqchiman.

– Buning iloji yo'q. Men to o'la-o'lgunimcha abbatlikning mulki bo'lib yashasam kerak. Biz-lar bu yerda juda ko'p yillardan beri yashay-miz, bobolarimiz ham shu yerda yashagan, nevaralari ham shu yerda kun kechirurlar. Mening peshanamga ham, fazandlarim peshana-siga ham baxtiqaro ajdodlarimga o'xshab, abbatlik dargohida qul bo'lib yashab dunyodan o'tib ketish yozilgan, zero piri buzurg hazrat-

larining o'zi ham biz qullaridan nasl qolishini talab qiladi.

– Iye! – deb yubordi turlik. – Nahotki, bu maftunkor ko'zlaringizga shaydo bo'lgan biron-ta azamat, xuddi men qirolidan o'z ozodligimni sotib olganimday, sizni ozodlikka chiqarish uchun pul to'lashga jur'at etmagan bo'lsa?

– Ozodlik juda qimmat turadi, shu sababdan, meni yoqtirib qolgan odamlar bir ko'rinish beradilar-u, darrov qochib qoladilar.

– O'z sevgan yigitingiz bilan bu yerdan biron uchqur arg'umoqqa minib qochib ketish haqida hech o'ylamadingizmi?

– O, janobim, agar meni tutib olishsa, darhol dorga osadilar, sevgan yorim, hatto u aslzoda bo'lganida ham, butun yer-suvi, mol-mulkidan mosuvo bo'ladi. Arzimayman men bunday katta fidoyilikka, bilingki, abbatlikning qo'li juda uzun, bu dargohdan har qanday abjir odam ham qochib keta olmaydi. Men mana shu alfozda ming-ming riyozatlar chekib, xudoga sig'inib yashab kelyapman, demak, peshanam sho'r ekan.

– Otangiz nima ish qiladi?

– U abbatlikning tokzorida ishlaydi.

– Onangiz-chi?

– Onam kir yuvadi.

– Ismingiz nima sizning?

– Mening ismim yo'q, muhtaram janobim. Otamni Eten deb cho'qintirishgan, onamning ismi Etenna, men bo'lsam kamtarin cho'ringiz Tenettaman.

– Azizam mening! – dedi metr Anso. – Men umrimda hech qachon hech bir ayolni yoqtirma-

ganman, lekin sizni sevib qoldim, aminmanki, qalbingiz buyuk xazinalar maskanidir. Keyingi paytlarda men o'zimga umr yo'ldosh tanlashga qat'iy ahd qilib yurgan edim; hamonki siz shu muborak damda ko'z oldimda namoyon bo'lgan ekansiz, buni men ilohiy dasturilamal deb bila-man. Agar mendan hazar qilmasangiz, iltimos, samimiy do'stingiz deb biling meni.

Qiz yana ko'zlarini yerga qadadi. Turlik zargar bu so'zlarini qat'iy ishonch bilan sidqi-dildan gapirdiki, Tenettaning ko'zlari g'ilt-g'ilt yosh bo'ldi.

– Yo'q, janob, – deb javob qildi u, – agar ayt-ganingizga rozi bo'lsam, umrbod g'am-hasrat-da baxti qaro bo'lib yashashingizga sababchi bo'laman. Qashshoq cho'ri qizga ikki og'iz shi-rin so'zning o'zi kifoya.

– Siz, bo'tam, kim bilan uchrashganingizni bilmaysiz hali!

Shundan so'ng, turlik cho'qinib olib, qo'llari-ni qovushtirganicha dedi:

– Barcha zargarlarning homiysi avliyo Elua-ga qasamyod qilib aytamanki, men oliy nav kumushdan g'oyatda ko'rkam ikkita tokcha yasab, ularni san'atim gullari bilan bezanti-raman. Keyin bitta tokchani qimmatli zavjai muhtaramamni qullikdan ozod etgani uchun minnatdorchilik yuzasidan mo'tabar sohibamiz bibi Maryamga bag'ishlayman, bu yerda tur-gan qul qiz Tenettani ozodlikka chiqarishda qilgan harakatlarim samara berganida, yuqori-da nomi zikr etilgan muqaddas himoyachimga, iltijolarimni qabul aylagani uchun, ikkinchi

tokchani baxshida qilaman. Bundan tashqari, pok dilim haqqi astoydil qasam ichib aytaman-ki, bu ko'zlagan ishimni ro'yobga chiqarishda hech nimamni ayamayman va to umrimning oxirigacha tinchimayman. Bilaman, xudo iltijolarimni eshitadi... Siz-chi, jonginam? – dedi metr Anso qizga o'girilib.

– Janobim, sigirim qochib ketdi, tutishga yordam bering! – dedi Tenetta yum-yum yig'lab va do'stining oyog'iga bosh urib. – Sizni to o'la-o'lgunimcha sevaman, lekin keching ichgan qasamingizdan.

– Yuring, sigirni tutaylik, – deb javob qildi metr Anso tiz cho'kkan qizni ko'tararkan, lekin hali uni o'pishga yuragi betlamadi, garchi qizning ko'ngli shuni xohlab turgan bo'lsa ham.

– Endi sigirim qochib ketgani uchun meni kaltaklashadi, – dedi u.

Ana shunda bizning zargarimiz ishqiy kechinmalarga zarracha ham parvo qilmagan yaramas sigirning orqasidan quva ketdi. Oradan sal vaqt o'tmay, turlik bu sarkash hayvonning shoxlaridan mahkam changallab oldi. Agar yana bir tixirlik qiladigan bo'lsa, uni xuddi bir siqim poxoldek osmonga otishdan ham qaytmasdi.

– Yaxshi qoling, tasadduq. Agar shaharga borgudek bo'lsangiz menikiga ham kiring – uyim avliyo Le cherkovining yonginasida. Ismim metr Anso. Men marhamatli qirolimizning zargariman. Siz kelasi yakshanba kuni shu dalada bo'lishga so'z bering; men albatta kelaman, momaqaldiroq gumburlab, jala quyib tursa ham.

– O, marhamatli xojam! Agar zarur bo'lsa, chetan devordan ham oshib o'taman. Men minnatdorchilik yuzasidan, sizdan hech nima talab qilmay, zarracha ham ziyon-zahmat yetkazmay, hattoki boqiy dunyodagi rohat-farog'atli hayotimdan voz kechib bo'lsa ham, sizniki bo'lishdan qaytmasdim. Lekin ungacha men sizning haqqingizga parvardigorga astoydil tinmay ibodat qilgayman.

Shundan keyin qiz ustaning orqasidan kuzatarkan, turgan yerida xuddi metin ustundek qimirlamay turib qoldi. Usta esa asta-asta odim otib uzoqlashib borarkan, sohibjamol qizni yana bir marta ko'rish uchun o'qtin-o'qtin orqasiga o'girilib qarardi. Metr Anso juda uzoqlashib ketib, oxiri ko'rinmay qolganida ham qiz hanuz turgan yeridan jilmadi, kech kirib qorong'i tushganda ham teran xayolga berilib daladan ketmadi. U ne hol yuz berganini hech tushunmas, nahotki shularning hammasini tushimda ko'rgan bo'lsam, deb hayron bo'lardi. U uyga yarim kechada yetib bordi va kech qaytгани uchun uni kaltaklashdi, lekin qiz kaltak zarbini hech his qilmadi.

Saxovatpesha Ansoning uyqisi qochib, ishtahasi bo'g'ildi, hatto ustaxonani yopib ishlamay qo'ydi. U Tenettani shunday zo'r ishtiyoq bilan sevib qolgan ediki, faqat shu qiz haqida o'ylar, hamma yerda faqat uni ko'rar va dunyodagi hamma narsa zargarga Tenetta bo'lib ko'rinardi. Ertasi kuni ertalab turlik Anso piri buzurg hazratlari bilan suhbatlashgani yuragini hovuchlab abbatlik sari yo'l oldi. Lekin yo'lda

ketayotganida u, shoshqaloqlik qilmasligim, ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishim kerak, degan qarorga keldi-da, eng avval qirol a'yonlaridan birontasiga iltijo qilib, uning shafosatiga suyanmoqchi bo'ldi va yana Parijga qaytdi – o'sha paytda qirol saroyi Parijda edi. Zargarlar korxonasining taniqli ustasi bo'lmish Ansoning el hurmatiga musharraf bo'lganini, yasagan nafis va nodir buyumlari hamda o'zining boadab muomalasi bilan butun shahar ahli hurmatini qozonganini yaxshi bilgan qirol saroyining bosh noziri bu oshiq yigitni o'z himoyatiga olishga so'z berdi. Anso bu mansabdorning iltimosiga ko'ra, bundan sal oldinroq shirinliklar uchun mo'ljallangan, hammayog'i qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bir tilla quticha – zargarlik san'ati mo'jizasini yasab bergan edi. Bosh nozir bu qutichani saroy xonimlaridan biriga tuhfa qilgan edi. Mana, u metr Ansoga yo'rg'a otni, o'zi uchun esa o'zining otini egarlashni buyurdi va ikkovlari alhol abbatlik tomon yo'l olishdi. Bu aslzoda a'yon endilikda to'qson uch yoshga kirgan piri buzurg hazratlari Hugon de Senek-terning qabuliga kirish uchun ijozat oldi va o'z taqdirining qanday hal bo'lishini hayajonlanib kutayotgan zargar bilan birgalikda zalga kirdi-da, piri buzurg Hugonga murojaat qilib dedi:

– Hazratim, oddiygina bir iltimos bilan kelgan edik, bir yaxshilik qilsangiz va shu iltimosimizni eshitishdan oldin uni bajarishga so'z bersangiz.

Lekin abbat bosh chayqab qo'yib, a'yonga bunday javob qildi:

– Agar shunday qilsam, cherkov nizomiga sodiqligimga xiyonat qilgan bo‘laman.

– Siz oldin gapimni eshiting, hazratim, – dedi aslzoda a‘yon, – bizning mana bu saroy zargarimiz bir qizni sevib qolib, ishq alangasida yonmoqda; shunga ko‘ra, kamina siz hazratimdan o‘shal qizni ozodlikka chiqarishingizni iltimos qilaman, o‘zim esam, sizning har qanday istagingizni so‘zsiz bajarishga so‘z beraman.

– U qaysi qiz ekan? – so‘radi abbat ustadan.

– Uning ismi Tenetta, – dedi zargar tortinchoqlik bilan.

– Shunaqa deng! – dedi qariya Hugon jilmayib. – Qarmog‘imizga shunday baliq ilinibdi, demak, xo‘ragimiz chakki emas ekan-da. Va lekin bu – juda jiddiy masala, bir o‘zim hal qila olmayman uni.

– Gapingizning ma‘nosini tushunib turibman, avliyo ota, – dedi a‘yon qovoq solib.

– O, yaxshi yigit, – dedi piri buzurg, – u qiz qancha turishini bilasizmi?

Shunday deb, u kotibiga Tenettani bu yerga boshlab kelishni, lekin qizning husn-jamolini mehmonlarga bo‘rttirib ko‘rsatish uchun, uni yuvib-tarab yasantirishni buyurdi.

– Muhabbatingiz xavf ostida, – dedi aslzoda a‘yon zargarni chekkaroqqa boshlab borib. – Voz kecha qoling bu niyatingizdan, axir siz xohlagan yeringizda, hatto qirol saroyida ham aslzoda kishilar nasabidan bo‘lgan va siz bilan turmush qurishga jon-jon deb rozi bo‘ladigan go‘zal, navnihol ayollarni uchratishingiz mumkin-ku. Qolaversa, qirolimizning o‘zi sizning dvoryanlardek yer-mulk

sohibi bo'lishingizga ko'maklashajak, ana unda avlodlaringiz ham mavridi kelganda akobir zotlar tabaasida bo'lurlar. Nima, yangi oliyjanob kishilar avlodining asoschisi bo'lishingizga oltinlaringiz yetmaydimi?

– Men bunday qilolmayman, – dedi Anso, – so'z berganman.

– Unda, o'sha dilbaringizni nima qilib bo'lsa ham sotib oling. Bilaman, rohib ahli pulni ko'rsa hamma narsaga rozi bo'ladi.

– Hazratim, – dedi usta yana piri buzurg qoshiga yaqin borib. – Sizga ushbu zamindagi bandalarga xudoning oliy marhamatini ulashish vakolati berilganki, ul ilohiy marhamat jamiki mazlum, baxti qaro kishilarga atalgandir va bu ilohiy marhamat bizning g'am-hasratlarimizni bartaraf qilishga qodir bo'lgan mislsiz rahmshafqat xazinasidir. Men kunduzgi va tungi ibodatlarimda ezgu so'zlar bilan mudom sizni xotirlagayman va sizning saxovatingiz tufayli o'z baxtinga erishganimni hech qachon unutmasmen, agar siz yuqorida nomi zikr etilgan qizni qonuniy nikoh o'qitib, menga turmushga berib, kaminaga saodat baxsh etishga va bizlardan dunyoga kelgan bolalarni o'zingizning qullaringiz deb hisoblamaslikka rozi bo'lsangiz. Bu qilgan yaxshiligingiz uchun men sizga hammayog'i oltin bezaklar, qimmatbaho toshlar, qanotli farishtalar bilan bezatilgan, butun xristian olamida yakka-yu yagona ajib ehsondon¹ yasab beraman. Hech yerda

¹ Ehsondon – monastir va cherkovlarda qayiqcha shaklidagi quti, unda zaxiradagi muqaddas non va vino olib yuriladi; cho'qintirilayotgan nasroniylarga shu non va vinodan beriladi.

tengi yo'q bu ehsondon ko'zingizni quvontiradi va mehrobingiz shon-shuhratini olamga shunday yoyadiki, xudojo'y shaharliklar ushbu abbatlikni ziyorat qilgani gala-gala bo'lib kela boshlaydilar, hattoki o'zga yurtli mashhur kishilar ham muhtasham ehsondonni o'z ko'zlari bilan ko'rish ishtiyoqida dargohingizga ziyoratga keladilar.

– Bo'tam, – deb javob qildi piri buzurg, – siz telba bo'lib qolganga o'xshaysiz! Hamonki siz bu qizni xotin qilib olmoqchi ekansiz, unda butun mol-davlatiingiz ham, o'zingiz ham abbatlik kapituli¹ mulkiga aylanursiz.

– Ha, hazratim, bu sho'rpeshana qizga bo'lgan muhabbatim telba qilib qo'ydi meni. U qizning jismoniy kamolotidan ham ko'ra uning g'aribona kun kechirishi va qalbi pok nasroniy qiz ekanligi ko'proq rahmimni keltirdi. Lekin hammadan ko'proq, – deb ko'zlarida g'ilt-g'ilt yosh bilan gapini davom ettirdi turlik, – sizning badqahrligingiz meni hayratga solmoqdaki, bu haqda yuzingizga aytishga jur'at etdim, taqdirimni hal qilish sizning ixtiyoringizda ekanligini bilsam ham. Ha, hazratim, men qonunni bilaman. Qisqasi, agar mening mol-davlatim sizning mulkingizga, o'zim sizning qulingizga aylanadigan bo'lsam, agar uy-joyimdan, shahar fuqarosi huquqidan mahrum bo'ladigan bo'lsam, shunda ham men o'z mehnatim va bilimim tufayli erishgan davlatimni o'zimda saqlab qolaman, o'sha davlatim mana bu yerda, – dedi u qo'lini peshanasiga tekkizib. – Unga xudodan va mening o'zimdan boshqa hech bir zot

¹ Kapitul – monastir ruhoniylari kengashi.

egalik qila olmaydi. Binobarin, mening miyamda pinhona saqlanayotgan bo'lg'usi ijodiy ishlarimni sotib olishga butun abbatligingiz jamg'argan pullar ham yetmaydi. Bizning hammamiz – mening jismim, mening xotinim, mening bolalarim sizniki bo'ladi, vale mening aqliy mulkinga egalik qilish uchun hech nima va hech kim, hattoki qiynoqlar ham sizga huquq berolmaydi, zero men eng metin temirdan ham baquvvatroqman va azobim qancha zo'raysa, men shuncha qanoatliroq bo'laman.

Metr Anso gapini aytib bo'ldi; bu asnoda piri buzurg bu arzgo'yning oltin tangalarini abbatlik foydasiga o'zlashtirish haqida o'ylarkan, zargarning aytayotgan gaplariga uncha parvo qilmadi. Buni ko'rgan Ansoning g'azabi qaynab ketdi va jahl ustida emandan yasalgan ma'ruza minbariga bir musht tushirgan edi, u xuddi bolg'adan zarb yegandek parcha-parcha bo'lib ketdi.

– Mana, hazratim, yaqinda siz ana shu xizmatkorga ega bo'lasiz va beqiyos nodir buyumlar yaratuvchi usta sizning qulingizga aylanadi.

– Bo'tam, – javob qildi piri buzurg, – siz mening minbarimni parchaladingiz va dilimni nohaq og'ritib yengiltaklik qildingiz. U qiz menga emas, abbatlikka tegishli. Men mo'tabar monastirimiz qonun va udumlarini muhofaza qiluvchi sodiq xizmatkorman, xolos. Bu ayoldan ozod bolalar tug'ilishiga rozilik berishimdan oldin, Parvardigorimning va abbatlikning roziligini olishim kerak. Holbuk, monastirimiz bu yerda qad ko'targan paytdan va unda rohiblar, xizmatkor qullar paydo bo'lgandan beri, id

est¹ qadim-qadim zamondan beri hech qachon shahar fuqarosi qul dehqon ayolga uylanib, abbatlikning quliga aylanmagan. Shunga ko'ra, qonunga amal qilish, itoat etish, ishonish lozim, faqat shundagina uning qudrati zaiflashmaydi va toptalib oyoq osti bo'lmaydi, aks holda minglab falokatlar sodir bo'lishi mumkin; sizning eng noyob, eng bebaho ehsondonlaringizdan ko'ra davlatga va abbatlikka shu muhimroq; shuni bilingki, bizda har qanday qimmatbaho buyumlarni xarid qilishga ham yetadigan sarmoya bor va hech qanday tog'-tog' xazinalar ham bizning udumlarimiz va qonunlarimizni o'zgartira olmaydi. Kamina saroy nozirini shohidlikka da'vat etaman, zero u o'z amr-farmonlarining mudom buzilmay kuchda qolishi uchun kun uzukun kurashib kelayotgan qirol a'lo hazratlarining jamiki amallaridan boxabardir.

– Niyati menga so'z bermaslik, – deb g'o'ldirab qo'ydi saroy a'yoni.

Qonunlarni uncha chuqur idrok qila olmagan ustaning ko'ngli cho'kib ketdi. Shu mahal bu yerga Tenetta kirib keldi, u serg'ayrat uy bekasi tomonidan rosa ishqalab tozalangan kumush lagandek chaqnab turardi: uning sochi chiroyli qilib taralgan, egniga oq jun ko'ylak kiyib, beliga havorang belbog' boylagan, oyog'iga chiroyli tufli, oq paypoq kiygan edi – xullas, u malikalardek go'zal va muomalada shunday xush mu-lozamat ediki, zargarimiz uni ko'rib, hayratdan hushini yo'qotayozdi, hatto saroy a'yoni ham umrida hech qachon bunday barkamol go'zal-

¹ id est – ya'ni (*lot.*).

likni ko'rmaganligini e'tirof etdi. Keyin a'yon bu qizning nigohi sho'rlik ustaga turli xil xavf tug'dirishi mumkinligini o'ylab, uni shosha-pisha shaharga olib ketdi va yo'l-yo'lakay, siz bu niyatingizni juda puxta o'ylab ko'rishingiz kerak, negaki, piri buzurg shahar boyonlari va aslzodalarini qarmoqqa ilintiruvchi bunday xo'rakni hech qachon qo'ldan chiqarmaydigan-ga o'xshaydi, deb maslahat berdi. Ha, aytgani to'g'ri chiqdi, kapitul sho'rpeshana oshiq yigit-ga o'z qarorini bildirdi: «Agar Tenettaga uylan-sangiz, butun mol-davlatigingizni, uyingizni abbatlik foydasiga topshirishingiz, o'zingizni ham, ushbu nikohingizdan tug'ilgan bolalaringizni ham qullar deb tan olishingizga to'g'ri keladi». Lekin piri buzurg alohida marhamat ko'rsa-tib, Ansoning uyidagi hamma boyliklar abbatlik mulki sifatida ro'yxatga olinishi va maxsus majburiyatga ko'ra, usta har yili uy solig'ini to'lab turishi sharti bilan uyni Ansoga qoldirdi. Bundan tashqari, usta har yili bir hafta mo-baynida o'zining qul ekanligini bildirish uchun monastirga qarashli xonalar biqinidagi kata-lakda kun kechirishi lozim edi. Hamma o'tgan, ketgan, yo'lida duch kelgan odamlardan rohi-blarning naqadar o'jar va sarkash ekanligi haqi-da eshitaverib, quloqlari qomatga kelgan usta abbatning o'z ahdidan qaytmasligini tushundi va yuragi siqilib xunobi oshdi. Goh u abbat-likning to'rt tomonidan o't qo'yib yuborishga chog'lanar, goh piri buzurgni biron xilvat yer-ga olib borib, to Tenettaga erk berish haqidagi hujjatga imzo chekmagunicha uni qiynamoqchi

bo'lar – xullas, miyasida ming xil afsonaviy xayollar tug'ilar va zumda o'chib ketardi. Nihoyat, u ikkilana-ikkilana, oxiri qizni o'g'irlab, hech kimning qo'li yetmaydigan uzoq va bexatar yerga olib qochib ketmoqchi bo'ldi; shu qarorga kelib qochish tadorigini ko'rishga kirisharkan, agar saltanat sarhadidan chetga chiqib ketsam, yor-do'stlarim yoki qirol a'lo hazratlarining o'zi rohiblarning tanobini tortib qo'yishi qiyin bo'lmaydi, deb mulohaza qila boshladi. Metr Anso o'z g'animini yaxshi bilmasdi! Lekin piri buzurgning qanday zolim ekanligini bilib oldi. Bir kuni u dalaga kelib, u yerda Tenettani uchratmadi, ma'lum bo'lishicha, uni abbatlikda hibsdan qo'riqlab turishgan ekanki, endi uni ozod qilish uchun butun monastirni qamal qilish lozim bo'lar edi. Shunda metr Anso faryodlar, chekib, bunday beshafqatlikdan nola qilib, zorlanib g'azablendi. Shaharning barcha erkak va ayollari bu voqea haqida duv-duv gap boshlab yuborishdi, oqibatda butun shaharda shunday kuchli shov-shuv ko'tarildiki, qirolning o'zi kekxa piri buzurgni o'z huzuriga chaqirib, undan qirol zargarining buyuk muhabbatiga nechun beparvo qarayotgani va ushbu amalda xristianlik rahm-shafqatini sevishganlardan nega darig' tutayotgani sababini so'radi.

– Buning sababi bitta, onhazratlari, – deb javob qildi abbat, – gap shundaki, barcha qonunlar xuddi yagona sovutning zanjiridagi halqalar singari bir-birlari bilan o'zaro bog'langan, agar bitta halqa uzilib ketgudek bo'lsa, butun zanjir sochilib ketadi. Shuningdek, agar

o'shal qizimizni bizning roziligimizsiz, taomilga amal qilmay oladigan bo'lsalar, oradan sal vaqt o'tmay raiyatingiz boshingizdagi tojni ham tortib olishi, butun mamlakatda isyon ko'tarib, o'rmonlar, yo'llar va boshqa joylardan olinadigan, xalqni ezuvchi bojlarni bekor qilishi mumkin.

Qirol tilini tiyib qoldi. Bu voqeaning qanday yakunlanishini hamma sabrsizlik bilan kutardi. Jamoaning bu musohabaga bo'lgan qiziqishi shu qadar zo'r ediki, ko'pchilik zodagonlar, turlik zargar sevgilisidan voz kechadi, deb bir-birlari bilan bahs boylasha boshlashdi, xonimlar esa, buning aksi bo'lishini xohlardilar. Anso qirolicha huzuriga borib, rohiblar unga sevgilisini ko'rsatmay qo'yishganini ko'z yosh to'kib arz qildi; qirolicha hazrati oliyalari bu qilg'iliqni zolimlik va ablahlik deb hisobladi, bu haqda u piri buzurgga murojaat qildi, shundan keyin zargar har kuni abbatlik qabulxonasiga kirib turishga ruxsat oldi; Tenetta Anso bilan uchrashgani shu yerga, albatta, kekxa bir rohib kuzatuvida kelardi. Kelganidayam har safar xuddi boyvuchcha xonimlardek hashamatli liboslarga bezanib kelardi. Bu sevishganlarning faqat ko'rishishlari va suhbatlashishlariga ruxsat berilgan edi, ular hatto yashirincha biron marta o'pisha olmasdilar ham, shunga qaramay, o'rtalaridagi muhabbat uchquni tobora balandroq gurkirab alanga ola boshladi. Bir kuni Tenetta do'stiga shunday dedi:

– Qimmatli janobim, men sizga o'zimning hayotimni baxshida qilmoqchiman, shu yo'l bilan sizni qullikdan ozod qilaman. Buning ilo-

ji shunday: men hamma gapni ipidan-ignasi-gacha so‘rab-surishtirib, abbatlik qonunlarini ustalik bilan chetlab o‘tish yo‘lini va men bilan qovushganingizdan keyin sizni o‘zingiz orzu qilgan saodatli kunlarga yetkazish ilojini topdim. Cherkov sudi sudyasi menga hamma gapni tushirtirdi: hamonki, siz qul bo‘lib tug‘ilmagan ekansiz, faqat qul qiz bilan nikohdan o‘tganingizdan keyin qulga aylanar ekansiz, sizni qullikka olib kelgan sabab barham topishi bilan siz ham qullikdan ozod bo‘lasiz. Shunga ko‘ra, agar siz meni, o‘zingiz aytganingizdek, joningizdan ortiq yaxshi ko‘rsangiz, butun mol-davlatiingizni abbatlikka topshirib o‘z baxtimizni sotib oling va menga uylaning. Keyin mendan to to‘yguningizcha miriqib lazzatlanaverasiz, keyin men bolam tug‘ilishini kutmasdan o‘zim o‘z jonimga qasd qilaman va siz yana ozod bo‘lasiz. Bu sizning qonuniy huquqingiz, bundan tashqari, qirol ham sizning yoningizni oladi, odamlarning aytishicha, uning sizga ixlosi balandmish. Qolaversa, xudo meni kechiradi, bunga aniq ishonaman, zero men o‘z hukmdorim va yostiqdoshimni ozodlikka chiqarish uchun o‘limimga rozi bo‘laman-da.

– Azizam Tenetta! – dedi Anso. – Bo‘ldi, gap tamom, men qul bo‘laman, sen yashayverasan, shunda baxtli hayotim to umrimning oxirigacha davom etgay. Sen yonimda bo‘larkansan, har qanday kishan ham menga og‘irlik qilmaydi. Bordi-yu, hamyonimda bir tanga ham pulim qolmadi deylik. Xo‘sh, nima bo‘pti shunga? Axir mening xazinam bor-ku – bu sening qal-

bing, yana mening bebaho baxtim-saodatim, rohat-farog‘atim, huzur-halovatim, ya’ni sening betimsol latofating mening bitmas-tuganmas boyligimdir. Men avliyo Eluaga sig‘inib undan shifoatini bizdan darig‘ tutmaslikni iltijo qilaman, u qanday mushkul ahvolda qolganimizni ko‘rib bizga shafqat qiladi va bizni har xil yovuzliklardan himoya qiladi – men bunga aminman. Demak, men hozir sud noziri huzuriga borib, unga kerakli hujjatlar, shartnomalarni tayyorlashni buyuraman. Hech bo‘lmaganda, hayotimning bebaho guli bo‘lmish sen durustgina kiyinasan, yaxshi uyda yashaysan va butun umr xodimalaring atrofingda parvona bo‘ladilar, xuddi qirolichaga xizmat qilganday, negaki, piri buzurg hazratlari daromadlarimning bir qismidan foydalanishimga rozilik berdi.

Tenetta ham yig‘lab, ham kulib, bunday baxtdan o‘zini chetga olib qochar va ozod odamning qul bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘zi o‘lishni xohlardi, lekin metr Anso uning qulog‘iga shunday shirin so‘zlarni pichirlab aytib, agar Tenetta shunday qilsa, o‘zi ham uning orqasidan go‘rga kirishini aytib cho‘chitardi, shunda Tenetta, oldin muhabbat quvonchidan bahramand bo‘lay, keyin xohlagan paytimda o‘zimni o‘zim o‘ldiraolaman-ku, degan qarorga kelib, nikohdan o‘tishga rozi bo‘ldi. Turlik zargarning o‘z mahbusasini deb butun mol-u davlatidan va erkidan voz kechib qul bo‘lib yashashga rozilik bildirgani butun shaharga ovoza bo‘lganida odamlar bunday ajoyib erkakni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishni xohlab qoldilar. Saroy xonim-

lari esa usta bilan uzoqroq suhbatlashib turish uchungina, uning do'konidan behisob tilla va kumush buyumlarni xarid qila boshladilar. Shaharning sohibjamol ayollari uzoq yillar davomida ustaning ular bilan muloqotda bo'la olmaganini hissasini chiqarmoq uchun, Ansoning ustaxonasiga gala-gala bo'lib kelishardi. Illo, bu ayollarning ayrimlari husn-tarovatda Tenettaga teng kela olsalar ham, hech birida Tenettanikidek pokiza qalb yo'q edi. Nihoyat, qullik va muhabbat davri yaqinlashib qolganini ko'rgan Anso o'zining hamma oltinlarini eritib undan shohona toj yasadi va uni o'z ixtiyorida bo'lgan marvarid va olmoslar bilan bezadi, so'ng yashirincha saroyga kelib, uni qirolichaga berarkan, shunday dedi:

– Hazrati oliyalari, o'z boyligimni kimga ishonib qoldirishimni bilmayman – mana u. Ertaga uyimdagi hamma narsalar menga zarracha rahm qilmagan la'nati rohiblarning mulkiga aylanadi. Men faqat sizning shohona mehribonligingiz tufayli ma'shuqamning jamolini ko'rish baxtiga muyassar bo'lganim uchun ushbuni mening faqirona minnatdorchiligim deb bilgaysiz, zero, har qancha ko'p pul ham yorimning bir lahzali nigohiga arzimaydi.

– Yaxshi gap bo'ldi, oqko'ngil odam, – dedi qiro'l. – Abbatlik ertami, kechmi, bir kun mendan yordam so'rab keladi, ana o'shanda albat ta seni eslayman.

Tenettaning abbatlikda o'tayotgan nikoh to'yiga kelgan odamlarning son-sanog'i yo'q

edi; qirolicha kelinbolaga bejirim nikoh libosi taqdim etdi, qirol esa, unga tilla sirg'alarni har kuni taqib yurishiga ijozat berdi. Latofatda g'ayrita'rif kelin-kuyov abbatlikdan chiqib, oldin Sen-Le cherkoviga, so'ng endilikda qulga aylangan Ansoning uyiga yo'l olishganida, o'z uylari derazalari oldiga yig'ilgan odamlar bu yangi turmush qurgan ikki baxtiyorni yaxshiroq ko'rish uchun mash'alalar yoqib, ularning yo'lini yoritishgandi. Ko'chaning ikki chetida olomon xuddi shaharga kirib kelayotgan qirolni qarshi olayotganday, zich terilib turardi. Sho'rlik kuyov o'zi uchun kumushdan quyib yasagan gardishni chap qo'lga taqib olgandi – bu gardish uning endi Sen-Jermen abbatligiga qarashli mulk ekanligini bildirardi. Xo'sh, nima bo'пти shunga! Baribir, xalq yangi qulni xuddi endi taxtga o'tirayotgan yosh qirolni qutlaganday, «Shon-sharaf, shon-sharaf!» – deb hayqirardi va xalqning Tenetta haqida aytayotgan maqtov so'zlarini, uning husn-latofati, sipoligiga tahsinlar aytilayotganini eshitib, sevinganidan boshi ko'kka yetgan baxtiyor oshiq metr Anso ko'chadagi odamlarga tinimsiz ravishda ta'zim qilardi. Mana, u o'z uyi darvozasining yam-yashil novdalar va bo'tako'z gullardan to'qilgan gulchambarlar bilan bezatilganini ko'rdi. Butun mahallaning kazo-kazo fuqarolari metr Ansoni qutlash uchun yig'ilgandilar, ular: «Siz hamisha oliyanob inson bo'lib qolaverasiz, abbatlikning xohishiga zid o'laroq», deyishardi. Gapimga ishoninglarki, ushbu nikoh kuni kelin bilan kuyov

hayratomuz taassurotlarga bardosh berishda bir-birlaridan qolishmadilar. Bu borada er bir necha marta ustun kelgan bo'lsa ham, uning suyuqli xotini zabardast dehqon qizlarga xos iqtidor bilan bu musobaqada erining yutuqlariga javob qaytardi... Ular dastlabki bir oyni huzur-halovatda, shod-hurramlik bilan o'tkazdilarki, ularni birinchi topishgan kunlaridan boshlab cho'p va xaslarni bitta-bit-tadan yig'ib, o'zlari uchun in yasay boshlagan kaptarlarga qiyos qilish mumkin edi. Tenetta o'zining bu ko'rkam uyidan va buyurtma bergani kelgan odamlardan mamnun edi, hamma xaridorlar misli daryoday oqib kelishar va ketayotganlarida uy bekasining husni-jamoliga mahliyo bo'lib qaytishardi. Asal oyi tugaganidan keyin kunlarning birida, endilikda kapitulning mulkiga aylangan bu uyga kelin-kuyovning sohibi va egasi donishmand qariya, piri buzurg hazratlari Hugon zo'r dabdaba va viqor bilan kirib keldi va dedi:

– Bo'talarim, bugundan e'tiboran sizlar erkinsiz, hamma qarzarlar va majburiyatlardan ozod qilindingiz. Yana sizlarga shuni aytmochimanki, qalblaringizni bir-biriga chamberchas bog'lagan buyuk muhabbat meni eng birinchi daqiqalardan hayratga solgan edi. Keyin esa, abbatlikning huquqlari e'tirof etilgan zahoti, o'zim oldin sizlarning Tangrimning amallariga bo'lgan e'tiqodingizni sinab ko'rib, keyin ikkovingizga bequsur saodat baxsh etmoqchi bo'ldim. Bu berilgan ozodlik uchun hech qanday haq to'lamaysizlar.

Piri buzurg shunday deb, er-xotinning yuziga asta shapatilab qoʻydi, xushbaxt er va xotin tiz choʻkishdi va sevinganlaridan yigʻlay boshlashdiki, buning hech ajablanadigan yeri yoʻq edi.

Metr Anso saxovatli piri buzurg Hugonning duoi xayri va koʻrsatgan marhamati haqida qoʻshnilariga soʻzlab berdi, bu xushxabarni eshitgan butun mahalla ahli koʻchaga otilib chiqdi. Keyin turlik zargar zoʻr ehtiom bilan piri buzurgning oti jilovidan ushlab to Byussi darvozasigacha kuzatib qoʻydi. Zargar yoʻlga otlanayotganida bir xalta tanga olib olgan edi, u yoʻlda ketaturib ana shu xaltadagi tangalarni qashshoqlar va nogironlarga sochar ekan, derdi: «Bu Xudoning marhamati! Piri buzurg hazratlarini Tangrim oʻz panohida asrasin, hazrat Hugon omon boʻlsinlar!»

Anso uyga qaytib kelib yor-doʻstlarini mehmon qildi. U nikoh toʻyini boshqatdan boshladi va bu toʻyda bir haftagacha ziyofat davom etdi. Bir tasavvur qilib koʻring: salmoqli oʻljani yutib yuborish uchun endi ogʻzini katta ochgan kapitul ikki qulga bunday mehribonlik koʻrsatgan abbatga qattiq malomat qildi. Oradan bir yil oʻtganida qariya Hugonning biroz tobi qochib qoladi, ana shunda uning tavbasini qabul qilgani kelgan ruhoniy ota: «Sen kapitulning muqaddas huquqlariga va Xudoga hiyonat qilding, shuning uchun Samo seni jazoga mustahiq etmoqda», – deydi.

– Oʻshal odam haqidagi fikrimda agar yanglishmagan boʻlsam, – deydi abbat ruhoniy otaga, – u bergan vaʼdasini unutmagay.

Chindan ham metr Ansoning bir yil burun to'yi bo'lgan kun tasodifan ushbu kunga to'g'ri kelgan edi – shu payt rohib kirib, zargar kelganini va hojatbarori piri buzurgdan kirishga ijozat so'rayotganini aytadi. Metr Anso piri buzurg yotgan zalga kiradi va yonidan zo'r mahorat bilan yasalgan g'oyatda mo'jizavash ikkita sandiqcha chiqarib abbatga uzatadiki, butun xristian olamida bironta ham usta hanuzgacha go'zallikda bu mo'jiza darajasiga yeta oladigan hech bir durdona buyum yarata olmagan. Ikkala sandiqchada: «Sevgida sobit bo'lishga qasamyod qilgan odamdan» degan yozuv bor edi. Hammaga ayonki, bu ikki sandiqcha haligacha abbatlikning bosh mehrobida turadi va hamma ularni bebaho xazina deb hisoblaydi. Yana shuni ilova qilmoqchimiz: oshiq yigit Anso bu sandiqchalarni ijod qilish uchun bisotidagi butun boyligini sarfladi, lekin bu g'oyat nafis va ajib sandiqchalar uning hamyonini quritish o'rniga lim-lim qilib to'ldirdilar, sababki, ular ustaning shon-shuhrati va daromadini yanada ko'proq oshirishga xizmat qildi, buning natijasida metr Anso o'zi uchun dvoryanlik unvonini hamda juda katta yer-mulk sotib olishga muvaffaq bo'ldi va Ansolar zotiga asos soldi – bu Turenda eng hurmatli nasab hisoblana boshladi.

Ushbu qissa, hayotda mushkul ahvolga tushgan chog'larimizda muqarrar avliyolarga va Xudoga sig'inish va muttasil sobitlik bi-

lan yaxshilikka intilish kerak, deb saboq beradi bizga. Chin muhabbat hamma narsadan a'lodir – bu hikmat juda qadimgi ibora bo'lsa ham, muallif uni shu o'rinda eslashga jur'at etdi, chunki u muallif dilini bag'oyat xushnud qiladi.

Naim KARIMOV
tarjimasi

G'OYIB BO'LGAN DURDONA

(Hikoya)

1. Jilletta

1612-yil adog'idagi ayozli dekabr tongida engil-boshi yupungina yigitcha Parijning Katta Avgustinchilar ko'chasida joylashgan bir uy oldida taraddudlanib nari-beri borib kelardi. Ilk bor sevib qolgan-u, ammo ma'shuqasiga dil izhori qilmoqqa botinolmagan bo'zboladek rosa ko'cha tepkilagach, u nihoyat, ostona hatlab, metr Fransua Porbus¹ uyda bor-yo'qligini so'ramoqqa jazm etdi. Dahliz supurayotgan kampirdan «Ha, uydalar», degan javobni olgach, qirol hazratlari qanday qabul qilarkanlar, deya yuragi taka-puka bo'lgan yangi saroy a'yoni misol, aylanma zinapoyaning har bir pog'onasida to'xtay-to'xtay, imillab yuqoriga chiqdi. Chiqdi-yu, ustaxona eshigiga zeb berib turgan g'aroyib bolg'achaga qo'l tekkizolmay maydonchada tag'in turib qoldi. Ehtimol, bu choq Rubens dahosi porlab, Mariya Medichi nazari-dan qolgan Genrix Yettinchining xos musavviri ichkarida ijod qilib o'tirgandir. Ayni damda yigit ham bo'lajak buyuk rassomlar yoshlik shavqi va san'at ishqi bilan yonib yashayotgan kezlar biror daho ijodkor yoxud durdona

¹ Fransua Porbus – floman rassomi (1570–1622)

asarga yovuq kelgan payt boshdan kechiradigan jo'shqin tuyg'ular iskanjasida edi. Insondagi his-tuyg'ularning ham oliyjanob intilishlarga doxil bahor chechaklaridek gul ochish fasli bo'ladiki, baxt xotiraga, shuhrat esa ro'yoga aylanishi bilan ular sekin-asta kuzgi bog'lar kabi za'faron tortadi. Qalbning o'tkinchi hayajonlari orasida hech biri shuhrat va kulfat yo'lida endigina ijodning ilk ajib qiynoqlarini totayotgan yosh rassomning jur'at-u jur'atsizlikka, umid-u umidsizlikka limmo-lim ehtirosichalik muhabbatga uyqash emas. Cho'ntagida bir miriyam yo'g'-u, ammo ko'ngli oyni tusagan kezlari ulkan san'atkorga duch kelib, yuragi dukillab urib ketmagan rassomning qalbi albatta jindek kemtik bo'ladi, mo'yqalamida biror bir bo'yoq, ijodida biror bir tuyg'u, yaratig'ida biror bir jilo yetishmaydi doim. Men bo'lg'usi dahoman deb podadan oldin chang ko'targan maqtanchoqlar esa ahmoqlar ko'zigagina oqil bo'lib ko'rinadi, xolos. Go'zal xonimlar noz-karashmani mashq qila-qila tortinchoqlik hissini yo'qotib qo'ygani kabi, iste'dod egalari ham san'at atrofida aylana-aylana oson boy berib qo'yadigan uyatchanlik hissi jihatidan qaralsa, xudo yigitchani bu ne'matdan asti qismagan edi. Ishingiz baroridan kela boshlagach, jur'atsizlik ham yo'qoladi, tortinchoqlik, uyatchanlik esa, ehtimol, jur'atsizlikning bir turidir.

Agar tasodif ro'y bermaganida, muhtojlikdan boshi gangigan va ayni damdagi dadilligidan o'zi ham hayratda turgan bechora yigitcha Genrix To'rtinchining ajoyib portretini chizgan

rassom huzuriga kirishga jazm etolmas edi. Xayriyatki, ortidan bir chol chiqib keldi. Aloat kiyim-boshi, hashamdor to'r yoqasi, sipo va o'ktam qadam olishidan bu odam ustaning homiysi yoxud do'sti ekanini payqab, yigit yo'l bermoq uchun o'zini bir qadam orqaga oldi-da, bu zotda san'at ahliga xos hamiyat yoxud san'at shaydosiga xos iltifot alomati-ni ko'rish umidida uni qiziqib kuzata boshla-di, ammo cholning yuzida iblisona bir ifoda, boz ustiga musavvirni jalb etadigan mubham va g'alati bir jozibami-ey bor edi. Rable yo-xud Suqrotnikidek ixcham, yapasqi, uchi qanqaygan burunga tutash siyqa boshli keng do'ng peshanani; atrofini ajin qoplagan isteh-zoli labni; kibr-la oldinga turtgan kichkina iyakni; oppoq cho'qqi soqolni; qarilikdan xira tortgan, ammo g'azab yoki quvonch damlari hali ham odamni sehrlab qo'yuvchi nigoh tashlamoqqa qodir dengiz suvidek yam-yashil ko'zlarni tasavvur qiling-a! Darvoqe, bu turq qarilikdan ko'ra ko'proq ruh va tanani kemi-ruvchi o'y-xayollardan so'lg'inlashgandek edi. Kipriklar butkul to'kilib bitgan, qosh o'rnida yakkam-dukkam mo'ylar ko'zga chalinadi. Shu kallani zaif va dardmand gavdaga qo'ndi-rilgan holda tasavvur eting-da, uni oppoq nafis to'r bilan o'rab, cholning qora nimchasi-ga yo'g'on tilla zanjir osib qo'ying, qarabsizki, bu kimsaning notugalroq surati tap-tayyor – faqat shuni ham qo'shimcha qilish joizki, ayni damda zinapoyadagi xira yorug'da u xayoliy tusga kirgan. Go'yoki Rembrandt mo'yqalami-

dan chiqqan bu portret qasnog'ini tark etib, ulug' rassom xush ko'rgan nimqorong'ilikda sassiz kezib yuribdimi, deb qolasiz. Chol yigitga sinchkov nazar tashlab, eshikni uch marotaba taqillatdi va uni ochgan qirq yoshlardagi rangpar kishiga:

– Xayrli kun, metr, – dedi.

Porbus nazokat ila cholga ta'zim qildi va yigitchani ham u bilan kelgan deb fahmlab ichkariga oldi. Keyin esa ular yigitga deyarli e'tibor ham qilishmadi. Holbuki, yigitcha rassomlik sir-asrorini o'rganish mumkin bo'lgan ustaxonaga ilk daf'a kirib qolgan barcha tug'ma musavvirlar kabi hayratdan qotgan edi. Usta Porbus ijodxonasini ravoqdagi ochiq deraza yoritib turardi. Yorug'lik to'ppa-to'g'ri molbertga va undagi oq bo'yoq chaplangan polotnoga kelib tushar – zulmatga cho'mgan bu katta xonaning burchak-burchagigacha yetib borolmas edi; ammo uning o'jar shu'lalari nimqorong'ilik aro goh devorga osilgan suvoriy sovutining bo'rtiqlarida kumushdek jilva qilar, goh noyob idish-oyoqlar terib qo'yilgan ko'hna javonning o'ymakor naqshli yaltiroq karnizini taram-taram bo'lib yoritir, goh hafsala bilan qat-qat tax berib tikilgan va chamasi bitta-yarimta kartina uchun natura o'rnida xizmat qilgan eski zarbof parda g'ud-dalarini yaltillatib yuborar edi.

Tokcha va tagliklarda yalang'och mushaklarning ganchga tushirib olingan nusxalari-yu antik davr ilohalarining gavdalari uyulib yotardi. Qalam yoki qilpat bilan chizilgan hisobsiz

xomaki rasmlar-u etyudlar devorni shiftga qadar to'ldirib tashlagan. Bo'yoq solingan qutilar, moy va eritmalar quyilgan shishalar, to'ngarib qo'yilgan uzun xarraklar orasidan baland deraza sari faqat tor bir yo'lakcha qoldirilgan, shu derazadan Porbusning rangpar yuzi-yu anovi g'alati odamning sarg'imgir do'ng peshanasiga tik yorug'lik tushib turar edi. Yigit o'sha tahlikali, olag'ovur yillarda juda mashhur bo'lgan bir kartinaga butun vujudi bilan singib ketgan – bu kartinani tomosha qilgani yakkash qaysar, cho'rtkesar odamlar kelardiki, bugun o'sha qabohat davrida ham ilohiy otash saqlanib qolgani uchun aynan shular oldida qarzdormiz. Kartinada daryodan o'tkazib qo'ygani uchun qayiqchiga kira haqi berishga chog'langan Misr qizi Maryam tasvirlangan edi.

– Avliyo ayoling menga yoqadi, – dedi chol Porbusga. – Qirolicha senga to'laydigan haq ustiga yana o'n tilla ekyu qo'shib bergan bo'lardim-u, ammo zoti oliyalariga tenglashaman deb boqchi... holing ne kecharkan!

– Bu ishim sizga yoqadimi?

– He-he, – deya to'ng'illadi chol, – yoqadimi emish! Yoqadiyam, yoqmaydiyam. Ayoling xo'b xushbichim-u, ammo jonsiz. Siz, musavvirlar, odam a'zolarini anatomiya qonunlariga muvofiq joy-joyiga qo'yib chizsak bas, deb hisoblaysiz. So'ng bu shakl-shamoyilni palitrada tap-tayyor turgan tana rangidagi bo'yoq bilan bo'yashga tutinarkansiz, bir tarafini boshqasiga qaraganda to'qroq qilish payida bo'lasiz va qarshingizda turgan yalang'och ayolga faqat

shu maqsaddagina ahyon-ahyon nazar tashlab qo'yib, kamina tabiatni qayta bunyod etyapti, men xudodan san'atkorlik sirini o'g'irlab olgan zotman, deya xayol qilasiz o'zingizni... Be, qo'ysangiz-chi! Buyuk shoir bo'lmoq uchun gapni chappa tuzish-u zo'r qofiya topishning o'zi kifoya emas-da! Avliyo ayolingga qara, Porbus! Bir qarashda u ofatijon bo'lib ko'rinadi, ammo ser solib tikilsang, polotnoga chippa yopishib qolganini anglaysan: uning girdida aylanib bo'lmaydi. U – faqat old tomonigina bor, yorti bir tasvir, xolos. Na u yoq-bu yoqqa o'g'irilishi, na-da im qoqishi mahol bo'lgan ayolsiymoi bir ko'lanka. Men mana bu qo'llar bilan orqa manzara oralig'ida havo sezmayapman; kartinada bo'shliq yo'q; holbuki, olislashish qonuni to'liq-tugal saqlangan, orqa manzara qoidasiga ham xuddi shunday rioya etilgan; ammo maqtovgga loyiq bunday tirishqoqligingga qaramay, bu go'zal vujudga hayotning qaynoq nafasi-la jon ufulrganiga aslo ishonolmayman; deylik, uning olmadek shu ko'kragiga qo'l tekkizsam, marmardek sovuqligidan seskanib ketaman! Ha, do'stginam, bu bug'doyrang badanda qon gupirayotgani yo'q, chakka va ko'kragingning tiniq terisi ostida to'r bo'lib taralgan tomirlarda hayot alvon chashma kabi jo'sh urmayotir. Qara, mana bu joyi nafas olayotgandek – xuddi tirik odamnikidek, mana bu joyi esa qilt etmaydi, kartinaning har bir bo'lagida hayot bilan o'lim olishib yotipti; mana bu yerda ayollik latofati namoyon, bu yerda esa u qo'g'irchoqning

o'zi. Xullas, asaring nomukammal. Sen sevimli asaringga qalbingning bir bo'laginigina bag'ishlagansan, xolos. Qo'lingda Prometey mash'alasi necha bor o'chib qolgan, samoviy otash kartinaning ko'p joyiga tegmagan ham.

– Sababi nima, qadrlı ustoz? – deb so'radi Porbus tavoze bilan, yigit esa cholga musht tushirib qolishdan o'zini arang tiyib turardi.

– Boisi shuki, – dedi chol, – sen ikki uslub o'rtasida, rasm bilan bo'yoq tanlovida, eski nemis ustalariga xos bo'lgan ikir-chikirlargacha o'ta aniq tasvirlashdek sovuqqonlik bilan italyan musavvirlarining hayratomuz ehtirosi va oliyjanob hotamtoyliğı orasida kalovlanib qolgansan. Sen bir vaqtning o'zida Hans Holbeyn va Titsianga, Albrect Dyurer va Paolo Veronezega ergashmoqchi bo'lgansan. Albatta, bu juda zo'r da'vo! Biroq natija qanday bo'ldi, xo'sh? Na sovuqqonlikning tund maftunkorligiga, na nur bilan soyaning aldoqchi o'yiniga erisha olding. Xuddi qaynoq mis mo'rt qolipni yorib tashlaganidek, mana bu yerda Tisianning serhasham va serjilo bo'yoqlari Albrect Dyurerning sipo konturini buzib, toshib chiqqan. Rasmning boshqa joylari-ku durust, Venetsiya palitrasining boy bisotiga ham dosh bergan. Yuz tasvirida esa na rasm, na koloritni bekami ko'st deb bo'ladi, bu yerda mash'um jur'atsizliging izlari ayon ko'rinib turibdi. Modomiki, bir-biriga ters bo'lgan bu ikki ijod uslubini iste'doding alangasida eritib, qorishtirib yuborishga ko'zing yetmadimi, jonli naturaning hechqursa biror bir xususiyatini tugal

ifoda etadigan yaxlitlikka erishmoq uchun ikkovidan birini tanlashing zarur edi. Sen faqat oraliq qismlarnigina haqqoniy tasvirlagansan; konturlar bo'lsa hayotiy chiqmagan, ular oxiriga yetkazilmagan va, demakki, bundan biror ma'no kutish ham noravo. Mana bu yeri tabiiy chiqibdi, – dedi chol avliyo ayolning ko'kragini ko'rsatib. – Mana bu yeri ham, – deb davom etdi u yelkaning tugash joyiga ishora qilib. – Ammo bu yeri, – dedi ko'krak oralig'iga qaytib, – sirayam o'xshamagan... Kel, sarak-puchak deb ajratishga nuqta qo'ya qolaylik, aks holda ijoddan hafsalang sovishi hech gapmas...

Chol kursichaga o'tirib, qo'lini chakkasiga tiragancha sukutga cho'mdi.

– Ustoz, – dedi Porbus unga, – men, harqalay, bu ko'krakni yalang'och tanada obdon o'rganganman, lekin baxtga qarshi, tabiat shunday taassurotlar tug'diradiki, ular polotnoda nohaqqoniydek bo'lib chiqadi...

– San'atning vazifasi tabiatdan nusxa ko'chirish emas, balki uni ifodalay bilishdir. Sen ayanch bir nusxakash emas, chinakam san'atkorsan! – deya zavqqa to'lib xitob qildi chol Porbusning gapini shart bo'lib. – Aks holda, haykaltarosh ham ganchdan ayol shaklini olardi-da, shu bilan ish tugadi, deb qo'lidagi yuqni ketkazishga unnardi. Qani, ganchdan sevgilingning qo'l shaklini ol-da, qara-chi, zarracha o'xshashlik toparmikansan, yo'q, bu – ayni murdaning qo'li bo'ladi, oqibatda sen haykaltarosh oldiga yukinib borishga majbur bo'lasan, u esa qo'ldan aniq nusxa ko'chirma-da, unga

harakat va hayot baxsh etadi. Biz jonli-yu jon-siz mavjudotlarning ruhi va mohiyatini, o'zi-gagina xos bo'lgan qiyofasini ilg'ab olmog'imiz lozim. Taassurot, taassurot deysan! Uqib ol, taassurot bu – hayotning o'zi emas, undagi bir tasodif, xolos! Modomiki, qo'lni misol qildimmi, shuni ham aytay, qo'l nafaqat inson tanasidagi bir a'zo, ayni choqda ilg'ab olinishi va aks ettirili-shi kerak bo'lgan fikr ifodasi ham. Na musav-vir, na shoir, na haykaltarosh taassurotni sa-babiyatdan ajratmasligi lozim, chunki bu ikkisi – yalakat, biri boshqasisiz mavjud emas. Ku-rashdan asl maqsad ham ana shu. Aksariyat musavvirlar san'atning shu qoidasidan bexa-bar bo'laturib, o'zi ham bilmagan holda g'ala-ba qozonadi. Siz ayolning rasmini chizasiz-u, biroq uning qalbini ko'rolmaysiz. Bu ahvolda tabiatdan sir o'g'irlab bo'lar ekanmi? Siz o'zin-giz sezmagan holda ustozingizdan ko'chirib olgan bitta qolipni hadeb tasvirlayverasiz. Siz shaklni qalbdan tuya bilmaysiz, undagi har bir chetlashish va chekinishni zo'r ixlos va sabot bilan kuzata olmaysiz. Go'zallik bu – sipo va qaysar xilqat – oppa-oston taslim bo'lmaydi, uni bo'ysundirish uchun qulay fursatni kutish, iz-ma-iz ta'qib etish va g'aflatda qoldirish darkor. Shakl bu – Protey¹, biroq afsonadagi Proteydan yuz karra abjir va hiylakor! Qattiq olishuvdan so'nggina uni asl qiyofasida ko'rinishga maj-bur etish mumkin. Sizlar esa, uning o'zi qay qiyofada ko'rinishni xohlasa, shu birgina qiyofasi, nari borsa, ikkinchi, uchinchi qiyofasini

¹ Protey – qadimgi yunon mifologiyasida dengiz ilohi.

ko'rish bilan qanoatlanasiz; g'alabaga munosib kurashchi esa bunga ko'nmaydi. Bu tolmas musavvirlar turli hiyla-nayranglarga aldanib qolmaydi, tabiatni yalang'och holda asl mohiyati-la namoyon bo'lmoqqa majbur qilmaguncha ahdidan qaytmaydi. Rafael aynan shunday qilgan, – dedi chol san'at qiroliga bo'lgan hurmatini ifodalash uchun boshidan qora baxmal qalpog'ini yechib. – Rafaelning boshqalardan beqiyos ustunligi – shaklni qalban tuyish va tabiatni majburlay bilish qobiliyatidir. Uning ijodidagi shakl – bor-yo'g'i g'oya, tuyg'u va nafosatni yetkazish vositasidirki, bizning «chizgi»larimizda ham aynan shunday bo'lishi zarur. Har bir tasvir – butun boshli olam, mana shu dunyomizdan manba oluvchi tasvir vositalariga parvardigorning o'zi ishorat berib turgan onlar qalb ko'zi-la ilg'anadigan va bizga daf'atan yuz ko'rsatadigan muazzam nurli ro'yodan andoza olib chiziladigan portretdir. Siz vujudning chiroyli libosini kiydirib, latofatli qo'ng'iroq sochlar chodراسi bilan ziynatlaysiz ayolingizni, biroq uning tomirlari bo'ylab qalblarga halovat yoxud ehtiros solaroq jo'shib oquvchi va zo'r taassurotlar hadya etuvchi o'sha qon qani? Sening avliyo ayoling – qorasoch, ammo mana bu bo'yoqlar, notavon Porbus, mallasoch ayoldan olingan! Shu sabab ham sizlar matoga tushirib oldimizga tizib tashlagan bu qiyofalar bo'yoq chaplangan ko'lankadan boshqa narsa emas, shularni rangtasvir va san'at asari deb ataysizmi?.. Chizganingiz ajinani emas, ayolni eslatgani uchungina qoyillatdim deb havolanasiz, qadimgi musavvirlar kabi rasmlaringiz tagiga

currusus venustus¹ yoxud pulcher homo² deb yozib qo'yishga ehtiyoj yo'qligidan g'ururlanasiz-da, o'zingizni zo'r musavvir xayol qilasiz!.. Ho-ho... Yo'q, siz hali bu darajaga yetganingiz yo'q, qadrlı birodarlarim, asl rassom bo'lish uchun hali qancha mo'yqalamning boshiga yetishingiz, qancha matoga qiron keltirishingiz kerak! Juda to'g'ri, ayol kishi boshini shunday tutadi, etagini shunday ko'taradi, charchoq bosgan ko'zlari ham shunday malohatlayitillaydi, uzun qayrilma kipriklarining titroq soyasi yonoqlarida xuddi shunday lipillaydi. Hammasi aynan shunday va... shunday emas ham! Xo'sh, toping-chi, nima kamlik qilyapti? Arzimas bir chizgi! Ammo shu arzimas chizgida gap ko'p. Siz hayotni faqat zohirdan ko'ra olasiz, xolos, botindagi toshqinni bo'zga tushirolmaysiz, holbuki, bu toshqin ko'kni qoplagan bulut yanglig' jismga harorat bag'ishlab turgan jon-ku! Boshqacha aytganda, siz Titsian va Rafaeldan farq etaroq, barq urib turgan hayot nafasatini tasvirlab berolmaysiz. Siz turgan shu mavqedan yana olg'a harakat qilinsa, balki go'zal rangtasvir asari yaratsa bo'lar, ammo siz tez orada holdan toyib qolasiz. Oddiy odamlar asaringizga qoyil qolib tasanno ham aytar, lekin chinakam bilimdon miyig'ida kulibgina qo'yadi. O, Mabuze!³ O, ustozim! – deya xitob etdi qo'qqis bu alomat odam. – Sen – o'g'risan, hayotni o'zing bilan ola ketding!.. Shunga qaramay, bu

¹ Currusus venustus – maftunkor, jozibali

² Pulcher homo – ko'rkam erkak.

³ Mabuze – psixoanalitik, gipnozchi

asar betamiz Rubensning qizil bo'yoq chaplangan flamandcha yuzlar, malla sochlaru tumtaroq ranglar toshqinidan iborat polotnosidan afzal. Asaringda harqalay kolorit, his-tuyg'u va rasmchilik – san'atning uch muhim uzvi tugal.

– Biroq avliyo ayol g'oyat jozibali, janob! – dedi xayolot olamida kezib yurgan yigit birdan o'ziga kelib baralla. – Har ikkala chehrada – avliyo ayolning ham, qayiqchi erkakning ham yuzida italyan ustalariga noma'lum bo'lgan bir noziklik barq urib turibdi. Qayiqchining yuzidagi taraddud ifodasini ulardan birortasi ham aks ettirib berolmasdi, bunisi – aniq.

– Bu yigitcha sizning hamrohingizmi? – deb so'radi Porbus choldan.

– Oh, ustoz, odobsizligim uchun afv eting, – dedi yigit qizarib-bo'zarib. – Kaminangiz rasm chizishga ozroq havasmand. Ilmu san'at o'chog'i bo'lgan bu shaharga yaqindagina kelganman.

– Qani, bir ko'raylik-chi! – dedi Porbus unga qizil qalam bilan qog'oz tutqazib.

Yigit chaqqonlik bilan Maryam tasviridan nusxa ko'chirib berdi.

– O'-ho'! – deya xitob qildi chol. – Isming nima?

Yigit rasm tagiga «Nikola Pussen»¹ deb imzo chekdi.

– Yosh rassomchamiz chakkimas, – dedi gap-so'zi telbanamo bu alomat chol. – Rangtasvirdan uncha-muncha xabaring borga o'xshaydi. Mayli, Porbusning avliyo ayolidan bu qadar

¹ Nikola Pussen – fransuz rassomi, tarixiy, afsonaviy kartinalar muallifi (1594–1065)

hayratga tushganing uchun seni koyimayman. Ha, barchaga bu asar – buyuk ijod mahsuli, san’atning eng chuqur sirlaridan voqif kishilargina undagi qusurni ko’ra oladi, xolos. Ammo sen bizdan saboq olishga loyiq ekansan, qolaversa, fahm-farosating ham binoyidek, shu bois senga hozir bu kartinani tugallamoq uchun nimalar qilish kerakligini ko’rsataman. Ko’zingni katta-roq och, diqqatingni jamla, ehtimol, saboq olishga bunday qulay fursat qayta nasib etmas senga. Porbus, qani, menga palitrangni uzat-chi.

Porbus palitra bilan mo’yqalamlarni unga tutqazdi. Chol bir dasta katta-kichik mo’yqalamni uning qo’lidan qariyb yulqib oldi, chaqqon yeng shimarib, zildek olachipor palitra teshigiga boshmaldog’ini suqdi. Cholning cho’qqi soqoli jo’shqin xayol dolg’alarini ifodalagan kabi tuyqis qahrli silkinib ketdi. U mo’yqalamni bo’yoqqa botirarkan, tishlari orasidan javrar edi:

– Mana bu bo’yoqlarga qo’shib, uni qorishtirgan odamni ham derazadan uloqtirib yuborish kerak, ranglar behuzur qilar darajada yorqin va qalbaki – shular bilan bir ish qilib bo’ladimi, axir?

Chol jazavakor shiddat bilan mo’yqalamni har xil bo’yoqlarga shunday chaqqon botiraketdiki, uning qo’li gamma ustida pasxa madhiyasini ijro etish paytida klavishlar uzra suzgan cherkov org’anunchisi barmoqlaridan ham abjirroq yugurar edi.

Porbus bilan Pussen polotnning ikki tomonida unga mahliyo bo’lgancha turardi.

– Ko’ryapsanmi, yigitcha, – dedi chol boshini ishdan ko’tarmay, – ko’ryapsanmi, ikkita yo

uchta chizgiyu bitta tiniq lojuvard bo'yoq bilan shunday bo'g'iq havoda nafasi qaytib, sal bo'lmasa o'layozgan avliyo ayolning boshi atrofiga yengil shabada esa boshladi. Qara, libos burmalari endi qanday tebranib-hilpiramoqda, go'yo shabada ular bilan o'ynayotgandek! Vaholanki, u ilgari xuddi nina to'g'nab qo'yilgan ohorli bo'zga o'xshab turgan edi. Payqayapsanmi, hozirgina ko'kragiga mana bu yorqin shu'lani yugurtirdim va u ayol badanining mayin tarangligiga naqadar haqqoniylik baxsh etib yubordi? Yoki qon jo'sh urish o'rniga to'ng'ib qotib qolgan mana bu kulrang va sovuq bo'shliqqa qizg'ish jigarrang bilan qizg'ish sariq rang aralashmasi nechog'li harorat ufurdi? Yigitcha, uqib ol, shu tobda senga ko'rsatayotganlarimni boshqa birorta ustoz o'rgata olmaydi! Tanaga hayot baxsh etish yo'lini yolg'iz Mabuzegina bilardi. Mabuze faqat bitta shogird chiqargan – u ham bo'lsa menman. Mening esa qartayib qolganimga qaramay bitta ham shogirdim yo'q. Nimaga shama qilayotganimni tushungan bo'lsang kerak...

Bu g'alati qariyaning chakagi bilan birga qo'li ham tinmas, kartinaning har xil qismlariga tuzatishlar kiritar edi; mana, u bu yerga ikki marta, boshqa yerga bir marta bo'yoq urdi. Har gal bo'yoq surtganida go'yo yangi bir rangtasvir asari paydo bo'lib borardi. Chol shunday ehtiros, shunday shiddat bilan ishlar ediki, taqir boshiga ter tepchidi; u mo'yoqalamni keskin, epchil va besabr yurgizarkan, navqiron Pussenga xuddi bu alomat odamning ichiga ib-

lis kirib olgan-u uning qo'llarini o'z maylicha harakatlantirayotgandek tuyulib ketdi. Ko'zlarining majhul bir kuchni daf etayotgan singari g'ayritabiiy chaqnashi, qo'llarining asabiy sil-tanishi yigitcha ko'nglida g'imirlagan bu gapning bir qadar rostligini tasdiqlayotgandek edi. Chol-ning qo'li ishda-yu, chakagi ham yopilmasdi:

– Voh! Voh! Voh! Bo'yoqni mana bunday chaplaydilar, yigitcha! Qani, bo'yoqlarim, shu sovuq chizgilarni jonlantirib yuboring-chi. Qani, qani! Shunday, shunday! – deya bir-ik-ki bo'yoq surtish bilan Maryamning qad-di-bastidagi ba'zi g'alatliklarni bartaraf etar, hayot asari sezilmayapti, deya barmoq niqtab ko'rsatgan joylarini jonlantirib yuborar, qizning ehtirosli tabiatiga mos ranglarni yo'qdan bino etar ekan, xitob qilardi qariya: – Ko'ryapsan-mi, azizim, hamma gap so'nggi bo'yoqni qan-day berishda! Porbus yuz martalab bo'yoq surtgan bo'lsa, men bir martagina mo'yqalam yurgizdim. So'nggi bo'yoq tagida qolib ketgan ranglarni esa hech kim hatto eslamaydi ham. Buni yodingda tut!

Nihoyat, qariya ishini tugatib, hayratdan dong qotgan Porbus bilan Pussenga yuzlan-di-da:

– Bu asarning «Go'zal Nuazeza»mga yetishi-ga hali ancha bor, ammo tagiga imzo chek-sam arziydi. Ha, shu asar tagiga imzo qo'ysam yarashadi, – dedi u ko'zgu olish uchun joyi-dan qo'zg'alib. So'ngra kartinani ko'zguga solib tomosha qila boshladi. – Endi, yuring, nonushta qilamiz, – deb qoldi qariya dabdu-

rustdan. – Ikkalangiz uyimga marhamat qilasiz. Dudlangan son go'shtiyu xushta'm sharob bilan mehmon qilaman sizlarni. He-he, shunday tahlikali zamonlarda ham biz rangtasvir haqida bahslashsag-a! Ha, chakana odamlar emasmiz! Mana bu yigitchaning ham qobiliyati chakkimas, – deb qo'shib qo'ydi u Pussenning kiftiga qoqib.

Shunda cholning nazari yigitchaning uniqib ketgan kamzuliga tushdi-yu, kamariga osig'liq charm hamyonni paypaslab topdi-da, ichini kavlab ikki tilla tanga oldi va Pussenga uzatib:

– Boya chizgan rasmingni sotib olaman, – dedi.

– Olaver, – dedi Porbus Pussenga uning titrab va qizarib ketganini ko'rib: yosh musavvir qalbida kambag'allik ori tug'yon urar edi. – Olaversang-chi, buning hamyoni qirolnikidan ham kattaroq!

Uchovlon ustaxonadan chiqishdi-da, san'at haqida suhbat qila-qila, Sen-Mishel ko'prigi yaqinidagi ko'rkam yog'och uyga yetib kelishdi. Uyning jimjima bezaklariyu eshigidagi bolg'achasi, derazasining panjarasiyu naqsh-nigorlari Pussenni mahliyo etdi-qo'ydi. U esini yig'ib olgan chog'da anvoyi noz-ne'matga to'la dasturxonga yondosh chars-churs yonib turgan kamin oldida, ne ajib baxtki, bir-biridan suhbat shirin ikki buyuk musavvir davrasida o'tirardi.

– Yigitcha, – dedi Porbus uning bir kartinadan ko'z uzolmay qolganini ko'rib, – bu poltnoga ko'pam tikilib qaramang, aks holda kayfiyatingiz buziladi.

Bu Mabuzening «Odam Ato» kartinasi boʻlib, rassom oʻziga qarz bergan kimsalar uni uzoq vaqt qamoqqa tiqib qoʻyganida hibsdan ozod boʻlish uchun chizgan edi. Odam Atoning qaddi-basti shu qadar tabiiy, shu qadar haqqoniy koʻrinardiki, Pussen cholning dudmal soʻzlari-dagi tub maʼnoni shu daqiqadayoq anglab yetdi. Chol esa kartinaga qoniqish bilan, ammo zavq-shavqsiz boqib turar, goʻyo koʻnglidan «Men bundan yaxshi chizaman», degan oʻyni oʻtkazar edi.

– Unda hayot ufurib turibdi, – dedi chol, – bu asarni chizganda boyaqish ustozim oʻzidan ilgarilab ketgan, biroq tub mohiyatda haqqoniyatga yetisha olmagan. Odam Ato goʻyo tirik, u hozir oʻrnidan turib, siz tomon yurib keladigandek. Ammo biz nafas olayotgan havo, biz boqib turgan samo, biz his etayotgan shabada yoʻq bu asarda! Qolaversa, undagi odam ham – shunchaki bir odam. Vaholanki, parvardigor endigina yoʻqdan bor etgan bu ilk odamda biror ilohiy belgi nish berib turmogʻi zarur edi, unda boʻlsa aynan shu narsa yoʻq. Mabuzening oʻzi ham sharob totmagan hushyor chogʻlari hasrat bilan iqror boʻlardi bunga.

Pussen tiyiqsiz bir qiziqish bilan goh cholga, goh Porbusga termular edi. U hatto bir gal uy sohibining ismini soʻrash uchun Porbusning yoniga ham bordi, ammo Porbus yuziga sirli tus berib barmogʻini labiga bosdi, qiziqishi bat-tar alangalangan yigitcha bu ismni ertami yo kech tasodifan ogʻizdan chiqib ketadigan biror luqmadan bilib olishga umid bogʻlab, mum tish-

lab qoldi. Porbus sidqidildan bajo keltirayotgan hurmat-ehtirom ham, xonani to'ldirgan ajoyib asarlar ham uy sohibining, hech shubhasiz, katta boylik va zo'r iste'dod egasi ekanidan guvohlik berardi.

Qoramtir eman yog'ochidan yasalgan panelda ayolning serhasham portretini ko'rib, Pussen hayajon ichida:

– Qanday go'zal! Jorjone! – deya hayqirib yubordi.

– Yo'q! – deya e'tiroz bildirdi chol. – Qarshingizda – kaminaning ilk asarlaridan biri, xolos.

– Yo parvardigor, demak, men kimsan – rangtasvir xudosining uyida mehmon ekanmandal – dedi Pussen soddadillik bilan.

Bunday iltifotlarga allaqachon ko'nikib ketgan chol faqat jilmayibgina qo'ydi.

– Frenxofer, aziz ustozim, – dedi Porbus, – menga asl Reyn sharobidan ozroq berolmaysizmi?

– Ikki bochka berganim bo'lsin, – dedi chol hotamtoyligi qo'zib, – birini misrlik Maryamingdan olgan zavqim haqqi, ikkinchisini esa do'stligimiz haqqi tortiq etaman.

– Oh, agarda uzzukun xastalik qiynamagani-da, – dedi Porbus, – qolaversa, «Go'zal Nuazeza»ngizni bir ko'rishinga ijozat etganingizda, men katta-katta jozibador asarlar yaratgan, odamlarni bo'yi baravar qilib chizgan bo'lardim.

– Asaringizni ko'rsaydim, deysanmi? – dedi hayajondan titrab chol. – Yo'q, aslo! Men hali uni yakunlaganim yo'q. Kecha oqshom, – deya davom etdi u, – Nuazezamga nuqta qo'ydim deb o'ylagan edim. Uning mijjalarida yosh qal-

qigandek, vujudiga esa jon kirgandek ko'ringan edi. Kokillari to'lqin urardi. Nafas olardi u! Garchand silliq matoda naturaning do'ng va dumaloq joylarini qanday tasvirlash yo'lini topgan bo'lsam-da, bugun ertalab, yorug'da xatolni payqadam. Eh, Nuazezani tirikdek chizmoq uchun qancha-qancha buyuk kolorit ustalari ijodini qunt bilan o'rganmadim, yorug'lik tushirishning piri bo'lgan Titsian kartinalarini qatlamma-qatlam ko'rib chiqmadim, tahlil qilmadim! Men shu buyuk musavvir singari yuzga ilk bo'yoq berishda yorqin va quyuq ranglarni qo'lladim, chunki soya – faqat bir tasodif, xolos, buni yodingda tut, qarog'im. So'ng ishimni yetgan joyidan davom ettirib, nimsoya va yorqin ranglarni oz-ozdan quyuqlashtirish evaziga qora va timqora soyalarni tushirdim; axir, hamma musavvirlar chizgan asarlarda naturaning soya tushgan joylari nur tushgan joylaridan boshqacharoq ashyodan: deylik, yog'ochmi, birinjmi yoki boshqa biror narsadan yaralgandek tuyuladi, ammo soya tushib turgan tanaga o'xshamaydi, aslo! Bu asarlarda mabodo tana holati o'zgarsa ham, avval soya tushgan joylari o'sha-o'sha – yorishmay qolaverishi bilinib turadi. Ko'pgina mashhur musavvirlar ham yo'l qo'ygani bu xatoni men chetlab o'tdim – kartinalarimda eng quyuq soya ortida ham juda yorqin rang ko'pirib turadi. Men, har bir chizgini hafsala bilan chizgani uchungina o'z ishimning ustasiman deb maqtanuvchi ko'pgina nodon musavvirlarga o'xshab, gavgani aniq chiziqlar bilan tasvirlamaganman, anatomik

mayda-chuydalargacha ijkilab o'tirmaganman; negaki, inson tanasi chiziqdargagina qarab qolgan emas. Bu borada haykaltaroshlar, biz, musavvirlardan ko'ra, haqiqatga yovuqroq boradi. Natura biridan boshqasiga o'tib turuvchi do'ngliklardan tarkib topgan. Nafsilamri, rasm degan narsa yo'q o'zi dunyoda! Kulmang, yigitcha. Bu so'zlar sizga har qancha g'alati tuyulmasin, bir kun kelib albatta mag'zini chaqasiz. Chiziq degani shunday bir vositaki, inson uning ko'magida jism sirtida yorug'lik jilvasini payqab oladi. Ammo boshdan-oyoq bo'rtiq tabiatda asli chiziq degan narsa yo'q: rasm faqat namuna olish, ya'ni biror jismni o'z muhitidan ajratib ko'rsatish bilan yaratiladi. Faqat yorug'likning tarqalishigina jismlarga namoyon bo'lish imkonini beradi! Shuning uchun men yaqqol chizgidan qochib, konturni ochiq va iliq nimtatir ranglar tumani bilan yashirganman, binobarin, hech kim kartinamda kontur bilan fon tutashib ketgan joyni barmoq nuqab ko'rsatib berolmaydi. Yaqin borib qarasangiz, bu asar go'yo paxmoq bir narsadek ko'rinadi, biroq ikki qadam orqaga chekinsangiz, hammasi aniq va yaqqol bo'ladi-qoladi – vujud harakatga keladi, shakllar bo'rtib chiqadi, havo epkin taratadi. Biroq, shunga qaramay, hali asardan ko'nglim to'lgani yo'q, gumon ezmoqda meni. Balki birorta ham chiziq tortmasligim kerakmidi, avval nurga chulg'algan bo'rtiq joylarga unnab, keyin, aksincha, soya tushib turgan joylarga o'tsam – ishni Nuazeza qaddi-bastining qoq o'rtasidan boshlasam durustmidi? Axir, dun-

yoning nazarkarda musavviri – quyosh aynan shunday yo'l tutmaydimi? O, tabiat, tabiat! Sening lip etib ko'rinib, so'ng g'oyib bo'luvchi etagingdan tutish biror marta biror kishiga nasib etganmikan? O'zing ham tan ol – ortiqcha bilim, xuddi nodonlik kabi, kishini gumon va inkor yo'liga yetaklaydi. O, asarim mukammal ekaniga shubham bor!

Chol bir lahza tin olib, so'ng yana so'zida davom etdi:

– Shu asarni boshlaganimga o'n yil bo'ldi, yigitcha. Biroq gap tirik tabiatni zabt etish haqida borar ekan, o'n yil nima bo'libdi! Pigmaliiondek qudrat sohibi birgina haykal yaratib, uni tiriltirish uchun qancha vaqt sarf etgani bizga qorong'i, axir!

Chol qattiq o'ygga cho'mdi, u ko'zini bir nuqtaga qadagancha qo'lida beixtiyor pakki o'ynatardi.

– U o'z ruhi bilan suhbat quryapti, – dedi Porbus pichirlab.

Shu on Nikola Pussen borlig'ini so'z bilan ta'riflab bo'lmas qiziqish egallab oldi. Ma'nosiz ko'zlarini bir nuqtaga qadagancha dong qotgan chol, Pussen nazdida, insondan-da oliyroq bir xilqat, boshqa bir olamga doxil g'aroyib daho edi. U ko'ngilda minglab mavhum fikrlar uyg'otardi. Vatan haqidagi qo'shiq badarg'a etilgan odamda qanday taassurot qo'zg'atishini so'z bilan ifodalash qanchalik qiyin bo'lsa, shu qabildagi jodulovchi ta'sirda o'zini namoyon etadigan ruhiy hayot hodisotlarini aniq ta'riflash ham shunchalik mushkul. Cholning san'atdagi eng zo'r kashfiyotlarga oshkora

nafrati, hech kimnikiga o'xshamagan fe'l-at-
vori, Porbusning unga bo'lgan ehtiromiyu uzoq
vaqt pinhon tutilgan, katta sabr va qunt eva-
ziga yaratilib, yosh Pussenni qattiq hayajonga
solgan va hatto Mabuzening «Odam Ato»sidan
ham zo'r chiqqan Bibi Maryamning boshi es-
kizini ko'rgach aytilsa, shubhasizki, bularning
bari san'at mulki sultonlaridan birining ilohiy
mo'yqalamidan shahodat berar, bu choldagi ja-
miki xislat inson tabiatining chek-chegarasini
buzib chiqqan edi. Nikola Pussenning jo'shqin
xayolida shu ajab zotning birgina jihati aniq,
yorqin aks etdi: bu – tug'ma musavvirning
barkamol timsoli edi, odatda bunday zotlar ix-
tiyoriga buyuk kuch-qudrat berilgan bo'ladi va
ular ba'zan shu kuch-qudratni suiiste'mol qi-
lishgacha borib yetadiki, oqibatda nainki oddiy
odamlar, hatto san'at shaydolari ham ularga
butun aql-idrokini topshirib qo'yib, hech vaqo
topib bo'lmas minglab toshko'chalarga er-
gashib ketadi, vaholanki, ilohsifat, devonavash
bu qalbning ko'ziga o'sha toshko'chalarda
olamshumul voqealar, mahobatli saroylar,
san'at mo'jizalari ko'rinadi. U tabiatan hazil-
kash va ko'ngilchan, boy va faqir bir xilqat!
Shunday qilib, serzavq Pussen nazdida, bu chol
daf'atan san'atning naq o'ziga – sir-u asrorlar,
tug'yon-u to'lg'onishlar, orzu-yu xayollar bilan
to'lib-toshgan san'atga aylandi-qoldi.

– Ha, azizim Porbus, – deya yana gap-
ga tushib ketdi Frenxofer, – shu vaqtgacha
chehrasiyu tanasi benihoya chiroyli, benuqson
bo'lgan sohibjamolni uchratish nasib etmadi

menga. Ayniqsa, uning terisi shunday bo'lsa-ki... Lekin qadimgi odamlar xayoloti yaratgan ilohiy Veneraning tirigini qaydan topay? Biz bu go'zallikni qanchalik ishtiyoq bilan izlaylik, faqat bo'laklarnigina topamiz, xolos! Oh, o'sha ilohiy sanamni, go'zallik farishtasini, xullasi kalom, idealni faqat bir marta va bir lahza ko'rmoq uchun butun mol-dunyomni nisor etgan bo'lardim. O, samoviy go'zallik, seni axtarib narigi dunyoga borishga ham roziman! Seni olib kelish uchun, Orfey singari, san'at jahannamiga tushishga ham tayyorman!

– Endi ketsak ham bo'lar, – dedi Porbus Pussenga, – bu yog'iga u bizni eshitmaydi ham, ko'rmaydi ham.

– Ustaxonasiga kirsak-chi? – dedi hanuz hayajonini bosolmagan yigitcha.

– O, qari tullak oldindan buning ehtiyot chorasini ko'rib qo'ygan. Uning xazinasini qat-tiq muhofaza qilinadi, kirib bo'pmiz u yerga! Bu fikr, bu istak faqat sizdagina paydo bo'lgan emas, men ham avval bu asrorxonaga kirishga urinib ko'rganman...

– Demak, sir yashirilgan ekan-da u yerga?

– Ha, – dedi Porbus. – Mabuze shogirdlikka olgan yakka-yu yagona odam shu – kekxa Frenxofer bo'ladi. Frenxofer Mabuzega ham do'st, ham homiy, ham padar edi, uning betiyiq ehtirosi yo'lida ozmuncha boyligini sarflamagan bu chol. Mabuze evaziga unga relyef sirini ochgan, bizga faqat orzu bo'lib qolayotgan – tanaga favqulodda hayotiylik va tabiiylik bag'ishlash mahoratini o'rgatgan. Darvoqe, Mabuze bu

mahoratni shu qadar puxta egallaganki, Karl Beshinchining saroyidagi marosimga tiktirib kiyib borishi kerak bo'lgan guldor shohi matoni sotib, ichib qo'yib, u yerga qog'ozdan libos kiyib borganini biron payqamagan ham. Chunki Mabuze qog'ozni naq guldor shohi matoga aylantirib yuborgan va g'aroyib libos hatto imperator nazariga tushib, u qari piyonistaning homiysiga bundan g'oyat zavqlanganini shipshib o'tgan. Biroq ba'zi «xira» kiborlar libosni ushlab ko'rmoqchi bo'lgan-u, oqibatda yolg'on fosh bo'lib qolgan... Frenxofer – tasviriy san'atga zo'r ehtiros bilan yondashuvchi odam, uning qarashlari boshqa hamkasblariga qaraganda keng va chuqur. U bo'yoqlar va chiziqlarning haqqoniy chiqishi ustida ko'p bosh qotirgan, natijada, o'z fikr-o'ylariga ham shubha bilan qaraydigan bo'lib qolgan. U noumid bo'lgan chog'larida rasm – aslida yo'q narsa, chiziqlar bilan faqat handasaviy shakllarnigina ifodalash mumkin, deb javraydi. Bu shunisi bilan ham yanglish fikrki, yakkash chiziq va qora dog'lar yordamida ham tasvir yaratsa bo'ladi. Axir, tasviriy san'at ham tabiatning o'zidek ko'pgina unsurlardan tashkil topgan: rasm bu – moya, kolorit esa – hayot, lekin moyasiz hayot hayotsiz moyaga qaraganda notug'aldir. Va nihoyat, musavvirga eng zaruri – betinim kuzatish va mashq qilishdir – agar aql va tuyg'u mo'yqalamga esh bo'lolmasa, zo'r musavvir, shu bilan birga telba ham bo'lgan cholimiz misol, shubhalar girdobiga tushib qolish hech gap emas. Bu g'aroyib musavvir, taassufki, boy

bo'lib tug'ilgan, shu sabab ham uning ortiqcha o'ylashga imkoni bor. Siz unga taqlid qilmang! Ishlang, ter to'king! Musavvir qo'lda mo'yqalam bilangina o'y-xayolga berilishi kerak.

– Biz o'sha xonaga albatta kiramiz! – deya birdan xitob qildi Pussen. Shu damda Porbusning gapi uning qulog'iga kirmas, o'zining qaltis niyati yo'lida har nega-da shay edi.

Porbus yigitchaning zavq-shavqiga shuncha-ki jilmayib qo'ydi va kelib turing, deya u bilan xayrlashdi.

Nikola Pussen sekin qadam tashlab de-lya-Arp ko'chasiga qaytdi va xayol surganicha o'zi yashab turgan odmi mehmonxonaga qanday yetib kelganini sezmay qoldi. U omonat zindandan shosha-pisha eng yuqori qavatga chiqdi va barcha eski Parij uylari kabi yog'och to'sinlari ochilib turgan, behafsala yopilgan tom ostidagi g'aribgina hujraga kirdi. Shu zahotiyoq yagona xira deraza oldida turgan qizga ko'zi tushdi; eshik g'ichirlashi bilanoq bu sevgidan entikkan qiz sapchib oyoqqa turgan, musavvirni eshik bandini tutishidanoq tanigan edi.

– Senga nima bo'ldi? – dedi u Pussenni ko'rar-ko'rmas.

– Men, men, – deya qichqirib yubordi yigit azbaroyi quvonib ketganidan nafasi qaytib, – o'zimni musavvir deb his etdim! Shu vaqtgacha shubhalanib yurardim, ammo bugun ertalab o'zinga ishonch paydo bo'ldi. Mendan buyuk musavvir chiqsa ehtimol! Ha, Jilletta, biz boylik va baxtga ega bo'lamiz! Bu mo'yqalamlar hali bizni oltinga ko'mib tashlaydi!

Shunday deya yigit birdan jim bo'lib qoldi. U o'zining buyuk orzularini ayanchli ahvoli bilan taqqoslar ekan, jiddiyat va shijoat ufurib turgan chehrasidan shodlik ifodasi aridi. Xona devorlariga yopishtirilgan silliq gulqog'ozga qalam bilan eskizlar chizib tashlangan edi. Yigitning hatto to'rt dona ohorli polotnosi ham yo'q edi. Bo'yoq o'sha davrlarda o'ta qimmat bo'lib, boyaqishning palitrasi ham deyarli bo'm-bo'sh turardi. Garchi shunday muhtojlikda kun kechirsa-da, u o'zini katta ma'naviy xazina egasi, har ishga qurbi yetadigan zo'r iste'dod sohibi deb bilardi. Bir zodagon tanishi, to'g'rirog'i, o'z iste'dodi orqasidan Parijga kelib qolgan Pussen aksar ayollar bu yerda hasham ketidan quvib, hissizligini ko'z-ko'zlab yurgan bir vaqtda, yosh jonini ulug' bir insonga baxshida etib, barcha jabru jafolarni so'zsiz bo'yniga olgan, muhtojlik azobini birga-birga tortadigan, bu zotlarning injiqliklarini miq etmay ko'taradigan, qashshoqlik va muhabbat sinovlariga dosh beradigan ayollar toifasidan bo'lgan oliyjanob va tanti bir qiz bilan tasodifan tanishib, uni sevib qoldi. Jillettaning lablarida o'ynagan tabassum quyosh shu'lalari bilan bahs boylab, chordoqdagi bu hujrani tilla misol tovlantirib yubordi. Quyosh-ku har doim ham charaqlayvermaydi, ammo butun borlig'ini yolg'iz muhabbatga baxsh etgan, o'zining baxtu kulfatiga birdek ko'nikib ketgan bu qiz doim shu yerda – san'at sirlarini egallashdan ham burun sevgi dunyosiga g'arq bo'lgan iste'dod egasiga taskin berib charchamaydi.

– Kel bag‘ringa, Jilletta, so‘zimni eshit, – dedi yigit.

Qiz quvonchdan yal-yal yonib yigit sari otil-di-da, uning tizzasiga o‘tirib oldi. U maftunkor, ham jozibador edi; bahor misol go‘zal bu pariga pokiza qalb nuri bilan yo‘g‘rilgan ayol latofati bus-butun baxsh etilgan edi...

– Yo xudoyim, – deya oh urdi yigit, – qanday qilib aytaman...

– Qanday gap u? – deb so‘radi qiz. – Qani, aytsang-chi!

– Pussen xayolga cho‘mib turardi.

– Nega jimsan? – dedi qiz betoqatlanib.

– Jilletta, go‘zalim!

– Oh, nima qilay senga, ayt?

– Men...

– Agarda sen avvalgi safargidek menga qarab rasm solmoqchi bo‘lsang, – dedi qiz labini cho‘chchaytirib, – bunga sira ko‘nmayman, chunki bunday damlarda ko‘zing loqayd bo‘lib qoladi, menga boqib turasan-u, xayoling menda emas...

– Demak, menga boshqa ayol naturachi bo‘lsa, shu yoqar ekan-da senga?

– Ehtimol. Juda xunuk bo‘lsagina.

– Ayt, kelajakda shon-shuhratga burkani-shim, buyuk musavvir bo‘lib tanilishim uchun, – dedi Pussen birdan jiddiylashib, – boshqa musavvir oldida yalang‘och turishga rozi bo‘larmiding?

– Nima, meni sinab ko‘rmoqchimisan? – deb so‘radi qiz. – Hecham rozi bo‘lmayman-da, buni o‘zing ham bilasan-ku.

Pussen juda katta shodlik yoki qayg'uga duch kelgan odamdek boshini egib oldi.

– Quloq sol, – dedi Jilletta Pussenning eski kamzuli yengidan tortib, – Nik, sen uchun o'zimni hatto qurbon qilishga tayyorman, ammo hali tirik ekanman, muhabbatimdan voz kecha olmayman...

– Muhabbatdan voz kechish?! – deb baqirib yubordi Pussen.

– Boshqaning oldida yalang'och bo'lsam, meni sevmay qo'lasan-da! Keyin o'zim ham o'zimni senga munosib ko'rmay qolaman. Sening xusuringga itoat etish, bu – tabiiy va jo'ngina hol, shunday emasmi? Har qanday vaziyatda ham sening xohishingni mamnunlik bilan va hatto faxrlanib ado etaman. Ammo boshqa odam uchun... Qanday razolat!

– Kechir meni, azizam Jilletta! – deya o'tina ketdi musavvir tiz cho'kib. – Shuhrat qozonganidan ko'ra, muhabbatingni asrab qolganim afzal. Sen men uchun mol-dunyoyu shon-shuhratdan baland turasan! Qani, mo'yqalamlarimni uloqtir, eskizlarimni yoqib yubor. O, qattiq yanglishdim! Men asli seni sevish uchun yaralganman. Men – musavvir emas, muhabbat gadosiman. San'ati ham, uning sirlari ham ordona qolmaydimi!

Qiz quvonch va hayratga ko'milgancha oshig'iga mahliyo bo'lib qoldi. Qiz g'olib kelgan edi, uni deb san'atdan voz kechildi, san'at uning oyoqlari ostiga nisor etildi, buni ich-ichidan his qilib turardi u.

– Har qalay, o‘sha musavvir – munkillab qolgan chol, – dedi Pussen yana avvalgi xayollariga qaytib, – sening vujudingda barkamol shakl-nigina ko‘radi. Sendagi go‘zallik shu qadar mukammalki...

– Muhabbatni deb nimalarga rozi bo‘lmaysan! – deya xitob qildi qiz, uni deb bor-budidan kechgani uchun sevgilisini taqdirlamoq uchun boya-gi gaplarini qaytib olishga ham tayyor bo‘lib. – Ammo unda men adoi tamom bo‘laman. – Oh, seni deb adoi tamom bo‘lish! Axir, bundan ortiq baxt bor ekanmi! Biroq sen meni unutib yuborasan... O, juda chakki o‘ylabsan buni!

– Seni sevaturib ham shunday xayolga bordim-a, – dedi yigit pushaymonlik bilan. – Razil odamman!

– Kel, Arduen amakiga maslahat solib ko‘ramiz, – dedi qiz go‘yo chorasini topgandek.

– E, yo‘q! Bu gap ikkimizning o‘rtamizda qolishi kerak!

– Unda... mayli, borganim bo‘lsin, ammo sen men bilan ustaxonaga kirmaysan, – dedi qiz qat’iy ohangda. – Eshik ortida xanjar bilan hushyor bo‘lib tur. Mabodo qichqirsam, chopib kirasan-da musavvirni o‘ldirasan.

Sirni ochish ishtiyoqi bilan yongan Pussen Jillettani suyib bag‘riga tortdi.

«Endi mendan ko‘ngli qoladi», deb o‘yladi Jilletta yigit ketgandan keyin.

Qiz rozi bo‘lganiga afsus chekdi. Ammo tezda uni bu pushaymondan ham kuchliroq vahima bosdi. U xayolida bosh ko‘targan dahshatli fikrni asabiy tarzda haydamoqchi bo‘lardi. Nikola unchalik ham hurmatga loyiq emas ekan,

degan fikr Jillettaning xayoliga kelgan ondanoq go'yo uni avvalgiday qattiq sevmayotgandek tuyulmoqda edi.

II. Katrin Lesko

Pussen bilan uchrashuvidan uch oy o'tgach, Porbus ustoz Frenxoferni ko'rgani bordi. Chol yana ittifoqo qattiq umidsizlikka tushib qolgan, buning sababi, tabiblar ta'biricha, hazmi taomning buzilishi yoki ob-havo ta'sirida, spiritualistlar ta'biricha esa, ma'naviy tabiatimizning nomukammalligida edi. Chol barchadan sir tutayotgan kartinasini tugataman deb toliqib qolgan edi. U emandan yasalgan qora charm qoplamali keng oromkursida ma'yusgina o'tirar, Porbusga ham g'ussanishin kishi nazari bilan boqar edi.

– Nima gap, ustoz? – dedi Porbus unga. – Bryugadan keltirgan och ko'k bo'yog'ingiz yaxshi chiqmadimi? Yoxud o'zingizning oq bo'yog'ingizni mayda qilib tuyolmadingizmi? Yoki moy aynigan ekanmi? Yo mo'yqalam dag'al chiqdimi?

– Evoh! – deya xitob qildi chol. – Asarimni yakunladim deb o'ylagan edim, biroq xulosa-ga shoshibman chog'i, lekin baribir nima kamlik qilyapti, shuni aniqlamaguncha tinchimayman. Men eng go'zal ayollar orasidan modelllar topish va ularni kartinamga taqqoslash uchun Turkiya, Yunoniston hamda Osiyoga sayohat qilmoqchiman. Ehtimol, yuqoridagi sanam, – dedi u labiga tabassum yugurib va ko'rsatkich barmog'i bilan ustaxonasiga ishora qilib, – go'zallikning jonli timsolidir. Men gohida daydi shabada esib ayolni uyg'otib yu-

borsa-yu u g'oyib bo'lib qolmasa edi deb va-himaga tushaman...

Chol go'yo hozir yo'lga otlanadigandek sap-chib o'rnidan turdi.

– O'ho', – deya xitob qildi Porbus, – sizni yo'l chiqimi va zahmatidan xalos etish uchun zab vaqtida kelibman-da.

– Qanday qilib? – deb so'radi Frenxofer ajablanib.

– Eshitishimcha, navqiron Pussenni husnu malohatda beqiyos bir ayol sevar ekan. Biroq, qadrli ustoz, Pussen uni sizning huzuringizga yuborishga rozi bo'lsa, siz ham u holda polot-nongizni bizga ko'rsatishingizga to'g'ri keladi.

Chol bu gapdan go'yo karaxt bo'lib qoldi.

– Nima?! – dedi u nihoyat ayancli ovozda.
– O'z san'atim, o'z rafiqamni sizlarga ko'rsataymi? Baxtimni bokira asragan pardani chok-chok qilib yirtib tashlaymi? Axir, bu jirkanch fahsh emasmi! Mana, o'n yildirki, men shu ayol bilan tirikman, u meniki, faqat meniki, u meni sevadi. Har gal jilo berganimda u menga tabas-sum hadya etadi. Uning qalbi bor, men ato etganman bu qalbni. Agar mendan boshqa kishi unga nazar tashlasa bormi, uyatdan lov-lov yonadi u. Uni bizga ko'rsating deysan-a? Ayt-chi, qaysi erkak shunday tubanlikka boradi, mah-bubasi yo jufti halolini sharmandai sharmisor qiladi? Sen saroyga atab rasmlar ishlaganida, ularga qalbing qo'rini bermaysan, a'yonlar-ga bo'yoq chaplangan qurchoqlarni sotasan, xolos. Mening rangtasvirim – rangtasvir emas, tuyg'uning, ehtirosning o'zginasi! Mening ijod-

xonamda dunyoga kelgan Nuazeza hayo-iffatini saqlab o'sha yerda qoladi, tashqariga esa faqat libosga burkanib chiqishi mumkin. Go'zallik va ayol faqat sevgilisi oldida yalang'och holda namoyon bo'la oladi. Nahotki, biz Rafaelning modelini yoxud Ariosto yaratgan Anjelika, Dante yaratgan Beatriche siymosini bilolsak! Yo'q! Bizga faqat bu ayollarning tasviri yetib kelgan, xolos. Mahkam tambalangan anovi xonada asrayotgan asarim esa musavvirlik tarixida yakka-yagonadir. Bu kartina emas, bu – ayol, men u bilan yig'layman, kulaman, suhbat quraman, xayol suraman. Sen o'n yillik baxtimdan, hech gap bo'lmagandek, oppa-oston voz kechishimni istayapsanmi? Men bir zumda ham otalik, ham jazmanlik, ham xudolikdan ayrilaymi? Bu ayol oddiy tasvir emas, u – san'at. Mayli, kel-sin o'sha yigitchang, men unga bor xazinamni, kimsan Korrejo, Mikelanjelo, Titsian kartinalarini beray, xoki poyini o'pay; ammo uni o'zimga sherik qilmayman! Xo-xo, men musavvirdan ko'ra ko'proq oshiqman. Ha, so'nggi nafasimni olayotganda go'zal Nuazezamni yondirib tashlashga qurbim yetadi, lekin unga yot erkak – yigit yo musavvir nigohi tushishiga yo'l qo'ymayman – yo'q, aslo! Kimki uni nigohi bilan tahqirlasa, ertasigayoq ajalini kutsin! Agar uning qarshisida tiz cho'kmasang bormi, seni – do'stimni ham o'sha lahzadayoq bo'g'ib o'ldiraman. Nahotki, sen tentaklar malagimga sovuq nigoh tashlashi va nodonlarcha tanqid qilishiga yo'l berishimni xohlayotgan bo'lsang! Evoh! Muhabbat bu – sir, u qalbning tub-tubida yashay

oladi, xolos, erkak hatto do'stiga ham mana, men sevgan ayol – shu, deya sirni ochsa, shu onning o'zidayoq muhabbat o'ladi-yo'q bo'ladi.

Chol go'yoki yasharib ketdi: ko'zlari chaqnab, jonlandi, so'lg'in yonoqlariga qizil yugurdi. Uning qo'llari asabiy titrar edi. Zo'r hayajon ila aytilgan gap-lardan aqli shoshgan Porbus cholning bunday g'aroyib, teran hislariga nima deyishni bilolmay turardi. Frenxoferning eshushi joyidami yo aqldan ozganmi u? Nima, uni ijodkor taxayyuli domiga tortganmi yoxud bu zo'r bir asarga «homilador» bo'lgandagi kuchli fanatizm asoratimi? Bunday bema'ni ehtirosga g'arq bo'lgan savdoyi bilan bir bitimga kelishdan umid qilsa bo'ladimi yoki yo'qmi?

Shunday fikrlar iskanjasida qolgan Porbus cholga:

– Siz bizga bir ayolni ko'rsatsangiz, biz ham sizga bir ayolni ko'rsatyapmiz-ku! – dedi. – Axir Pussen ma'shuqasini sizning nigohingizga shunchaki havola qilayotgani yo'q!

– Ma'shuqasimish! – deya e'tiroz bildirdi Frenxofer. – Bu qiz ertami-kechmi yigitchaga albatta xiyonat qiladi. Nuazezam esa menga bir umr vafodor bo'lib qoladi.

– Keling, – dedi Porbus, – bu haqda boshqa so'zlashmaylik. Ammo go'zallikda benuqson ayolni Osiyoda topolmasdan avval ham asaringizni yakunlayolmay bu dunyo bilan xayrlashingiz mumkin.

– O, kartinam yakunlangan, – dedi Frenxofer. – Agar unga nigoh tashlash biror kimsaga nasib etsa, u parda ortidan baxmal to'shakda yot-

gan ayolni ko'radi. Uning yonida esa muattar bo'y taratuvchi sepoya tilla mujmar. Shunda chiyratma ip shokilasidan tortib pardani ochib yuborgisi keladi kishining, «Sohibjamol Nuazeza» laqabli go'zal ishrat parisi Katrin Lesko xuddi nafas olayotgandek – siynasi ko'tarilib-tushayotgandek tuyuladi unga. Ammo men shunga ishonch hosil qilmoqchimanki...

– Mayli, mayli, Osiyodan qolmang, – deya Frenxoferning so'zini bo'ldi Porbus uning ko'zlarida sarosima ko'rib.

So'ng u eshik tomon yo'naldi.

Ayni paytda Jilletta bilan Nikola Pussen Frenxoferning uyi qarshisida turardi.

Ichkariga kirishga chog'langanlarida qiz mu-savvirning qo'lini qo'yib yubordi-da, ko'ngli bir noxushlikni sezgandek qo'qqis ortiga tisarildi.

– Nega keldim o'zi bu yerga? – dedi u hadik bilan ko'zlarini yigitga tikib.

– Jilletta, ixtiyoring o'zingda dedim-ku, qanday qarorga kelma – men roziman. Sen mening or-nomusim, shon-shuhratimsan. Uyingga qaytib ket, balki shunda baxtiyorroq bo'larman, sen agar...

– O, sen shunday deb turgan bir paytda menda ixtiyor qolarkanmi? Yosh bolaga aylanaman-qolaman. Mayli, kiraylik, – dedi u, chamasi, o'zini o'zi majburlab. – Hatto muhabbatimiz zavol topib, qattiq pushaymon cheksam ham – xohishingni bajarganim senga mashhurlik olib keladi-ku, to'g'rimi? Kiramiz! Agar rasmlaringda mendan biror asar qolsa ham, demak, men yashashda davom etaman!

Eshikni ochgan oshiq-ma'shuqlar Porbusga to'qnash kelishdi. Porbus ko'zlari jiqqa yosh Jillettaning go'zalligiga lol qolgan ko'yi bu vujudi titrab turgan qizni cholning yoniga yetaklab kirdi.

– Mana u! Nahotki, bu qiz dunyoning butun durdonalariga arzimasa! – dedi u Jillettani ko'rsatib.

Frenxofer sapchib tushdi. Qaroqchilar o'g'irlab, qulfurushga keltirgan gurji qizdek hurkak va ma'suma Jilletta uning qarshisida qimtinib turardi. Qizning yuzi hayodan alvonlandi, ko'zlarini yerga qadadi, qo'llari bemajol osilib qoldi. Ibosiga qilingan tajovuzga unsiz ta'nasi – shashqator yoshlari uning yuzlarini yuwardi. Ayni damda Pussen bu bebaho xazinani kulbasidan olib chiqqani uchun o'zini o'zi la'natlardi. Chol, musavvirlar odaticha, qizni nigohi bilan yechintirib, badanidagi har bir a'zoni hatto sir tutiladigan joyigacha chamalaganda, ko'zlari yashnab-yasharib ketdiki, buni ko'rgan Pussenning yuragiga azobli shubhalar xanjar bo'lib sanchildi, botinidagi kurashda oshiq musavvirni yengdi. Shu tobda u chin muhabbatning o'rtaguvchi rashkini tuydi.

– Jilletta, ketdik bu yerdan! – dedi jonholatda.

Bu xitobdan quvonib ketgan qiz boshini ko'tardi, Pussenning chehrasiga ko'zi tushdi-yu, o'zini uning bag'riga otdi.

– Meni sevarkansan-da! – dedi u ko'z yoshlarini oqizib.

Iztirobini yashirish lozim bo'lganda shu qadar matonat ko'rsatgan qiz quvonchini pinhon tutishga qolganda kuch topolmagan edi.

– Oh, uni bir lahza mening ixtiyoringa bersangiz, – dedi qari musavvir iltijo-la, – uni Katrin Leskom bilan qiyoslab ko'rishni istardim. Mayli, shartingizga roziman!

Frenxoferning bu xitobida o'zi yaratgan ayolga muhabbati hamon ayon sezilib turardi. Chol, mening Nuazezam go'zalroq deb astoydil ishon-yapti va ijodi tirik qiz ustidan g'alaba qozonishiga hech shubha qilmayapti, deb o'ylash mumkin edi.

– Imkonni qo'ldan bermang! – dedi Porbus Pussenning kiftiga qoqib. – Muhabbat gullari foniy, san'at mevalari esa abadiydir.

– Nahotki, u menga shunchaki bir ayol deb qarasa! – dedi Jilletta Pussen bilan Porbusga sinchkov ko'z tashlab.

So'ngra u boshini mag'rur ko'tarib Frenxoferga chaqmoqdek nazar tashladi, ammo shu payt nogoh oshig'i bu yerga ilk bor kelganida Jorjonening asari deb o'ylagan kartinaga mahliyo boqib turganini payqab qoldi-yu, qat'iy dedi:

– Yuring, tepaga chiqamiz. U menga hech qachon shunchalik maftun bo'lib tikilmagan.

– Hoy qariya, – dedi Jillettaning g'azabidan xayoli tumtaraqay bo'lib Pussen, – mana bu xanjarni ko'ryapsanmi? Agar qizning zorlangan ovozini eshitsam, bu yuragingga sanchiladi, uyingni o'tda yoqaman, biror tirik jonni omon qo'ymayman! Tushunding-a?

Shu onda Pussenning ko'ngliga chiroq yoqsa yorishmasdi. Uning xitobi vahimali edi. Navqiron musavvirning so'zlari va, ayniqsa, so'zlariga monand qo'l siltashlari Jillettani xotirjam qildi, qiz sevgilisi uni san'at yo'lida,

shavkatli kelajagi yo'lida qurbon qilganini hatto kechirdi ham.

Porbus bilan Pussen ustaxona eshigi oldida mum tishlagancha bir-biriga tikilib turardi. Misr Maryamining muallifi avvaliga, «Oh, qiz yechinyapti... U qizga yoruqqa o'giril dedi! U qizni Katrin Leskosi bilan solishtiryapti...» deya shivirlashga jur'at etdi, ammo keyin Pussenning yuzidagi ayanchli g'am-g'ussani ko'rib, qaytib og'iz ochmadi. Garchand musavvirlar qarilik chog'i san'at bilan qiyoslaganda bir pulga ham arzimaydigan bunday xurofotlarga befarq bo'lib qolsa-da, Porbus harqalay Pussenga zavqlanib tikildi: yoqimtoy va sodda edi u. Yigit xanjar dastasini mahkam siqqancha eshikka quloq tutib turardi. Ikkovlon shu tobda mustabidni o'ldirish uchun panada payt poylab turgan fitnachilarga o'xshardi.

– Kiring, kiringlar! – dedi eshikni qiya ochgan chol baxtdan og'zi qulog'iga yetib. – Asarim – tengsiz, endi uni g'urur bilan ko'rsatsam bo'ladi. Hech qaysi musavvir hech qachon go'zal ishrat parisi – mening Katrin Leskomga teng raqib yaratolmaydi!

Sabrsiz ishtiyoq alangasida qovrilayotgan Porbus bilan Pussen ustaxonaga otilib kirdi – har to'rtala devoriga ham kartinalar osilgan, chang-chung bosgan keng bir ivirsiq xona. Ular oldin yarim yalang'och ayolning bo'y baravar tasviri qarshisida mahliyo bo'lgancha turib qolishdi.

– O, bunga ahamiyat bermasangiz ham bo'ladi, – dedi Frenxofer. – Men tik turgan ayol qo-

matini o'rganish uchungina chizganman buni, o'zi sariq chaqaga ham arzimaydi. Mana bular esa kaminaning xatolari, – deya so'zida davom etdi chol devorlarni qoplagan ajoyib asarlarni ko'rsatib.

Frenxoferning shunday kartinalarga nafrat bilan bepisand qarayotganidan ajablangan Porbus bilan Pussen endi chol bebaho deb ta'rif etgan asarni axtarmoqqa tushishdi. Ammo uni topa olishmadi.

– Mana, qarang! – dedi sochi hurpaygan, yuzi bo'g'riqqan, ko'zlari chaqnagan chol ishq sharobidan mast yigitdek entika-entika nafas olar ekan. – Ha, – deya xitob qildi u, – bunday barkamollikni kutmagan edingizmi? Qarshingizda turgan ayolga boqmay hadeb bir nimani axtarasiz! O, bu polotnoda shu qadar teranlik borki! Havo-chi, havo? U siz nafas olayotgan havodan sira farq qilmaydi. San'at qayerda, deysizmi? San'at yo'q – g'oyib bo'lgan. Mana – qizning badani. Mana – havo! U qiz badanini siypalab, chirmab olmoqda, buni sezyapsizmi? Osmondagi yulduzlar ham axir mana shunday – suvdagi baliqlar kabi tasavvur uyg'otmaydimi? Ayol va boshqa buyumlar bir-biridan ajralib turganiga nima deysiz? Bu qaddi-qomatni quchib olish mumkindek tuyulmayaptimi sizga? Quyosh nuri biror jismga tushganida u qanday ko'rinish olishini bekorga yetti yil o'rganmadim, axir. Yoki mana bu sochlarga boqing, naqadar nurga yo'g'rilgan u! Qarang, ayol xo'rsinib qo'ygandek bo'ldi!.. Ko'kragini... qarang! Oh, uning qarshisida tiz cho'kmaydigan

odam bormikan dunyoda? Badani titrab ketdi! Mana ko'rasiz, u hozir o'rnidan turadi!..

– Biror nimani ko'ryapsizmi? – deb so'radi Pussen Porbusdan.

– Yo'q. Siz-chi?

– Hech narsani...

Chol o'ziga takror-takror hamd-u sano o'qi-shi uchun imkon berib, ikki musavvir polotnoga tik tushayotgan nur taassurotni buzmayotganmikan, deya tekshira boshlashdi. Ular dam o'ngga, dam so'lga o'tib, goh egilib, goh rostlanib kartinaga obdon tikilishdi.

– Ha, ha, bu – kartinaning o'zi, o'zginasi, – dedi Frenxofer ularning bunday sinchkovligini yanglish tushunib. – Qarang, mana bu – qasnoq, mana bu – molbert, mana bular esa mening bo'yoqlarim va mo'yqalamlarim...

U hatto mo'yqalamlardan birini olib, soddaddillarcha musavvirlarga ko'rsatib ham qo'ydi.

– Qari tullak ustimizdan kulyapti, – dedi Pussen yana polotno qarshisiga kelib. – Bu yerda faqat girdi ko'plab g'alati chiziqalar bilan o'ralgan, pala-partish surkalgan bo'yoq chaplanmalarini ko'ryapman, xolos.

– Yo'q, biz xato qilibmiz, qarang! – deya e'tiroz bildirdi Porbus. Ular yaqinroq borib kartinaning bir chekkasida bo'yoqlarning majhul tumani aro yalang'och oyoq uchini ko'rib hayratdan angrayib qolishdi. Aql bovar qilmasdi: jinday-jindaydan qadam-baqadam yakson etilgan asarning bu parchasi qanday omon qoldi ekan?! Yonib kul bo'lgan shahar vayronalari orasidan topilgan Venera haykalining qoldig'i

kishida qanday taassurot uyg'otsa, kartinadagi oyoq ham xuddi shunday taassurot uyg'otardi.

– Buning tagiga ayol yashirilgan! – dedi Porbus kartinani yakunlash niyatida qari rassom ustma-ust chaplagan bo'yoqlar qatlamini Pus-senga ko'rsatib.

Frenxofer tushib qolgan jazavani sal-pal anglay boshlagan ikki musavvir ittifoqo cholga o'girilib qaradi.

– U og'zidan chiqayotgan gaplarga chip-pa-chin ishonadi, – dedi Porbus.

– Ha, do'stginam, – dedi chol birdan o'ziga kelib, – ishonish zarur. Shunday san'at asari yaratish uchun zo'r ishonch-la ishga kirishi-shing, yolg'iz uning olamida yashashing lozim. Mana bu soyani tasvirlash ozmuncha vaq-timni olganmi, axir! Qarang, mana bu yer – yonog'iga, ko'z ostiga tushgan nimsoyaga; va-holanki, tabiatdagi bu xil holatni ko'chirish deyarli amrimahol. Sizningcha, men bunday ko'lankani chizishga osonlikcha erishdimmi? Yo'q, aslo! Qadrdon do'stim Porbus, ana endi asarimga diqqat bilan boqsang, do'nglik va dumaloqlik haqida aytgan so'zlarim senga ayon bo'ladi-qoladi. Ayol ko'kragiga qanday tabiiy yorug'lik tushirganimga razm sol, men yorqin shu'la va quyug bo'yoq orqali bu yerda mana shunday yorug'likni jamlay oldim, uni badan-ning kungay joylaridagi jilvakor oqlik bilan qo'shib yuborish va, aksincha, soyaki joylari-dagi bo'yoq bo'rtiqligi va dag'alligini silliqdash evaziga qiz vujudidagi har qanday rasm izi va notabniylikni bartaraf etdim va qarabsanki,

tana chiziqlari ham jonli shaklni oldi. Endi yaqinroq keling-da, uslubga diqqat qiling. Buni uzoqdan turib ko'rib bo'lmaydi. Mana bu yer, menimcha, shoyon diqqatga loyiq! – U musavvirlarga mo'yoqalam uchi bilan yorqin bo'yoqlarning quyuuq qatlamini ko'rsatdi.

Porbus cholning kiftini qoqib qo'ydi-da, Pus-senga o'girilib:

– Bizning nazdimizda u – buyuk musavvir, bilasizmi shuni? – dedi.

– U musavvir emas, ko'proq shoir shekilli, – dedi Pussen jiddiy tortib.

– Mana bu yerda, – dedi Porbus kartinaga barmoq tekkizib, – kurrai arzdagi san'atimiz nihoya topadi.

– Keyin esa arshi a'loga g'arq bo'ladi, – deya qo'shimcha qildi Pussen.

– Qariya bu polotno ustida ne-ne huzurbaxsh onlarni boshdan kechirmagan!

Biroq o'z fikr-xayoliga g'arq bo'lgan chol bu ikki musavvir suhbatiga quloq solmas, u tasavvurida gavalantirgan ayolga jilmaygan ko'yi termilib turar edi.

– Ertami-kechmi polotnoda hech vaqo yo'qligini sezadi u! – dedi Pussen.

– Polotnomda hech vaqo yo'q deysizmi? – deb qichqirib yubordi qo'qqis o'ziga kelgan Frenxofer bir musavvirga, bir kartinasiga qarab.

– Nima qilib qo'ydingiz? – dedi Porbus Pus-senga zarda bilan.

Chol yigitning qo'lidan mahkam ushlab oldi.

– Sen nimani ham ko'rarding, qishloqi, tirmizak, nodon, xumkalla! Bu yerga nega

kelding o'zi? Oh, ko'ngilchan Porbusim, – dedi u keyin musavvirga o'girilib, – siz-chi, siz ham mening ustimdan kulyapsizmi? Javob bersangiz-chi! Men do'stingizman, axir. Rostini ayting, kartinamni buzib qo'yibmanmi?

Porbus avvaliga kalovlanib g'o'ldiradi, biroq cholning bo'zdek oqargan yuzida dahshatli bir hadik zuhur etgach, u polotnoga imo qilib, bunday deyishga majbur bo'ldi:

– O'zingiz ham qarab boqing!

Frenxofer bir muddat kartinani ko'zdan kechirdi-yu, qo'qqis gandiraklab ketdi.

– Hech nima yo'q! Hech nima! Oh, o'n yillik mehnatim... – U o'tirib, ho'ngrab yubordi. – Demak, men bir ahmoqman, telbaman! Na iste'dod, na qobiliyat bor menda, behuda yashab yurgan puldor bir kimsaman, xolos. Evoh, men aslida hech nima yaratmabman-a!

U jiqqa yosh ko'zlari bilan kartinasiga qaradi. So'ng birdan qaddini g'oz tutib, ikki musavvirga yeb qo'ygudek tikildi.

– Isoning qoni va joni haqqi qasam ichamanki, sizlar hasadgo'ysiz! – deb qichqirdi u. – Sizlar kartinamni o'zingizniki qilib olmoqchisiz, shu niyatda buzib qo'ygansiz deb menga firib beryapsiz. Ammo men, men uni ko'rib turibman – u hayratomuz darajada go'zal ayol!

Shu payt Pussen bir burchakda yig'lab o'tirgan Jillettaning ovozi eshitib qoldi-yu uning qoshiga shoshildi.

– Nima bo'ldi senga, farishtam? – dedi musavvir yana oshiq yigitga aylanib.

– O‘ldir meni! – dedi qiz qahrli ovozda. – Chunki endi sendan nafratlanaman, seni avvalgidek sevish bu – sharmandalik! Senga su-yib qarayapman-u, ayni chog‘da jirkanyapman ham. Men seni sevaman, ammo sevgimni nafrat yengib borayotgandek!

Pussen Jilletta bilan ovora ekan, o‘g‘ri shar-pasini sezgan zargar tilla zeb-ziynatlar qutisi-ni qanday yashirsa, Frenxofer ham o‘z Katrini ustiga xotirjamlik bilan, avaylab yashil mato tortdi. Chol ikkala musavvirga xo‘mrayib qara-di, uning nigohi nafrat va shubhaga to‘la edi. So‘ng ularni ustaxona eshigigacha miq etmay, asabiy shoshqaloqlik bilan kuzatib qo‘ydi-da, uy bo‘sag‘asida:

– Alvido, azizlarim! – dedi.

Bunday xayrlashuvdan ikkala musavvirning ham ko‘ngli g‘ash tortdi.

Ertasiga Porbus Frenxoferdan xavotirlanib, xabar olgani uning uyiga bordi. Chol hamma kartinalarini yoqib yuborgan va o‘sha oqshom qazo qilgan ekan.

Parij, 1832-yil, fevral

Ruschadan
Poshali Usmon tarjimasi

DAHRIYNING IBODATI

(Hikoya)

Fanni qimmatli fiziologik nazari bilan boyitgan, yoshligidayoq ma'rifat markazi – Parij tibbiyot fakultetining shuhrati hisoblangan, Yevropa tibbiy xodimlarining ehtiromiga noil bo'lgan doktor Byanshon terapevt bo'lmagan avval uzoq vaqt jarrohlik qilgan edi. Talabalik yillarida u dong'i ketgan buyuk fransuz jarrohlaridan biri, fanda iste'dodini chaqindek zuhur etgan Deplen rahbarligida ishlardi. Hatto Deplenning dushmanlari uning boshqa birovga meros qoldirish imkoniyati bo'lmagan usulini ham o'zi bilan go'rga olib ketdi, deb e'tirof etishardi. Chunki Deplen tabiatidagi hamma narsa shaxsiy xususiyatga asoslangan edi: undagi mag'rurlik hayotligidayoq yolg'izlanib qolishiga sabab bo'lgandi, aynan shu mag'rurlik uning o'limidan keyingi shuhratini so'ndirgan edi. Uning qabri uzra kelajak avlodga fidoiy dahoning izlanishlari natijasida kashf etilgan sir-asrorlardan voqif etuvchi dabdabali haykal yo'q. Balki Deplenning iste'dodi uning e'tiqodiga mos kelgandir, shuning uchun ham u foniy bo'lgandir.

Deplenning nazdida zaminiy muhit o'zida hayot vujudga keltiradigan bo'shliq bo'lib, yer esa po'stiga burkangan tuxumga o'xshash narsa, shu boisdan u «avval tovuq paydo bo'lganmi

yoki tuxum?» degan savolga javob berish imkoniyatiga ega bo'lmisligi uchun tovuqni ham, tuxumni ham inkor etgan. U ibtidoiy tiriklik olamining yaratilishiga ham, inson jonining o'lmisligiga ham ishonmasdi. Deplen shubhalanmasdi, inkor qilardi. Bu ko'p olimlarga xos bo'lgan oshkora, kunday ravshan bo'lgan dahriylik edi: bular ajoyib kishilardir, lekin ular butun vujudi bilan dahriy bo'lib, dahriylikni dindor kayfiyatdagi kishilar qanday e'tiqod bilan rad etsalar, ular ham shunday targ'ib etuvchilardir. Deplenda boshqacha e'tiqodlarning tarkib topishi ham mumkin emasdi: axir u yoshligidan tiriklik olamining gultoji bo'lmish odamni dunyoga kelguncha ham, hayot paytida ham, o'lgandan so'ng ham, o'z tig'i bilan yorgan, uning butun a'zoi badanini miridan sirigacha sinchiklab o'rgangan edi, uning biror joyida ham diniy ta'limotlar uchun juda vojib bo'lgan o'sha «vohid jon» degan narsani uchratmagan. Kishi uzviyati (organizmi)dagi miya, asab, nafas olish – qon yurishi kabi uchta markazni, ulardan miya va asab bir-birining o'rnini bosa olish qobiliyatiga molikligini bilib olgach, Deplen hatto umrining so'nggida ko'rmoq va eshitmoq uchun ko'z va quloqning bo'lishi mutlaqo zarur emas, degan xulosaga keldi: ularning o'rnini, so'zsiz, quyosh o'rilmasi¹ bosadi. Shu tarzda inson uzviyatida ikkita jon topgach, garchi bu dalil bilan xudo haqidagi masalaga tegib ketmasa-da, Deplen bunda o'zining dahriyona

¹ Quyosh o'rilmasi – anatomiyada qorinda tutashgan vegetativ asablar tizimi. (*Tarj.*)

qarashlarining isbotini ko'rdi. Aytishlaricha, mashhur jarroh yo'l qo'ygan xatolari uchun sira pushaymon qilmasdan o'lgan ekan, taassufki, daholarning ko'pchiligi shunday olamdan o'tishgan.

Deplen shuhratini xiralashtirishga uringan dushmanlari bu yirik olim ko'p sohada bachkanalik qiladi, deyishardi. Uning tashqi tartibotidagi ziddiyatlarni bachkanalikka yo'yardilar. Hasadgo'y va kaltafahmlar buyuk aql egalarning qanday maqsadlar bilan ijod qilayotganini tushunib yetmaydilar; shuning uchun ham ular ana shunday yuzaki ziddiyatlarni ko'rib qolsalar, bas, darhol o'shalarga yopishib olishadi-da, ular asosida aybnoma tuzadilar va aybdorni qoralayveradilar. Shuncha ta'na-yu malomatlarga sabab bo'lgan komronlik, uddaburolikni oqlayversin, vosita va maqsad muvofiqligini kashf etaversin, lekin bo'htonlar bilan yuz bergan nizoli to'qnashuvlar asoratsiz qolmaydi. Bizning davrimizda Napoleonn o'z burgutini Angliya uzra parvoz qildirgani uchun qoralagan edilar: 1822-yilgina bizga 1804-yilning va Bulon desantlar kemasining mohiyatini ravshanlashtirdi.

Deplanning shuhrati va bilimi g'oyat ustuvor edi, binobarin, dushmanlari uning xulqidagi g'ayritabiiylikni nishonga olgan edilar. Darvoqe, Deplenda inglizlar shunchaki ekssentrizm (g'aroyiblik) deb ataydigan xususiyat bor edi, xolos. U goh fojianavis Krebilondek bashang, goh beparvolarcha kiyinar, bir qarasangiz izvoshda, bir qarasangiz piyoda yurardi. U gohi-

da choʻrtkesar, baʼzan ochkoʻz, moʻmin-qobil, ayrim hollarda esa xasis ham edi, ammo ayni zamonda oʻziga ehtirom koʻrsatib, sal vaqtda yordam qoʻlini choʻzgan quvgʻindi hokimlarga oʻz bisotini taqdim etishga tayyor boʻlib, hech kimga xos boʻlmagan, eng ziddiyatli xulosalarga sabab boʻlardi. Toʻgʻrisi, qandaydir qora orden tasma-sini qoʻlga kiritish payiga tushish unga – shifokorga munosib emas, bundan tashqari, saroyda choʻntagidan duolar kitobini tushurib yuborishga ham jurʼat etgan, lekin amin boʻlingki, u hayotda hamma narsa ustidan xufiyona kulardi. Deplen kishilarning yuzaki yaltiroqligini ham hech bir mubolagʻasiz kuzatish imkoniyatiga ega edi. U odamlarni hayotda qanday boʻlsa shunday, yaʼni eng tantanali va eng odatdagi vaziyatlarda koʻrardi. U johil odamlarni oʻlguday yomon koʻrardi. Ulugʻ kishining maʼnaviy xislatlari koʻp hollarda bir-biriga muvofiq tarzda namoyon boʻladi. Bordi-yu, bu buyuk namoyandalarning birortasida aqldan koʻra isteʼdod ustun boʻlsa, u baribir oddiygina «bu odam zakovatli» deyilgan kishiga nisbatan aqlli-roqdir. Zakovatlilik botiniy koʻrish qobiliyatiga tayanadi. Bunday koʻrish qobiliyati muayyan bir sohani bilish bilan chegaralangan boʻlishi ham mumkin: lekin gulni koʻrgan kishi quyoshni ham koʻradi. Kunlarning birida oʻzi tomonidan xalos etilgan diplomatning ogʻzidan: «Imperatorning salomatligi qalay?» degan savoliga, Deplen: «Saroy aʼyoniga jon kirdi, odamga ham jon kirdi», deb javob bergandi. Shunday fikr bildirgan kishi faqat jarroh

yoki faqat shifokorgina emas, balki katta aql egasi hamdir. Ana shuning uchun insonga xos narsani sabr-toqat bilan sinchiklab qarashga odatlangan kuzatuvchi uning o'zini hammadan yuqori qo'yishini kechiradi va buyuk jarrohdan uning o'zi bunga ishongandek, buyuk ministr chiqishi mumkinligiga ham ishonadi.

Deplenning hayotida zamondoshlari kuzatib yurgan bir qator jumboqlardan eng qizig'ini tanladik: hikoyamizning so'nggida uning yechimi beriladi, xuddi shu yechim Deplen xotirasini uning ba'zi bir bema'ni gunohlardan soqit qiladi.

Oras Byanshon Deplenning suyukli shogirdlaridan biri edi. Otel-De shifoxonasiga kirishdan avval Oras Byanshon tibbiyot talabasi sifatida Lotin mahallasidagi «Voqe uyi» nomi bilan mashhur bo'lgan pansionda faqirona hayot kechirardi. Sho'rlik yigit u yerda og'ir muhtojlikning azob-uqubatlarini boshidan o'tkazardi, lekin qudratli iste'dod sohiblari hayot doshqozonidan musaffo va mustahkam olmos yanglig' har qanday zarbaga bardosh beradigan bo'lib chiqishi lozim edi. Ular ehtiroslarining shiddatila lovullayotgan alangasida obdon chiniqib, o'z ishlariga vijdonan beriladilar, o'zlarining alangan hirsalarini muttasil mehnat pardasiga burkab, dastavval daholar qismatini belgilaydigan o'sha kurashga ko'nikib ketadilar. Oras rostgo'y odam bo'lib, vijdon, or-nomus bobidagi murosalaridan hazar qilar, va'dabozlik emas, balki amaliy ishni ma'qul ko'rardi, u do'sti uchun so'nggi yoping'ichini ham ayamaydigan, uning uchun vaqti va shirin uyqisidan kechadi-

gan kishilardan edi. Muxtasar qilib aytganda, u berganining evaziga qancha olarkan deb o'ylaydigan do'stlardan emasdi, zero ularni o'zlari berganiga nisbatan ko'proq olishga ishonchi komil edi. Oras do'stlarining ko'pchiligi unga nisbatan soxtalikdan xoli bo'lgan botiniy ehtiromini bajo keltirardi, lekin ularning ba'zi-birlari uni ayblashdan hayiqardilar. Ammo Oras o'z vazifalarini ozgina bo'lsa-da, bachkana-likka yo'l qo'ymasdan namoyon etardi. Uning puritanizm (sipolik) yoki va'zgo'ylikka mutlaqo hushi yo'q edi: maslahat berarkan, uni tumtaroq so'zlar bilan muzayyan etar, kezi kelganda ichish va tamaddi qilishni ham do'ndirardi.

Quvnoq ulfat, sovut kiygan askardek, uncha rasmiyatparast ham emas, rostgo'ylik va ochiqlikda dengizchiga o'xshamaydi, chunki hozir dengizchilar – ayyor diplomatlarning naq o'zi, o'z hayotida odamlardan hech narsani sir tutmaydigan yoqimtoy bu yigit esa ko'zlaridan kulgu, boshini baland ko'targan holda olg'a qarab bormoqda edi. Agar buni bir so'z bilan ifodalamoqchi bo'lsak: u ko'plab Oraslar uchun Pilad¹ edi, axir, bizning davrimizda qadimgi qasoskor ilohalarni o'zlarida chinakam mujasam etgan kishilar nasiya beruvchilardir. Oras o'z qashshoqligi ustidan jasoratning asosiy belgilaridan biri bo'lgan ko'tarinki ruh bilan g'olib kelardi, u hech narsasi yo'q kishilar singari boshqalardan qariyb hech qachon qarz olmasdi. U tuyaday sabr-qanoatli, ohuday chaqqon

¹ Qadimgi grek adabiyotida Orest va Piladning bir-biriga sadoqatli bo'lganlariga ishora. (*Tarj.*)

bo'lib, o'zining qat'iy e'tiqodliligi va jiddiyligi bilan o'zgalardan ajralib turardi. Mashhur jarroh doktor Oras Byanshonni do'stlari uchun yanada qadrdon qilgan o'sha fazilatleri va nuqsonlarini bilib olganda Orasning hayotida baxtli davr boshlanayotgan edi. Klinikaning bosh shifokori yosh yigitni o'z homiyligiga olarkan, demak, yosh yigitning mansabi ta'minlangan deyavering. Odatda Deplen shifokor sifatida boy xonadonlarga tashrif buyurganida Byanshonni o'zi bilan birga olib borardi. Bu qishloqi yigitning tobora Parij hayotining sir-asroridan voqif bo'lib borishidan tashqari, bunday tashrif paytlarida tushgan mablag'ning muayyan bir qismi ham odatda assistentga tegardi. Deplen bemorlarni uyida qabul qilgan vaqtida ham assistenti Byanshonning yordamiga tayanardi, u ba'zi bir bemorni mineral suvga olib borishni gohida unga topshirardi, qisqasi, u Byanshonga mijozlar tayyorlardi.

Oqibatda sal muddat o'tgach, mustabid jarroh yonida Zayd¹ paydo bo'lgandi. Biri sha'n va bilim cho'qqisini zabt etgan, katta boylik va shuhratga erishgan, boshqasi na boy va na mashhur. Parij osmonida zo'rg'a miltillagan bu ikki kishi bir-biriga yaqin bo'lib qolishdi.

Buyuk Deplen o'z assistenti Byanshon dan hech narsani yashirmasdi. Ustozi yonidagi o'rindiqla yoki Deplenning xonasidagi mashhur divanda qandaydir ayolning o'tirgan-o'tirmaganligi ham Byanshonga ma'lum edi: Byanshon o'zida sherga xos g'ayrat, ho'kiz-

¹ Zayd – Muhammad payg'ambarning quli.

ga xos kuchni mujassamlashtirgan bu mijoz sohibining, uning o'limiga sabab bo'lgan (Depleni yurak xurujidan o'lgan), ko'ksini haddan tashqari keng ochgan buyuk inson mijozining barcha tilsimotidan ogoh edi. Assistent bu bag'oyat zahmatkash zotning xulq-atvoridagi g'alati odatlarni, arziyas boyligini, bu ilm sohibida mujassam bo'lgan sayohatchining pinhoni umidlarini o'rganib oldi va shu bilan birga Deplenni asfalasofilinga jo'natadigan, faqat uning yuragi dosh beradigan tuyg'uni oldindan ko'ra bildi, chunki har holda u cho'yandan bo'lmasdan, balki tashqi tomondan cho'yanga o'xshardi, xolos.

Bir kuni Byanshon Deplenga Sen-Jak mahallasida yashovchi bechora meshkobchining toliqish va muhtojlikdan og'ir kasallikka chalinganini hikoya qilib berdi: ma'lum bo'lishicha, sho'rlik overialik 1821-yilning uzoq cho'zilgan qishini faqat kartoshka yeyish bilan o'tkazgan. Depleni o'zining barcha bemorlarini tashlab, Byanshon bilan birga otini holdan toydirgudek choptirib, Sen-Denida mashhur Dyubua tomonidan ochilgan shifoxonagacha yetib keldi. Depleni overialikni davoladi, u tuzalib ketgach, Depleni unga ot va bochkalar sotib olish uchun pul berdi. Keyinchalik o'sha overialik o'zining bir xususiyati bilan o'zini ko'rsatgan edi. Uning do'stlaridan biri og'rib qolganida, overialik uni darhol Deplenni huzuriga boshlab keldi va o'z xaloskoriga dedi:

– Uning boshqa birovga murojaat qilishiga sira-sira toqat qilolmagan bo'lardim.

Deplen o'zining qo'rsiligiga qaramasdan, overialikning qo'lini siqarkan, unga dedi:

– Ularning hammasini oldinga boshlab ke-laver.

U kantallikni¹ Otel-De klinikasiga qabul qil-di va unga nisbatan katta g'amxo'rlik ko'rsatdi. Byanshon o'z ustozining overialik meshkob-chilarga bo'lgan xayrixohligini bir necha bor ko'rgan edi. Lekin Deplenning Otel-De klini-kasidagi ishi o'ziga xos g'urur manbai bo'lganli-gi tufayli assistenti uning xulqidan g'ayriodatiy hech narsa sezmasdi.

Bir kuni ertalab soat to'qqizlarda Byanshon avliyo Sulpitsiy maydonidan o'tib borarkan, us-tozini ko'rib qoldi. Deplen o'sha maydon nomi-dagi cherkovga kirib ketayotgan edi. Hamisha kabriolet (ikki g'ildirakli yengil arava)dan foyda-lanadi Deplen bu gal negadir yayov kelib, cher-kovga Pti-Lion ko'chasidagi eshikdan, go'yoki shubhali bir uyga kirayotgandek, o'g'rincha kirib ketdi. Ustozining e'tiqodini, uning mod-diyunligini, so'zida qat'iy turishini bilgan sho-girdning ajablanishi o'rinli edi, u ko'rinmas-likka harakat qilib, o'zini cherkovga urdi va hayratga sazovor manzaraning guvohi bo'ldi: buyuk Deplen – ushbu dahriy, jarroh tig'ini o'zlariga yaqin yo'latmaydigan farishtalarni be-shafqat haqoratlaydigan bu yuzsiz masxaraboz shikastanafs bir alpozda tiz cho'kib turardi... tag'in qayerda deng? Bibi Maryam butxonasida! U o'sha yerda ibodat bajo keltirar, yo'qsil-be-choralarga xayr-u ehson ulashardi, uning bu

¹ Kantal – Fransiyadagi bir viloyat nomi.

amalida soxtalikdan nom-nishon ko'rinmayotgandi.

«Turgan gapki, u cherkovga Bibi Maryamning ko'zi yorishiga doir masalani oydinlashtirish uchun kirgan emas, – o'yladi ajablangancha Byanshon. – Basharti men uning Vujud-ul-iloh hayitida serhasham o'rtukning biror shokilasidan tutib turganini ko'rsaydim, bu kulgili bo'lur edi, xolos. Ammo shu topda cherkovda uning tanho o'zini guvohlarsiz ko'rish chindan ham ajab-da!»

Uni birov Otel-De klinikasi bosh jarrohi ortidan poylab yuribdi, deb o'ylamasin deya Byanshon iziga qaytib ketdi. Tasodifan o'sha kuniyoq Deplen uni restoranga tushlikka taklif etdi. Tushlik oxirida Byanshon suhbatni ustalik bilan ibodatga burarkan, uni riyokorlik deb atadi.

– Ha, bu riyokorlik nasroniylik dunyosi uchun Napoleonning barcha zuluklari so'rgan qonlaridan ham qimmatga tushadi, – dedi Deplen.

– Ibodat bu papaning ixtirosi bo'lib, oltinchi asrdan buyon mavjud; uning zamirida: «Ushbu mening vujudim erur» so'zlari yotadi. Uch yuz yil mobaynida cherkovga qarshi fitna uyushtirib kelgan bid'atchilar ustidan qozonilgan g'alabani nishonlamoqchi bo'lgan papa taxti muqaddas in'omlarni to'g'ri taqdim etish borasida dovlashib, Vujud-ul-iloh marosimini joriy etish jarayonida ozmuncha qon to'kishga to'g'ri keldimi. Papa joriy qilgan yangi tartib Tuluza grafi bilan albigoychilar o'rtasida urushlar kelib chiqishiga sabab bo'ldi: valdenslilar va albigoychilar uni e'tirof etishni xohlamasdilar.

Shunda Deplen dahriylarga xos piching qilarkan, uning og'zidan volterona istehzolar yomg'irday yog'ilardi: ochig'ini aytganda, bu «Sikator»ga¹ bo'lgan bir xunuk taqlid edi.

«Yo ajabo, nima bo'lyapti o'zi? – o'ylardi Byanshon. – Ertalab ko'rgan xudojo'y qani?»

U Deplenga hech narsa demadi, uni chindan ham avliyo Sulpitsiy cherkovida ko'rdimmi deya shubhalandi. Deplen Byanshonni aldamasa kerak: ular bir-birini juda yaxshi bilishadi, ular qancha-qancha muhim muammolar haqida necha bor fikr almashishgan, «narsalar tabiati haqida» talqin etadigan turfa tizimlarni muhokama qilishgan. Uch oy o'tdi. Byanshonning xotirasiga mahkam o'rnashib qolgan bo'lsa-da, u boshqa bu mavzuga qaytmadi. O'sha yilning o'zida bir kun Otel-De klinikasi-ning shifokorlaridan biri Byanshonning oldida savol bermoqchi bo'lgandek Deplenning qo'lidan ushladi:

– Ayting-chi, muhtaram ustoz, nechun avliyo Sulpitsiy cherkoviga kirgandingiz?

– Men bemor ruhoniyning huzuriga kirgandim, uning tizza qopqog'ida yiringli yallig'lanish paydo bo'lgan, – javob qaytardi Deplen, – Gersoginya Angulemskaya menga hurmat bajo keltirib, uni davolashni o'z zimmamga olishimni iltimos qildi.

Hujum qaytarildi. Berilgan izoh shifokorni qanoatlantirgan bo'lsa-da, ammo Byanshon ishonqiramadi.

¹ «Sikator» – fransuz adibi Pigo-Libren asari bo'lib, unda katolik cherkovining illatlari fosh etiladi.

«Hali shunaqami! U cherkovga bemor tizzalarini davolash uchun borarmish!» – dedi shogird o‘z-o‘ziga.

Byanshon Deplenning orqasidan kuzatib yurishga qaror qildi; u Deplenning avliyo Sulpitsiy cherkoviga qaysi kun va soatda kirganini esladi va bir yildan so‘ng xuddi shu paytda uning tag‘in cherkovga kelish-kelmasligini tekshirib ko‘rish uchun aynan shu vaqtda kelishga qaror qildi. Haqiqatan ham Deplen kelib tursaydi, cherkovga bu taxlit muntazam qatnashi muayyan holni ilmiy tadqiq qilish uchun asos bo‘lur edi, zero bunday kishining tafakkuri va harakati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ziddiyat bo‘lishi mumkin emasdi. Kelgusi yili aynan shu kun va shu-shu soatda, Byanshon o‘shanda Deplenning assistenti emasdi, jarrohning kabrioleti Turion va Pti-Lion ko‘chasi muyulishida to‘xtaganini hamda o‘z kabrioletidan tushib, iezuitlarga xos ehtiyotkorlik bilan cherkov tomoniga yo‘nalganini, so‘ngra Bibi Maryam mehrobi oldida yana ibodat bajo keltirayotganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Bu Deplen edi, ha, shaxsan o‘zi! Bosh jarroh, qalban dahriy, tasodifan xudojo‘y. Ahvol jiddiy tus olmoqda edi, mashhur olimning qaysarligi hamma narsani ostin-ustin qilib yubordi. Deplen ketgach, Byanshon cherkov anjomlarini yig‘ishtirayotgan ridoxona boshlig‘i oldiga kelib, undan xozirgina chiqib ketgan janob cherkovga muntazam ravishda kelib turadiganlardanmi, deb so‘radi.

– Mana, yigirma yildirki, shu yerda ibodat qilaman, – deya javob berdi ridoxona boshlig‘i,

– ana shu ibodatga janob Deplen bir yilda to‘rt bor keladi, bu uning buyurtmasi bilan bajo keltiriladi.

«Deplen buyurtma qilgan ibodat! – o‘yladi ketayotib Byanshon. – Bu (bir hisobda) muayyan darajada er ko‘rmagan ayolning homilador bo‘lishiday muhim gap, har qanday shifokorni shakkokka aylantirish uchun shu sirni bilib olish kifoya».

Vaqt o‘tmoqda edi. Garchi doktor Byanshon Deplening do‘sti bo‘lsa-da, ammo uning hayotining o‘ziga xos xususiyati haqida gaplashishga sira qulay fursat topolmas edi. Odatda, ular tabobat yoki kiborlarga xos bo‘lgan bir vaziyatda uchrashardilar; lekin, bunday vaziyatda do‘stlar yumshoq o‘rindiqqa yastanib, kamin oldida oyoqlarini isitayotib, bir-birlariga o‘z sirlarini oshkor etgan samimiy suhbatlarga imkoniyat bo‘lmaydi, albatta. Nihoyat, oradan yetti yil o‘tgach, olomon arxiyepiskop borgohini tor-mor etgan, 1830-yil inqilobidan so‘ng uning respublikachilar tashviqoti ta‘siri ostida ko‘z ilg‘amas son-sanoqsiz uylar uzra yaltiragan yashindek zarhallangan saliblarini mahv etganida, ko‘chalarda shakkoklik va isyon hukm surganda Byanshon Deplenni tag‘in o‘sha avliyo Sulpitsiy cherkoviga kirayotganda tasodifan ko‘rib qoldi. Uning ortidan kirib, u bilan yonma-yon turib oldi. Do‘sti zig‘ircha bo‘lsa-da hayratlanmadi, qiyofasida hatto hayrat alomati sezilmadi. Deplen buyurtma qilgan ibodatni ikkalasi bajo keltirishdi.

– Taqvodorona munofiqligingizning sababini bayon etolmaysizmi, do‘stim? – so‘radi Byan-

shon Deplendan, ular cherkovdan chiqqanlarida. – Men sizni, ha, sizni bu yerda ibodat chogʻida uch bor koʻrganman! Siz bu sirni menga oshkor etishingiz, sizning eʼtiqodingiz va axloqingiz oʻrtasidagi oshkora ziddiyatni izohlab bermogʻingiz lozim. Siz xudoga ishonmaysiz, ayni paytda ibodatga kelib turasiz! Qadrdon ustoz, lutfan javob bersangiz.

– Men sirdan oʻta dindor odam boʻlib koʻringanim bilan, haqiqatda esa sizning oʻzingizga oʻxshagan dahriyman.

Shunda Deplen Moler «Tartyuf»ining yangi noshiri singari siyosiy arboblarni haqoratlab, rosa pichinglar yogʻdirdi.

– Men sizdan bu haqda soʻrayotganim yoʻq, – dedi Byanshon. – Men sizning nega bu yerga kelganingizni va nima sababdan ibodat buyurtma qilganingizni bilmoqchiman.

– Xoʻp, aziz doʻstim, – dedi Deplen. – Mening bir oyogʻim toʻrda, bir oyogʻim goʻrda, binobarin, men endi hayotimni qanday boshlaganimni sizga hikoya qilib berishim mumkin.

Byanshon va oʻsha ulugʻ inson shu daqiqada Girdibod koʻchasi yoxud Parijning eng jirkanch koʻchalaridan birida edi. Deplen Byanshonga darvozadan aylana zinagacha uzun yoʻlak orqali kiriladigan haykalni eslatuvchi oʻsha uylardan birining yettinchi qavatini koʻrsatdi; odatda oʻsha pastak derazalar zinani zoʻrgʻa yoritar, darhaqiqat, qoqilib-suqilib yashovchilarning haqoratlariga beparvo edi. Bu uy yashil tusli edi; birinchi qavatlarda mebel sotuvchi savdogar yashardi, qolgan qavatlarda turfa qashshoq-

lar kun kechirardi. Deplen qo'lini keskin baland ko'tararkan, Byanshonga dedi:

– Men o'sha yerda, balandda ikki yil yashaganman.

– Bilaman d'Artez ham o'sha yerda turardi. Men ilk yoshligimda u yerda qariyb har kuni bo'lardim. Bizlar bu boloxonani «daholar qiyomiga yetadigan banka» deb atar edik.

– Xo'sh keyin-chi?

– Hozir ikkalamiz tinglagan ibodat hayotimdagi ayrim hodisalar bilan bog'liq. Ular o'sha, siz aytgandek, d'Artez yashagan boloxonada o'tkazgan vaqtinga to'g'ri keladi; huv anavi, tepasida ko'ylak osilgan, gullar solingan tuvak turgan joy. Qadrdon Byanshon, Parij qiyin sharoitda yashashga bardosh berishga majbur etdi. Men ochlik, yupunlik, yalangoyoqlik, pulsizlik – qisqasi, shafqatsiz muhtojlikni boshdan kechirganman. Ana shu «daholarni qiyomiga yetkazadigan banka»da cho'pday qotib qolgan barmoqlarimni nafasim bilan zo'rg'a ilitardim, o'sha tomonga siz bilan ham bir nazar tashlagim kelib ketdi. Qish shunday dahshatli keldiki, ishlayotganimda boshim uzra ko'tarilayogan bug'ni, sovuq paytlarda otlardan ko'tarilayotgan bug'dek sezilarli darajada chiqib turgan nafasimni ko'rardim. Shunday hayot bilan kurashish uchun tayanchni qaydan topishni ham bilmaysan kishi. Men yolg'iz edim, ko'maklashadigan hech kimsam yo'q, kitob sotib olish va tibbiyotdan olayotgan sabog'im uchun to'lashga bisotimda bir su¹ ham yo'q edi. Qiziqqon-

¹ Su – XIX asr fransuz pul birligi.

lik, shakkoklik va tinib-tinchimaslik xususiyatiga molik bo'lganligim uchun do'stlarim ham yo'q edi. Mening serzardaligim turmush mashaqqatlari va me'yoridan ortiq mehnat qilganligim bilan izohlanishini hech kim tan olmasdi: axir, men ijtimoiy hayotning eng quyi qatlamida edim, lekin uning ustki qatlamiga chiqishni xohlar edim. Shunga qaramasdan, sizdan yashiradigan sirim yo'q, sizning oldingizda riyokorlik qilishning ham aslo hojati yo'q, men muhtojlik botqog'iga botib, uzoq vaqt tentirab yurgan bo'lsam-da, har qanday cho'qqiga ko'tarila oladigan iqtidorli kishilarga xos bo'lgan mehribonlik va o'sha ezgu his-tuyg'ularni qalbim to'rida asrab keldim. Men olayotgan arzimas nafaqamdan boshqa narsani na qarindoshlarimdan, na jonajon shahrimdan kutishim mumkin edi. Men o'shanda nonush-ta uchun qotib qolgan nonni (u yangisiga ko'ra arzonga tushardi) Pti-Lon ko'chasidagi novvoydan sotib olar va sutga solib ivitar edim: shunday qilib ertalabki yemagim ikki suga tushar edi. Pansionda qiladigan tushligim kun osha bo'lib, u 16 suga tushardi. Shu zaylda har kuni 10 su xarajat qilardim. Engil-bosh va poyabzalga qanchalik ahamiyat berganligim o'zingizga ravshan. Bilmadim, keyinchalik u yoki bu hamkasbimizning xiyonatkorona harakatlarini ko'rganda boshdan kechirganimiz ranju alamni titilib ketayotgan boshmog'imizning ustimizdan makkorona iljayishini ko'rib qolganimizda yoki syurtugumizning qo'ltiqdan chok-chokidan ketishi quloqqa chalinganda boshdan kechir-

gan ranj-u alam bilan qiyoslasa bo'larmikan?

Men faqat suv ichardim, ammo ayni zamon-da Parij qahvaxonalariga bo'lgan hurmatim g'oyat baland edi. Faqat Lotin mahallasining Lukullarigina kirishi mumkin bo'lgan Soppi qahvaxonasi menga nimasi bilandir jannat-makon tuyulardi. «Nahotki, biror kun menga ham o'sha yerda bir finjon qaymoqli qahva ichish va bir qur domino o'ynash nasib etadi?» – o'ylardim men. Muhtojlik tug'dirgan o'zimda-gi g'azabni men mehnatga almashtirdim. O'z qadrimni oshirish va jamiyatda egallamoqchi bo'lgan o'rnimga munosib bo'lish maqsadi-da men imkoni boricha chuqur bilim olishga harakat qildim. Yegan nonimdan ko'ra yoqqan lampa yog'i ko'proq bo'lgan: tunlarni oqartirib mehnat qilgan paytimda ko'z o'ngimda yongan chiroq menga hamma narsadan ko'ra qimmat-ga tushgan. Bu davomli, beshafqat olishuv edi. Men hech kimda o'zimga nisbatan achinish his-sini uyg'otolmadim. Axir, do'st orttirish uchun yoshlar bilan tanish bo'lmoq kerak, ular bilan talabalar boradigan joyga borib, mayxo'rlik qi-lish uchun bisotingda bir necha su bo'lmog'i lozim. Mening esa hech vaqom yo'q edi! Ammo Parijda hech kim biror narsani tasavvur qilol-maydi. Qanaqa muhtojlikda yashayotganimni birovlariga hikoya qilib berishga to'g'ri kelganda men ko'pincha tomog'imga allanarsa tiqilib qol-gandek, o'zimni noqulay sezardim. Keyinchalik menga boy oilada tug'ilib, hech narsaga muhtoj bo'lmagan hamda bu masalaning uchlik qoi-dasidan bexabar kishilarni uchratishga to'g'ri

keldi: yosh yigitcha besh frankli chaqa ekyuga qanday munosabatda bo'lsa, jinoyatga o'shanday munosabatda bo'larkan. Ana shu boyvachcha ovsarlar menga: «Nega qarzga botib ketdingiz? Nega zimmangizga muncha mushkulotni oldingiz?» deyishardi.

Ular menga xalqning ochlikdan o'layotganini eshitib, nega u yog'li nonlardan sotib olmaskan, deb so'ragan malikani eslatardi. Non topish uchun bosh va qo'llardan boshqa na do'stlari, na bir miri na obro'yi bo'lgan, Parijda tamoman yolg'iz kun kechirayotgan, tag'in jarrohlik uchun juda qimmat oladi deb shikoyat qilgan boylardan birortasini ko'rsam degandim! Uning holi ne kechardi? O'ziga ovqat izlab qayerga borardi? Mening jahlim chiqqan va rahm-shafqatsiz kunlarim bo'lganini siz yaxshi bilasiz, Byanshon. Men bu bilan oq-suyaklar jamiyatiga xos bo'lgan yoshlikdagi beparvolik iztiroblari o'sha kibru havo uchun o'z-o'zimdand qasos olardim; mening shuhratga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarimga nafrat, hasad va bo'htonning qanchalik g'ov bo'lganini eslardim. Parijda ayrim kishilar sizning endigina egarga o'tirishga shaylanayotganingizni ko'rsa, birov kelib baringizdan tortadi, sizni yiqilib, boshi bilan yerga urilsin deb o'shaning o'zi ayilni bo'shatadi; boshqa birov esa otin-gizning tuyog'idan taqasini sug'uradi. Tag'in o'zgasi qamchiningizni o'g'irlaydi; eng rostgo'yi – qo'lidagi to'pponchasi bilan sizni qoq manglayingizdan otmoqchi bo'ladi. Azizim, sizda iste'dod bor, ammo hademay o'rtamiyona zot-

lar o'zlariga ustunlik qilayotganlarga nisbatan qanday dahshatli kurash olib borayotganini bilib olasiz.

Kechqurun siz yigirma besh luidor yutqazsangiz bormi, ertasiga sizni qimorbozlikda ayblaydilar, eng yaxshi do'stlaringiz esa yigirma besh ming frank yutqazdi deb gap tarqatishadi. Boshingiz og'risa bormi, sizni aqldan oza boshladi, deydilar. Mabodo og'zingizdan biror nojo'ya gap chiqib ketsa, naq sho'rtumshuqqa chiqaradilar. Bordi-yu, siz ana shu olchoqlar to'dasi bilan kurashga jahd qilsangiz, eng yaxshi do'stlaringiz sizni hech kimni yoqtirmaydi, o'zim bo'lsam deydi, deb dod solishadi. Xullasi kalom, sizning fazilatlaringiz kamchilik va nuqsonga, ezgu harakatlaringiz jinoyatga yo'yiladi. Basharti, siz birovni qutqarishga muvaffaq bo'lsangiz, sizni qotilga chiqaradilar. Garchi bemor rosmana hayotga qaytgan bo'lsada, siz uni sun'iy yo'l bilan tuzatgansiz, u kelajakda buning uchun jazosini tortadi, mabodo u hozir o'lmagan bo'lsa, keyinroq o'ladi, deyishadi. Qoqilib ketsangiz bormi: «Yiqildi» deyishadi. Bordi-yu, biror narsani ixtiro qilib, o'z huquqlaringizni himoya qilmoqchi bo'lsangiz, yoshlarning olg'a intilishiga to'sqinlik qiladi deydilar, mug'ambir degan nom chiqarasiz. Shunday qilib, do'stim, modomiki xudoga ishonmas ekanman, demak, odamga ishonish to'g'risida gapirma bo'ladi. Mening tanimda qanchadan-qancha bema'ni gaplarga sabab bo'lgan, Deplenga mutlaqo o'xshamagan Deplenning yashashini siz yaxshi bilasiz, axir. O'tgan ishga

salavot. Shunday qilib, men birinchi imtihonga tayyorlanayotib, sariq chaqaga zor bo'lib, mana shu uyda yashardim va ishlardim. Bilasizmi, men sira ilojini topolmay «Askarlikka borganim bo'lsin» deya qaror qilgan kishi holatiga tushgan edim. Menda yakka-yu yagona ilinj qolgan edi: «Men o'sha o'zim tug'ilgan shahardan Parij hayoti haqida mutlaqo tasavvurga ega bo'lmagan, oyiga o'ttiz frank olayotgan, jiyaning nuqul tovuq go'shti bilan kun kechirayotganiga qat'iy ishongan, endi bo'lsa uning ust-boshi haqida g'amxo'rlik qilayotgan keksa qishloqi xolalarimning sovg'asi bir jomadon ichki kiyimni olishim lozim edi. Jomadon men uyda bo'lmagan paytda kelgan ekan, men universitetda edim: ma'lum bo'lishicha, kira haqi qirq frank turarkan. Zinapoya tagidagi hujrada turuvchi darvozabon etikdo'z nemis o'sha qirq frankni to'lab, jomadonni olib qolgan ekan. Qanday qilib oldindan kira haqini to'lamay jomadonimni qo'lga kiritish haqida bosh qotirib, Fosse-Sen Jermen de Pri va Tibbiyot fakulteti ko'chasi bo'ylab uzoq vaqt sanqib yurdim, holbuki, men ichki kiyimimni sotib ham kira pulini to'lashim mumkin edi. Mening befahmligim birdan-bir iste'dodim jarrohlik ekanini yaqqol ko'rsatdi. Do'stim, nozik qalb egalari, birmuncha yuksak doirada faoliyat ko'rsatish uchun tug'ilgan iqtidorli kishilar ko'pincha bachkana odamlarga xos hiyla-nayrang, topqirlik, chapdastlik kabi xususiyatlardan mahrum bo'lishadi: bu taxlit mo'min-qobil daholar homiysi – tasodif, ular izlamaydi, ular topadi.

Men uyga kechroq qaytdim; sen-fluralik Burjua ismli meshkobchi qo'shnim ham shu paytda qaytgan edi. Bizlar shunchaki devor-darminyon qo'shniday bir-birining uxlayotganini, yo'talayotganini, kiyinishlarini eshitib turadigan, pirovardida bir-biriga o'rganib qolgan tanish edik. Qo'shnim xo'jayin meni ijara haqini uch marta orqaga surganim uchun haydamoqchi ekanini aytdi; men ertasigayoq jo'nab qolishim darkor edi. Ma'lum bo'lishicha, xo'jayin qo'shnimni ham kasbi ma'qul bo'lmaganidan ko'chib ketishga majbur qilayotganmish. Men hayotimdagi eng mashaqqatli tunni o'tkazdim. Arzimas uy anjomlari va kitoblarimni olib chiqish uchun hammolni qaydan topaman? Hammol va darvozabonga qayerdan pul to'layman? Qayerga borib bosh ursam ekan? Unsiz yig'lar-kanman, telbalarcha o'z-o'zimga faqat shu savollarni berardim. Oxiri uxlab qoldim. Muhtojlikda kishiga turfa tushlar baxsh etuvchi uyqi hamdard bo'ladi. Ertasiga ertalab nonimni suvga botirib tamaddi qilayotganimda xonamga Burjua kirib keldi.

– Janob talaba, – dedi u menga baland ovoz bilan, – men bir bechora, tashlandiq bola edim, Sen-Flurada panoh topib o'sdim, na otam, na onamni bilaman. Bunaqa bisotim bilan uylanishim mumkin emas. Sizning ham jonkuyarlaringiz uncha ko'p emas, mol-u davlatingiz ham yo'q hisobi. Gapimga quloq soling: pastda mening qo'l aravacham turibdi, uni har soatiga ikki su kira haqi berish sharti bilan ijaraga olaman; unga hamma anjomlarimizni joylashtir-

sa bo'ladı. Modomiki, bizni bu yerdan haydab chiqarishgan ekan, xohlasangiz turar joyni birga qidiramiz. Bu yer ham aytgulik jannatmakon joy emas-ku, axir.

– Bilaman, qadrdonim Burjua, – dedim men, – lekin bir narsa xalal beryapti; pastda ekyu turadigan ichki kiyimlarim bor, o'sha puldan uy haqini ham, darvozbonga to'lanadigan qarzni ham to'lashim mumkin edi. Biroq cho'ntagimda sariq chaqa ham yo'q.

– Yaxshi! Mening biroz tanga pulim bor, – javob berdi Burjua menga o'zining eskirgan va yog' bosgan charm hamyonini salmoqlab ko'rsatarkan. – Ichki kiyimingiz o'zingizga kerak bo'ladı.

Burjua mening xonam uchun ham, o'z xonasi uchun ham to'ladı, darvozboning qirq frankini ham berib qo'ydi. Keyin u ko'ch-ko'ronimizni va mening ko'ylaklarim joylashgan jomadonni aravachaga yukladi-da, uni ko'chalardan g'ildiratib ketdi, xonalar ijaraga berilishi haqida e'lon yopishtirilgan uylar oldidagina to'xtardi, xolos. Men bo'lsam o'sha uylarning har biriga kirib chiqar va ijaraga beriladigan xonani ko'zdan kechirardim. Tush bo'lib qoldi, ammo bizlar hamon boshpana izlab Lotin mahallasida behuda sanqirdik. Qayga bormaylik, ijara haqi oyoqdan olardi. Burjua meni vino do'koniga taklif etdi. Aravani eshik oldida qoldirdik. Kechga yaqin Rogan ko'chasining tijorat muyulishida men bir uyning eng so'nggi qavatida zinapoya maydonchasi bilan bir-biridan ajratilgan ikkita xona topdim. O'shalarni ijaraga oldik. Har birimiz yiliga oltmish frankdan ijara haqi beradigan bo'ldik. Endi menda

ham, do'stimda ham boshpana bor edi. Birga tushlik qildik. Burjua bir kunda ellik sugacha topar edi. Uning yuz ekyuga yaqin puli bor edi. Burjua ot va bochka sotib olishdek orzuni amalga oshirish arafasida edi. U mug'ambirona o'smoqchilab, mening barcha sir-asrorimdan voqif bo'lib oldi, qanday ahvolda ekanligimni bilib olgach, bir umrlik ezgu orzusidan vaqtinchacha voz kechdi, ana shuni eslasam, hanuzgacha butun vujudimni hayajon bosadi. Burjua yigirma ikki yil suv tashidi, lekin u o'zining yuz ekyusini mening kelajagim uchun qurbon qildi.

Shunda Deplen Byanshonning qo'lini qattiq siqib qo'ydi.

– U o'sha pullarni menga berdi, ular mening imtihonga tayyorgarlik ko'rishim uchun g'oyat zarur edi! Do'stim, bu odam hayotdagi burchimni, mening aql-u zakovatim, ehtiyojimning o'z ehtiyojlaridan muhim ekanligini fahmladi. U menga g'amxo'rlik qilar, meni «o'g'ilcham» deb atar, kitob sotib olishim uchun pul qarz berar, ba'zan esa qanday ishlayotganimni ko'rish uchun sekingina xonamga kirib kelar edi. Nihoyat, u menga onalarcha mushfiqlik ko'rsatib, men mahkum etilgan o'sha qashshoqlik va maza-matrasiz yemakni foydali va to'kin ovqatga almashtirish imkonini berdi. Burjuaning yoshi qirqlarda edi. Uning aft-angori o'rta asrlardagi shaharlikni eslatardi, manglayi bo'rtib chiqqan, rassom unga qarab bemalol Likurgni¹ chizishi mumkin edi. Boyaqish yuragida yig'ilib qolgan mehrni kimga izhor etishni bilmasdi. Hayoti-

¹ Likurg – yarim afsonaviy qonun chiqaruvchi davlat va jamoat arbobi.

da unga mehr qoʻygan yagona jonzot bundan sal ilgari oʻlgan baroq iti edi; Burjua menga oʻz baroqʻi haqida toʻxtovsiz gapirar, cherkov unga janoza oʻqish uchun ijozat bermasmikan, bu toʻgʻrisida mening fikrim qandayligini bilmoqchi boʻlardi. Uning soʻzlariga koʻra, bu baroq it haqiqiy nasroniy boʻlib, oʻn ikki oy mobaynida Burjua bilan cherkovga borgan, u yerda hech qachon hurmagan, jim turib organ ovozini tinglagan, xuddi xoʻjayini bilan ibodat qilgandek u bilan yonma-yon oʻtirgan. Bu odam yolgʻizligimni, iztiroblarimni tushunib, butun mehru sadoqatini menga qaratdi, uning qoʻlidan keladigan narsa shu edi, zotan. U men uchun eng mehribon ona, hech qachon birovga ziyon-zahmat yetkazmaydigan eng ardoqli va fazilatli kishi boʻlib qoldi. Gapning loʻndasini aytganda, u ezgulik timsoli boʻlib qoldi, oʻzi bunyod etayotgan yaxshilikdan qoniqish hosil qilgan odam edi. Men Burjuani har gal koʻchada uchraganimda, u menga aql bovar qilmaydigan oliyjanoblik bilan farosatli nigoh tashlar edi; u yelkasida yuki yoʻq kishiday qomatini tik tutib yurishga intilardi; meni sogʻlom va yaxshi kiyingan holda koʻrganidan oʻzini baxtli his etayotganga oʻxshardi. Bu bir jihatdan oddiy kishining fidoyiligi boʻlsa, ikkinchidan, birmuncha yuqori muhitga koʻchirilgan yengiltak qizning muhabbati edi. Burjua mening barcha topshiriqlarimni bajarar, meni belgilangan soatda uygʻotar, chirogʻimni tozalab qoʻyar, zinapoyamiz maydonini supurib-sidirar edi; u pokizaligi bilan har qanday ingliz oqsoch ayoli bilan bahslashishi mumkin edi.

Bizning butun xo'jaligimiz uning gardanida edi. Filopemen¹ga o'xshab yog'och ham arralardi. Mehnat o'z oldiga qo'ygan maqsadini takomillashtirganini anglaganday, u hamma narsani jo'ngina, ammo qoyilmaqom qilib ado etardi. Otel-De klinikasiga assistent-amaliyotchi bo'lib ishga kirganimda Burjua bilan ajralishga to'g'ri keldi, chunki men klinika qoshida yashashim darkor edi. U chuqur g'amga botardi, lekin mening dissertatsiya ustida ishlayotganimda talab qilindigan xarajatlar uchun pul yig'ayotgani uchun o'zini yupatar va bo'sh vaqtlarimda unikiga borib turishimni iltimos qilar edi.

Burjua men bilan faxrlanar va jon-dildan yaxshi ko'rardi. Agar siz mening dissertatsiyamni izlab topsangiz edi, uning Burjuaga bag'ishlanganini ko'rgan bo'lardingiz. Shifoxonada ishlash muddatimning so'nggi yilida unga ot bilan bochka sotib olish va bu mard overialikning qarzini uzishga yetadigan darajada mablag'ga ega edim. Men unga pullarimni sarflaganimni bilgach, rosa jig'ibiyron bo'ldi, shunga qaramasdan xo'p suyundi, uning eng ezgu orzusi ushalgan edi-da, axir. U kuldi va meni koyib qo'ydi; u o'zining bochkasiga, o'z otiga qarar va ko'z yoshlarini artarkan, dedi: «Yaxshi emas! Qanday ajoyib bochka! Lekin siz bunday qilmasligingiz kerak edi... O'zi ham ketvorgan ot ekan, naq overia zotiga o'xshaydi».

Kishi ko'nglini eritadigan voqeani sira ko'rmanman. Mening qarshilik qilishimga qara-

¹ Filopemen – qadimgi yunon qo'mondoni, odil va mehnatsevar kishi bo'lgan.

masdan, Burjua men uchun eng qimmatbaho narsa, siz xonamda ko'rgan – g'ilofiga kumushdan sayqal berilgan jarrohlik asboblari to'plamini albatta sotib olish istagini bildirdi. U mening dastlabki muvaffaqiyatlarimdan o'zida yo'q shod edi, lekin uning «uni men odam qildim» deganini eshitmadim, hatto bunga ishora ham qilmadim. Gapning ochig'ini aytganda, u bo'lmaganda muhtojlik hayotimga zomin bo'lgan bo'lar edi-ku, axir. Boyaqish hayotini men uchun qurbon etdi: ma'lum bo'lishicha, u tungi mashg'ulotlarimni deb men uchun qahva sotib olarkanda, o'zining sarimsoq surtib yer ekan. U kasal bo'lib qoldi. Tunlarni uning boshida o'tkazganimni aytib o'tirmasam ham bo'ladi. Umrimda birinchi bor uni saqlab qolishga muyassar bo'ldim. Lekin ikki yil o'tgach, kasallik yana qaytaladi, qanchalik tirishib parvarish qilmaylik, tabobatdagi barcha vositalarni ishga solmaylik, Burjua vafot etdi. Birorta qirol ham bunchalik parvarish qilinmagan bo'lsa kerak. Ha, Byanshon, bu hayotni o'lim changalidan tortib olish uchun misli ko'rilmagan darajada harakat qildim. Uning o'zi amalga oshirgan ishlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishini istagandim; uning barcha istaklarini ijro etsam degandim, hayotimda shu paytgacha sira takrorlanmagan, qalbimni batamom chulg'agan, tashakkur tuyg'usini izhor etishni nihoyasiga yetkazishni istagandim, hanuzgacha meni yondirib kelayotgan o'tni o'chirmoqchi edim!

– Mening ikkinchi otam Burjua o'z qo'limda jon berdi, – deya davom etdi Deplen ozgina sukut saqlagach, uning hayajonlangani shundoqqina bilinib turardi. – U qoldirgan vasiyat-

nomaga binoan, barcha molu mulki menga o'tmog'i darkor edi; bu vasiyatnomani unga har xil xujjatlar tuzish idorasida yozib berishgan ekan, unda ikkalamiz Rogan ko'chasiga birga ko'chib borgan yil qayd qilingan edi. Unda sof-dil dindor kishining timsoli mujassamlashgan edi. Bibi Maryamni shunday sevar ediki, kishi ma'shuqasini shunday sevishi mumkin, xolos. Garchi u ehtirosli dindor katolik bo'lsa-da, mening dahriyligim haqida lom-mim demagan edi. Kasalligi xatarli tus olganda u mendan o'zi uchun cherkov yordamini uyushtirishda hech narsani ayamaslikni iltimos qilgan edi. Men uning uchun kuniga ikki martadan duoi fotiha o'qishni buyurtma qildim. U kechalari tez-tez o'zining oxiratdagi qismatidan qo'rqayotganini hikoya qilardi: unga hayoti uncha taqvodorlik bilan o'tmaganga o'xshab ko'rinardi. Boyaqish! U ertadan-kechgacha mehnat qilardi. Agar bordi-yu, behisht bor bo'lsa, unga bu kishidan boshqa kim ham munosib bo'lishi mumkin? U avliyo sifatida cherkovning so'nggi xayrbodini qabul qilgan edi (u chindan ham avliyo edi); uning o'limi hayotiga mos edi: Burjuaning tobuti ortidan faqat bir kishi borardi: bu men edim. Yakka-yu yagona valine'matimni dafn etgach, menga qilgan yaxshiliklari evaziga nima qilsam ekan, deb o'ylardim. Uning na oilasi, na do'stlari, na xotini, na bolalari bor edi. Lekin u dindor edi, unda diniy e'tiqod mavjud edi, buning uchun u bilan bahslashishga haqqim bormidi? U bir kuni menga qo'rqa-pisa bo'lajak duoi ibodat haqida yorilgan edi; qilgan yordamini pesh

qilmaslik uchun u mening zimmamga bunday majburiyatni yuklamoqchi emasdi. Dastlabki imkoniyat tugʻilganda men avliyo Sulptsiy cherkoviga kerakli miqdorda pul toʻplab, bir yilda toʻrt bor oxirat ibodatini buyurtma qildim. Burjua uchun amalga oshiriladigan yagona narsa – uning taqvodorlik istagini bajo keltirish. Shu boisdan bir yilda toʻrt marta – koʻklam, yoz, kuz va qishda cherkovga kelaman va shakkokka xos samimiyat bilan deyman: «Yo xudovandi karim, tasarrufotingda oʻlgandan soʻng taqvodor kishilar yigʻiladigan maskan boʻlsa, moʻmin-qobil Burjuani unutma, agar u azob-uqubatni boshidan kechirmogʻi kerak boʻlsa, oʻsha musibatlarni mening gardanimga yukla, toki u tezda jannat atalmish maʼvoga erishgay». Mana, azizim, fikrlash tarzi menikidek kishining qarori shunday boʻladi. Qasamyod etamanki, Burjuaning eʼtiqodi mening miyamda qaror topsaydi, bor bisotimni bergan boʻlur edim.

Deplenni soʻnggi marta davolagan Byanshon mashhur jarrohni dahriy sifatida vafot etgan deb aytishga botinolmaydi. Nahotki, bir vaqtlar peshtoqiga «Buyuk odamlar uchun umidbaxsh diyor» degan soʻzlar yozilgan oʻsha zaminiy maʼbad qopqalarini ochgan kishiga royish overialik jannat qopqalarini ochmagan boʻlsa? Ha ochgan – aynan shunday deb oʻylash dindorlar uchun quvonchli emasmi, axir?!

MUNDARIJA

Gobsek. Qissa. <i>Mahkam Mahmudov va Mirziyod Mirzoidov</i>	3
Chin sevgi. Hikoya. <i>Qodir Mirmuhamedov</i>	98
G'oyib bo'lgan durdona. Hikoya. <i>Naim Karimov</i>	136
Dahriyning ibodati. Hikoya. <i>Poshali Usmon</i>	179

Adabiy-badiiy nashr

ONORE DE BALZAK

DAHRIYNING IBODATI

Qissa va hikoyalar

Muharrirlar
Ma'mura QUTLIYEVA,
Muhayyo RIXSIBEKOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Musahhah
Madina MAHMUDOVA

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: Al № 252, 2014-yil 02.10.da berilgan.

Bosishga 09.02.2016-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 13,0. Shartli bosma tobog'i 21,84.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 53.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va muqovalandi
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-72.

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87;

faks – 273-00-14; e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

Hamkorimiz: kitobxon.uz